

December, 2025

Volume 2, Issue 4



№ 008

Management and Future Technologies

SCIENTIFIC JOURNAL

journal.umft.uz

ISSN 3060-5008

Jurnal sohalari: menejment, dasturiy injiniring, sun'iy intellekt texnologiyalari, kompyuter injiniringi, infokommunikatsiya injiniringi, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, pedagogika va psixologiya, matematika va fizika

Tahririyat kengashi raisi

t.f.d., prof. O'tkirXamdorov
"University of Management and Future Technologies" universiteti rektori

Bosh muharrir

t.f.f.d.dot. Muhiddin Muxiddinov
"University of Management and Future Technologies" universiteti Ilmiy va uslubiy ishlar bo'yicha prorektori

Tahririyat kengashi a'zolari

t.f.d., prof. XakimZaynidinov

t.f.d., prof. Muxammadjon Musayev
t.f.d., prof. Shavkat Fozilov
f-m.f.d. prof. Aripov Mersaid
f-m.f.d. prof. Aloev Raxmatillo
t.f.d., prof. Marat Raxmatullayev
t.f.d., prof. Dilnoz Muxamediyeva
i.f.d., prof. Toxir Hasanov
i.f.d., prof. To'lqin Boboqulov
t.f.d., prof. Jamshid Sul'tonov
f-m.f.d. prof. Dildora Muhamediyeva
i.f.d., prof. Sherzod Rajabov
p.f.d., prof. Qurbonniyoz Panjiyev
p.f.d., prof. Muhabbat Hakimova
t.f.d., prof. Nargiza Usmanova
p.f.d., prof. Nishonboy Kiyamov
p.f.d., prof. Qutlug'bek Qodirov
t.f.d., dot. Halimjon Xujamatov
t.f.d., dot. Ibragim Atadjanov

Muharrirlar

Farhod Ahmedov (J. Koreya)
Sherzod Mustafaqulov (O'zbekiston)
Akmalbek Abdusalomov (J. Koreya)
Bahtiyor Akmuradov (O'zbekiston)
Sherzod Abdullayev (O'zbekiston)
Shabir Ahmad (J. Koreya)
Dilshod Rahmatov (Germaniya)
O.A. Hidayov (Germaniya)
Akmaljon Abdullayev (O'zbekiston)
Jinsoo Cho (J. Koreya)
Jamshid Elov (O'zbekiston)
Young Im Cho (J. Koreya)
Fazliddin Maxmudov (J. Koreya)
Alpamis Kutlimuratov (O'zbekiston)
Faheem Khan (J. Koreya)
Lilia Tightiz (J. Koreya)
Shahnoza Sultanova (O'zbekiston)
Safiullah Khan (Buyuk Britaniya)
Seytkamal Medetov (Fransiya)
Avaz Qaxxorov (O'zbekiston)
Doston Xasanov (O'zbekiston)
Sabina Umirzakova (J. Koreya)
Elmurod Urinov (O'zbekiston)
Muhiddin Umarov (O'zbekiston)
Urmanov Odil (J. Koreya)
Sobir Radjabov (O'zbekiston)

Dizayner

Abduraximov Dilshod

TEXNIKA FANLARI

Rahmatullayev Ilhom; Abduraximov Baxtiyor QO'LLANILISHI	6
Abdulxayev Nodirbek TASVIR ORQALI INSON YUZINI ANIQLASHDA ZAMONAVIY SUN'IY INTELLEKT ALGORITMLARINI TAHLIL QILISH VA UNING QO'LLANILISHIDAGI SAMARADORLIGINI ANIQLASH	14
A'zamov S.S. INTEGRATION OF ASYNCHRONOUS MOTOR SUPPLIED FROM THE INDUSTRIAL POWER NETWORK INTO A RENEWABLE ENERGY SOURCE USING A SVG DEVICE	21
Azamjonov S.R. BRIDGE AND TUNNEL LIGHTING USING MODERN ENERGY EFFICIENT TECHNOLOGIES	27
Muhamedieva D.K.; Naim N.A. EFFICIENTNETB0 ASOSIDAGI PNEVMONIYANI ANIQLASHNING OPTIMALLASHTIRILGAN CHUQUR O'RGANISH MODEL	33
Abduraxmonov Baxromjon; Xabibullaeva Shaxlo KOMBINATORIKA ELEMENTLARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDA QO'LLANILISHI HAQIDA	39
Mannobboyev Sh CHIGIT SARALASHDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH: MUAMMO VA TAHLIL	54
Muhammadiyeva Sh.T.; Umarov M.A. MIYA-KOMPYUTER INTERFEYSI TIZIMI TAHLILI	64
Mukhriddin Mukhiddinov; Khamdamov Utkir; Djuraev Oybek VISION-LANGUAGE MODELS IN MEDICAL IMAGING: FOUNDATIONS, ADVANCES, AND FUTURE DIRECTIONS	73
Kobuljon Ismanov; Alisher Mamatov; Said Maxanov SUN'IY INTELLEKT ETIKASI BO'YICHA XALQARO NAZARIY ME'YORLAR: TAMOYILLAR, MUAMMOLAR VA TA'LIM UCHUN TAVSIYALAR	89
Xusnidin Arzikulov; Zulfizar Orziqulova SMART GRID TIZIMLARIDA ENHAT ASOSIDAGI KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	102

- Haydarov Xumoyun
AI-BASED PREDICTIVE CONTROL AND OPTIMIZATION OF INDUSTRIAL PUMPING STATIONS: A DATA-DRIVEN APPROACH 115
-
- Яхшибаев Д.С.; Тургунов А.М.; Усмонов А.Х.
МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ЧИСЛЕННОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ УРОВНЯ ПОДЗЕМНЫХ ГРУНТОВЫХ ВОД 127
-
- Якубов Максадхон Султаниязович; Юлдашов Рахмон Хусанович
ФОРМИРОВАНИЕ БИЗНЕС-МОДЕЛИ ЛАКОКРАСОЧНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ 133
-
- Ashrabxodjayeva N.A.; Umarov M.A.; Ramatov I.
TASVIRDA OBEKTLARNI TANIB OLIHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI 145
-
- Aripova M.X.; Ibragimova B.B.; Baymatova N.T.
MURAKKAB REV LARINI MODELLASHTIRISH MASALALARIDA INTELLEKTUAL USLUBLAR 152
-
- Усмонов А.Х.; Бегимов У.И.
МОДЕЛИРОВАНИЕ ИНЖЕНЕРНЫХ КОММУНИКАЦИЙ И ВОДОЗАБОРОВ В ДОЛИНАХ ЗНАЧИТЕЛЬНОЙ ШИРИНЫ 158
-
- Odiljonova Rano; Bozorov Jasurbek
TASVIRLARDAN SHOVIQLARNI OLIV TASHLASHNING KLASSIK USULLARI ORQALI TASVIR SIFATINI OSHIRISH 166
-
- Zarmasov Elbek; Elov Jamshid; Kimsanboyev Nurillo
MASOFAVIY TA'LIM AXBOROT TIZIMIDA FAN KONTENTLARINI SHAKLLANTIRISHNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI 170
-
- Aminov shavkatjon
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI 176
-
- Qulmatov M.B.; Salimov J.I.; Ziyodullayev S.S.
SIGNALLARNI SILLIQLASHDA VOLTERRA 2-TUR TENGLAMASINI QO'LLANILISHI 182
-
- Umarov Muhridin; Umarov Xusniddin
IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLAR UCHUN SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN APPARAT-DASTURIY MAJMUA 189

Raxmonov N.N.; Turapov Sh.N.; Qodirov Jahongir; Anvarov Sh.S. KORPARATIV TARMOQ TRAFIGIDA SHUBHALI PAKETLARNI ANIQLASH ALGORITMI	199
Пардабаев С.Б.; Азимова З.Н. АЛГОРИТМИЧЕСКИЙ КОД АНАЛИЗ	205
Rayimova Shaxnoza SUN'IY KO'PAYTIRISH ALGORITMLARINING TUR VA USULLARI	210
Oybek Mallaev , Jamoliddin Gazatov , Jaloliddin Aliyev AHOLI GEOLOKATSIYA MUROJAATLARINI GEOAXBOROT XARITALARIDA VIZUALIZATSIYA QILISH MODULI VA ALGORITMI	214
Xudayberganova Nargiza, Yo'ldasheva Bibihojar, Xudayberganov Temur E'LN QILINGAN MA'LUMOTLARNING STILISTIK VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI ASOSIDA INTERNET FOYDALANUVCHILARINI TANIB OLIH METODLARI	221



TEXNIKA FANLARI



OQIMLI SHIFRLARNI KRIPTOTAHILIL QILISHDA DEEP LEARNING METODLARINING QO‘LLANILISHI

Rahmatullayev Ilhom; Abduraximov Baxtiyor

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali dotsenti
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti "Amaliy matematika va kompyuter
tahlili" kafedrası professori, f.-m.f.d.
ilhom9001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oqimli shifrlash algoritmlarini kriptotahlil qilishda chuqur o'rganishga (deep learning) asoslangan yangi "qora quti" (black-box) yondashuvi taklif etiladi. Mazkur metodologiya shifrlagichning ichki tuzilmasi yoki matematik modellari haqidagi ma'lumotlarga tayanmasdan, faqat "Kalit-Keystream" juftliklariga asoslangan holda statistik og'ishlarni (bias) aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda RC4, RC4A, Trivium va TRIAD oqimli shifrlagichlari misolida 400 000 taga yaqin namunadan tashkil topgan katta hajmdagi dataset generatsiya qilinib, har bir keystream bayti uchun alohida chuqur o'rganish modeli tayyorlandi. Eksperimental natijalar RC4 algoritmidagi ikkinchi chiqish bayti bo'yicha bashorat ehtimoli tasodifiy qiymat ($1/256 \approx 0.0039$) dan ikki baravar yuqori ekanini ko'rsatdi, bu esa mazkur baytda mavjud bo'lgan klassik biasning chuqur o'rganish modeli tomonidan ham aniqlanishini tasdiqlaydi. Boshqa shifrlagichlar — RC4A, Trivium va TRIAD — bo'yicha kuzatilgan bashorat ehtimollari tasodifiy taqsimotga yaqin bo'lib, ularda sezilarli strukturaviy og'ish mavjud emasligi aniqlangan. Taklif etilgan yondashuvning afzalligi shundaki, u murakkab statistik tahlillarni talab qilmaydi, avtomatlashtirilgan holda biaslarni aniqlaydi va yangi avlod oqimli shifrlagichlar xavfsizligini baholashda samarali vosita sifatida qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: Oqimli shifrlash, Kriptotahlil, Deep Learning, RC4, RC4A, Trivium, TRIAD, Keystream, Bias, Neyron tarmoqlar, Supervised Learning, Softmax, Adam Optimizer, Dataset, Black-Box tahlil, Statistik og'ish, Chuqur o'rganish arxitekturasi, Machine Learning asosidagi kriptotoanaliz.

Kirish

An'anaviy kriptotoanaliz usullari odatda oddiy ma'lumot (plaintext), kalit va tegishli shifr matni (ciphertext) o'rtasidagi murakkab chiziqsiz bog'lanishlarni tavsiflovchi akslantirishlarni keng qamrovda tahlil qilishni talab qiladi[1]. Bunday akslantirishlarni ifodalovchi funksiyalar, qoida tariqasida, yuqori darajadagi chiziqsizlikka ega bo'lib, ularning analitik tahlili ham matematik, ham hisoblash nuqtai nazaridan juda murakkab jarayonni tashkil etadi. Natijada kriptotoanalitik hujumlarni loyihalash ko'p hollarda chuqur nazariy bilim, ko'p bosqichli modellashtirish va katta hisoblash resurslarini talab qiladi[2].

So'nggi yillarda chuqur o'rganish (deep learning) algoritmlarining rivojlanishi va GPU/TPU kabi yuqori unumli hisoblash vositalarining ommalashuvi shifr ma'lumotlarini qayta ishlanmagan (raw) ko'rinishda tahlil qilish uchun sifat jihatidan yangi imkoniyatlar ochib berdi. Shifrlashning asosiy tamoyillaridan biri — chiqish oqimiga maksimal darajada tasodifiylik kiritish, ya'ni keystream yoki shifr matnida kriptotoanalitik foydalanishi mumkin bo'lgan hech qanday sezilarli strukturaviy yoki statistik bog'lanishlarning mavjud bo'lmasligini ta'minlashdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda,

xom shifr ma'lumotlarini to'g'ridan-to'g'ri tahlil qilish orqali tasodifiylikdan eng kichik og'ishlarni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi[3].

Chuqur o'rganish algoritmlarining an'anaviy mashinaviy o'qitish usullaridan asosiy farqlaridan biri — ular uchun oldindan alohida xususiyatlarni (feature) qo'lda tanlash yoki ajratish talab etilmaydi. Buning o'rniga, neyron tarmoqlar kirish ma'lumotlarini qatlam-qatlam qayta ishlash orqali kerakli tasvirlashlarni (representations) o'zlari o'rganadi. Shuning uchun deep learning yondashuvi shifr ma'lumotlaridagi nozik statistik tuzilmalarning avtomatik ravishda "kashf etilishi" uchun tabiiy vosita sifatida qaralishi mumkin.

Ushbu g'oya va deep learning arxitekturalarining shifr ma'lumotlariga mos kelishi haqidagi taxmin asosida oqimli shifrlarda (stream ciphers) "qora quti" (black-box) tahlil modeli doirasida bias — ya'ni tasodifiylikdan chetlanishlarni aniqlash uchun chuqur o'rganish usullarini qo'llash taklif etiladi. Taklif qilinayotgan yondashuvning maqsadi — oqimli shifrlagich tomonidan generatsiya qilinadigan keystream'ning ma'lum bir pozitsiyasidagi chiqish bit/baytining sodir bo'lish ehtimolini bashorat qilishdir. Agar model tasodifiy tizim uchun kutiladigan 1/2 yoki 1/256 ehtimoldan sezilarli darajada yuqori aniqlik bilan bashorat qila olsa, ushbu pozitsiyada statistik og'ish mavjud, deb baholanadi[4].

Mazkur yondashuv RC4 va uning yaxshilangan varianti RC4A oqimli shifrlagichlari ustida sinovdan o'tkazildi, shuningdek, zamonaviy yengil oqimli shifrlardan bo'lgan Trivium va TRIAD uchun ham qo'llab ko'rildi. Eksperimental natijalar taklif etilgan model RC4 keystream'ining ayrim baytlarida mavjud bo'lgan biaslarni muvaffaqiyatli aniqlashini, biroq RC4A, Trivium va TRIAD oqimlari uchun bunday sezilarli og'ishlar kuzatilmasligini ko'rsatdi. Shu jihatdan, chuqur o'rganishga asoslangan yondashuv RC4 ning zaif tomonlarini identifikatsiya qilishda an'anaviy statistik tahlil hamda ehtimollik modellari asosidagi ishlarga mantiqan mos keladigan, ammo tuzilish jihatidan soddaroq va avtomatlashtirilgan alternativ usul sifatida namoyon bo'ladi[5].

Umuman olganda, deep learning asosidagi bunday "qora quti" kriptotahlil modeli oqimli shifrlagichlarning keystream sifatini baholash, yashirin biaslarni aniqlash va yangi avlod yengil kriptografik algoritmlar dizaynida xavfsizlik mezonlarini tekshirish uchun istiqbolli yo'nalish sifatida qaralishi mumkin[6].

II. Asosiy qism

Oqimli shifrlash algoritmlarini kriptotahlil qilish uchun chuqur o'rganishga (deep learning) asoslangan metod taklif etiladi. Ushbu metodning asosiy maqsadi - oqimli shifrlar tomonidan generatsiya qilinadigan kalit oqimida (keystream) yuzaga keladigan ehtimoliy og'ishlarni (bias) aniqlashdir. Taklif etilayotgan algoritmnining bosqichma-bosqich tafsiloti quyidagicha:

0. Dastlabki parametrlar quyidagicha belgilansin:

a) Boshlang'ich kalit: K

b) Boshlang'ich holat: S

c) Kalit oqimi: KS

(Qora quti - *black-box* - ssenariysida S ning o'zgarish jarayoni noma'lum hisoblanadi.)

1. Boshlang'ich kalit K quyidagicha ifodalanadi:

$$K = (k_1, k_2, \dots, k_n)$$

bu yerda n - kalit uzunligi (baytlarda).

2. K ni kirish sifatida berib, oqimli shifrlash algoritmini ishga tushiriladi va natijada KS kalit oqimi hosil qilinadi.



3. 1- va 2-bosqichlar N ta turli qiymatdagi K uchun takrorlanadi va natijada N ta “Kalit – Keystream” juftliklari ($K - KS$) to‘plami hosil qilinadi.

4. Hosil qilingan barcha N ta juftlikdan iborat ma’lumotlar to‘plami (dataset) yaratiladi.

5. Dataset ikki qismga ajratiladi:

O‘quv (Training) to‘plami - 80%

Test to‘plami - 20%

6. Deep learning tarmog‘iga kirish sifatida K beriladi, chiqish (target) sifatida esa KS ning 1-bayti olinadi.

7. O‘quv to‘plami yordamida neyron tarmoqni o‘qitib, chuqur o‘rganish modeli yaratiladi.

8. Test to‘plamida modelni tekshiriladi va modelning KS ning 1-baytini bashorat qilish ehtimolligi qayd etiladi.

9. 6–8-bosqichlar KS ning 2-, 3-, 4-, ... baytlari uchun ham takrorlanadi.

10. Agar KS ning i -bayti uchun modelning bashorat ehtimoli $1/256$ (≈ 0.0039) qiymatidan sezilarli darajada yuqori bo‘lsa, unda ushbu i -bayt og‘ishga ega deb baholanadi. Aks holda, u tasodifiy (random) hisoblanadi.

Taklif etilgan metodologiya asosida oqimli shifrlagichlarning tahlili

Yuqorida bayon etilgan eksperimental sozlamalar RC4 algoritmini kriptotahlil qilishda quyidagi parametrlar bilan qo‘llanildi:

Boshlang‘ich kalit uzunligi (n) = 5 bayt

Namunalar soni / juftliklar (N) = 400 000

Tajriba RC4 tomonidan hosil qilingan kalit oqimining 1-, 2-, 3-, 4-, ... baytlarini bashorat qilishga qaratilgan. Ma’lumki, RC4 o‘zgaruvchan uzunlikdagi boshlang‘ich kalitdan (odatda 5–256 bayt oralig‘ida) foydalanadi va natijada baytma-bayt psevdotasodifiy keystream generatsiya qiladi.

Bizning tajriba muhitimizda kirish kaliti 5 bayt qilib belgilandi va 400 000 ta “initial key – keystream” juftligi yaratildi. RC4ning holat vektori (State Vector) yoki boshlang‘ich holati (Initial State), boshlang‘ich kalit asosida tashkillashtirilib, keyinchalik muntazam yangilanishlar orqali keystream hosil qiladi. Tajribada holat vektori uzunligi 256 qilib olingan.

Ta’kidlash lozimki, o‘zgaruvchan boshlang‘ich kalit - kirish, keystreamning j -bayti esa - chiqish (target) sifatida qabul qilinadi.

RC4 uchun chuqur o‘rganishga asoslangan bashorat modeli

Birinchi bosqichda neyron tarmoq RC4 keystreamining birinchi baytini bashorat qilish uchun sozlandi. Har bir namunada:

5 baytli kalit - kirish qatlamidagi 5 ta neyron,

keystreamning birinchi bayti - chiqish neyroni

sifatida berildi.

Misol: Agar boshlang‘ich kalit: 0xEB 9F 72 AE 1C

va generatsiya qilingan keystream: 0xBB F3 16 E8 D9 40 AF 0A D3... bo‘lsa, unda:

Kirish neyronlari: EB, 9F, 72, AE, 1C

Chiqish (target): BB

Jami	400 000	juftlikdan	iborat	dataset	hosil	qilindi.
------	---------	------------	--------	---------	-------	----------

U quyidagicha ajratildi:

80% (320 000) - o‘quv to‘plami

20% (80 000) - test to‘plami

Model quyidagi arxitekturadan iborat bo'ldi:

7 ta zich (*dense*) qatlam, har birida 10 ta neyron

Aktivatsiya funksiyasi: *ReLU*

Chiqarish qatlami: 256 neyron, aktivatsiya: *Softmax*

Optimizer: *Adam*

Yo'qotish funksiyasi: *categorical_crossentropy*

Loss - haqiqiy qiymat bilan bashorat orasidagi xatolik darajasini bildiradi. Adam optimizatori zamonaviy chuqur o'qitish amaliyotida juda keng qo'llaniladi. *Categorical crossentropy* esa ko'p sinfli klassifikatsiya masalalarida qo'llaniladigan standart yo'qotish funksiyasidir.

Natijalar

Taklif etilgan usul uchun ishlab chiqilgan dastur Google Colab muhitida amalga oshirildi. Colaboratory (qisqacha Colab) — Google tomonidan taqdim etiluvchi bepul bulutli xizmat bo'lib, u Jupyter Notebook muhiti asosida ishlaydi va masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan kodlarni ishlab chiqishda GPU va TPU kabi hisoblash resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, u PyTorch, TensorFlow va Keras kabi mashhur kutubxonalar yordamida chuqur o'rganish (deep learning) algoritmlarini yaratishni qo'llab-quvvatlaydi[7-9].

Eksperimentning asosiy maqsadi - boshlang'ich kalit ma'lum bo'lgan sharoitda RC4 oqimli shifrining chiqish keystream baytlarini bashoratlaydigan chuqur o'rganish modelini yaratishdan iborat. Taklif etilgan usulni tasdiqlash uchun keystreamning dastlabki 10 bayti uchun alohida 10 ta chuqur o'rganish modeli qurildi. 1-jadvalda eksperimental natijalar keltirilgan.

Har bir modelni o'qitish uchun 400 000 ta namunadan (kirish–chiqish juftliklaridan) foydalanildi, chunki aynan shu hajmdagi ma'lumotlar bilan bashoratlash ehtimollari barqaror kuzatildi. Ushbu miqdordagi ma'lumotlar uchun Google Colab'da GPU rejimida kodning o'rtacha bajarilish vaqti 16 soniyani tashkil etdi. Kamroq namunalar bilan ham eksperimentlar o'tkazildi va model 30 000 ta namunagacha ma'qul bashorat ko'rsatkichlarini saqlab qoldi. Ammo bu holatda natijalar barqaror bo'lmadi.

1-Jadval.

5 baytli kirish kaliti uchun RC4 keystreamidagi chiqish baytlari bo'yicha bashorat ehtimolligi

RC4 kalit oqimi bayt pozitsiyasi	O'qitish aniqligi (Trening ma'lumotlari bo'yicha bashorat ehtimoli)	Sinov aniqligi (Test ma'lumotlari bo'yicha bashorat ehtimoli)
1	0.0040	0.0040
2	0.0079	0.0073
3	0.0040	0.0040
4	0.0041	0.0040
5	0.0040	0.0039
6	0.0040	0.0042
7	0.0040	0.0039
8	0.0039	0.0042
9	0.0040	0.0040
10	0.0040	0.0040



Nazariy jihatdan, agar yaxshi loyihalangan oqimli shifr tasodifiy keystream hosil qilsa, u holda keystreamning istalgan chiqish bayti qiymatini tasodifdan yaxshiroq aniqlik bilan bashorat qilishning iloji bo'lmaydi. Ya'ni, har bir qiymat (0–255 oralig'idagi) teng ehtimollik - $1/256$ (0,0039) bilan paydo bo'lishi kerak.

Shu kabi, RC4 haqiqiy tasodifiy keystream hosil qilganida, hech bir usul keystreamning biror baytini $1/256$ dan sezilarli darajada yuqori ehtimollik bilan bashorat qila olmagan bo'lardi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, chuqur o'rganish modeli uchun ikkinchi chiqish bayti sezilarli darajada yuqori ehtimollik - $1/128$ (0,0073) bilan bashorat qilinmoqda. Aksincha, boshqa baytlar bo'yicha model tasodifiy holatdagi ehtimollikdan yaxshiroq bashoratga erisha olmadi va bu ehtimollik $1/256$ atrofida kuzatildi.

Boshqacha aytganda, model boshlang'ich kalit bilan keystreamning ikkinchi bayti o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab, aynan shu baytda mavjud og'ishni (bias) o'rganishga muvaffaq bo'ldi. Bu holat RC4 keystreamining ikkinchi bayti uchun bias mavjudligini ko'rsatib, ayrim qo'llanmalarda amaliy «faqat shifratn asosida - ciphertext-only» hujumlarini amalga oshirishga imkon yaratishi mumkin.

Eksperiment boshqacha uzunlikdagi boshlang'ich kalitlar (8, 16, 24 va 32 bayt) bilan ham takrorlandi. Har bir holatda xuddi shunday natijalar olindi - model faqat ikkinchi bayt bo'yicha $1/128$ atrofida og'ishlarni o'rgana oldi, qolgan baytlar uchun bashorat ehtimoli taxminan $1/256$ bo'lib qoldi. Bu esa RC4 keystreamining ushbu baytlari uchun kutilgan tasodifiylik darajasiga mos keladi.

RC4 oqimli shifri bo'yicha umumiy eksperimental natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval 2. RC4 gammalash oqimidagi chiqish baytlari uchun bashorat ehtimolligi (turli uzunlikdagi kalit baytlari bo'yicha)

Kalit uzunligi (bayt)	1-bayt	2-bayt	3-bayt	4-bayt	5-bayt	6-bayt	7-bayt	8-bayt	9-bayt	10-bayt
5	0.0040	0.0079	0.0040	0.0041	0.0040	0.0040	0.0040	0.0039	0.0040	0.0040
8	0.0039	0.0079	0.0041	0.0037	0.0046	0.0038	0.0041	0.0035	0.0038	0.0042
16	0.0040	0.0077	0.0039	0.0042	0.0033	0.0042	0.0042	0.0038	0.0036	0.0042
24	0.0041	0.0075	0.0042	0.0041	0.0040	0.0042	0.0036	0.0044	0.0035	0.0041
32	0.0043	0.0075	0.0038	0.0038	0.0038	0.0038	0.0037	0.0039	0.0038	0.0036

RC4A oqimli shifri uchun ham xuddi shunday tajribalar amalga oshirildi. Ushbu tajribalar natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, RC4A oqimli shifri mualliflarining da'vosi - RC4 algoritmidagi ikkinchi chiqish baytida kuzatiladigan og'ishni bartaraf etganliklari - to'liq tasdiqlanadi. Trivium va TRIAD oqimli shifrlari bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda esa olingan aniqlik darajasi tasodifiy ehtimollikka juda yaqin bo'ldi. Ushbu ikki shifr bo'yicha sezilarli xulosa kuzatilmagani sababli, natijalar bu yerda keltirilmadi.

3-jadval.

5 baytli kirish maxfiy kalitlar uchun RC4 oqimida turli chiqish baytlari pozitsiyalari bo'yicha taxmin ehtimoli

RC4 oqimida bayt pozitsiyasi	Trening aniqligi (Trening ma'lumotlari uchun taxmin ehtimoli)	Test aniqligi (Test ma'lumotlari uchun taxmin ehtimoli)
1	0.0040	0.0042
2	0.0044	0.0037
3	0.0041	0.0046
4	0.0042	0.0040
5	0.0048	0.0033
6	0.0049	0.0046
7	0.0041	0.0036
8	0.0044	0.0044
9	0.0039	0.0037
10	0.0044	0.0041

Mantin va Shamir tomonidan RC4 shifrining kalit oqimi bo'yicha batafsil statistik tahlil o'tkazilgan. Ularning natijalariga ko'ra, agar boshlang'ich permutatsiya tasodifiy tanlansa, RC4 keystreamining ikkinchi bayti nol bo'lish ehtimoli nazariy kutilganga nisbatan qariyb ikki baravar yuqori. Paul va Praneel tomonidan amalga oshirilgan chuqur tahlillar natijasida RC4 keystream generatorining birinchi va ikkinchi chiqish baytlaridagi yangi statistik bias aniqlangan [10-12]. Pudovkina esa birinchi va ikkinchi baytlarning taqsimotidagi og'ishlarni ayrim bir xillik (uniformity) taxminlari asosida analitik ravishda aniqlashga uringan.

4-jadval.

RC4ning zaif tomonlarini aniqlash bo'yicha turli usullarni yondashuv va kuzatishlar nuqtai nazaridan solishtirma tahlili

Tahlil turi	Kuzatish	Manba
Statistik tahlil	RC4ning ikkinchi chiqish so'zi 0 bo'lish ehtimoli taxminiy ehtimoldan deyarli ikki barobar ko'p. Boshqa chiqish so'zlari esa bir xil taqsimlangan	[26]
Statistik tahlil	RC4ning birinchi ikki chiqish so'zi teng bo'lish ehtimoli sezilarli darajada kutilgan ehtimoldan kam	[19]
To'liq ehtimollik modeli	RC4ning birinchi va ikkinchi chiqish qiymatlari hamda digraflar taqsimoti bir xil emas	[27]
Chuqur o'rganish (Deep learning) usuli	RC4ning ikkinchi chiqish so'zi uchun taxmin ehtimoli kutilgan ehtimoldan deyarli ikki barobar ko'p. Boshqa chiqish so'zlari uchun taxmin ehtimoli bir xil taqsimotga mos keladi	Ushbu ish



Xulosa

Ushbu tadqiqotchilar tomonidan qo‘llangan usullar, shuningdek bizning yondashuvimiz va ularga mos kuzatuvlar 4-jadvalda ko‘rsatilgan. RC4 va boshqa oqimli shifrlardagi biaslarni aniqlashga doir ko‘plab tadqiqotlar muayyan farazlar asosida olib borilgan bo‘lib, ular, asosan, keystreamning ehtimollik taqsimotini qo‘lda hisoblashga tayangan. Bunday yondashuvlar shifr ichki tuzilmasini juda chuqur tahlil qilishni talab etgan.

Aksincha, taklif etilayotgan yondashuv biasni aniqlash uchun oldindan hech qanday farazlar, murakkab matematik yoki statistik usullarni talab qilmaydi. U faqat oqimli shifr algoritmining kirish va chiqish juftliklarini olish va ularni chuqur o‘rganish (deep learning) modeliga uzatishni talab qiladi. Shuning uchun taklif etilgan deep learning asosidagi usul biasni aniqlash nuqtai nazaridan oqimli shifrlarni kriptotahlil qilishning ancha sodda va samarali yo‘lini taqdim etadi, deb xulosa qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Maghrebi, H.; Portigliatti, T. & Prouff, E. Breaking cryptographic implementations using deep learning techniques. In Proceedings of the International Conference on Security, Privacy, and Applied Cryptography Engineering, Springer, Cham, 2016, pp. 3-26. doi: 10.1007/978-3-319-49445
2. Hochreiter, S. The vanishing gradient problem during learning recurrent neural nets and problem solutions. *J. of Uncertain. Fuzziness Knowl.-based Systems*, 6(02), 1998, pp. 107–116. doi: 10.1142/s0218488598000094
3. Jarrett, K.; Kavukcuoglu, K.; Ranzato, M.A. & LeCun, Y., September. What is the best multi-stage architecture for object recognition?. In Proceedings of the international conference on computer vision, IEEE. 2009, pp. 2146- 2153. doi: 10.1109/iccv.2009.5459469
4. Brownlee, J. Long Short-term Memory Networks with Python: Develop Sequence Prediction Models with Deep Learning. *Machine Learning Mastery*, 2017.
5. Paul, S. & Preneel, B. A New Weakness in the RC4 Keystream Generator and an Approach to Improve the Security of the Cipher. In Proceedings of the International Workshop on Fast Software Encryption, 2004, February, pp. 245-259. Springer, Berlin, Heidelberg. doi: 10.1007/978-3-540-2
6. De Canniere, C. & Preneel, B. Trivium. In New stream cipher designs. 2008, pp. 244-266. Springer, Berlin, Heidelberg.
7. Isobe, S.T., Meier, W. and Zhang, B., TRIAD v1., <https://csrc.nist.gov/CSRC/media/Projects/LightweightCryptography/documents/round-1/spec-doc/TRIADspec.pdf>, accessed on 01 Feb 2021.
8. Robshaw, M. The eSTREAM project. In New Stream Cipher Designs. 2008. pp. 1-6. Springer, Berlin, Heidelberg.
9. McKay, K., Bassham, L., Sönmez Turan, M. ^ Mouha, N. Report on lightweight cryptography (No. NIST Internal or Interagency Report (NISTIR) 8114 (Draft)). 2016, National Institute of Standards and Technology.
10. Bonner, A. Getting started with google colab. [https:// towardsdatascience.com](https://towardsdatascience.com), 2019 [Accessed on 07 Aug 2020].
11. Erickson, B.J.; Korfiatis, P.; Akkus, Z.; Kline, T. & Philbrick, K. Toolkits and libraries for deep learning. *J. of Digital Imaging*, 2017, 30(4), pp. 400-405. doi: 10.1007/s10278-017-9965-6



12. Mantin, I. & Shamir, A. A practical attack on broadcast RC4. In International workshop on fast software encryption, 2001, April, pp. 152-164. Springer, Berlin, Heidelberg. doi: 10.1007/3-540-45473-x_13



TASVIR ORQALI INSON YUZINI ANIQLASHDA ZAMONAVIY SUN'IY INTELLEKT ALGORITMLARINI TAHLIL QILISH VA UNING QO'LLANILISHIDAGI SAMARADORLIGINI ANIQLASH

Nodirbek Abdulxayev

Kommunikatsiya va axborot texnologiyalar kafedrası, "University of management and future technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston; abdulxayev.nodirbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tasvir orqali inson yuzini aniqlash sohasida zamonaviy sun'iy intellekt (SI) algoritmlarining tahliliga bag'ishlangan. Maqolada MTCNN, RetinaFace, YOLO Face, ArcFace (embedding) va 3D Alignment kabi algoritmlar batafsil ko'rib chiqiladi. Ularning arxitekturasi, afzalliklari, kamchiliklari, qo'llanish sohalari va birgalikda ishlatilish samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Kirish qismida yuz aniqlashdagi mavjud muammolar, asosiy qismida algoritmlar va ularning yechim usullari, shuningdek, solishtirish jadvali keltirilgan. Takliflar va xulosa qismlarida kelajakdagi rivojlanishlar muhokama qilinadi. Maqola ilmiy manbalar asosida tayyorlangan bo'lib, SI algoritmlarining qo'llanilishidagi samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Yuz aniqlash, sun'iy intellekt, MTCNN, RetinaFace, YOLO Face, ArcFace embedding, 3D face alignment, kompyuterli ko'rish, real-time qo'llanish, samaradorlik tahlili.

Kirish

Zamonaviy dunyoda tasvir orqali inson yuzini aniqlash texnologiyalari xavfsizlik, tibbiyot, marketing va ijtimoiy tarmoqlar kabi sohalarda keng qo'llanilmoqda. Biroq, bu jarayonda bir qancha muammolar mavjud. Birinchi navbatda, yorug'lik sharoitlarining o'zgarishi (masalan, quyosh nuri yoki qorong'ulik) yuzni aniqlash aniqligini pasaytirishi mumkin, chunki tasvirdagi kontrast va ranglar buziladi. Ikkinchi muammo - yuzning pozitsiyasi va burchagi: yuz frontal bo'lmaganda (masalan, profil yoki yuqori-past burchaklar) algoritmlar xato qilishi mumkin. Uchinchisi, okklyuziya (yuzning qismi yopiq bo'lishi, masalan, niqob, ko'zoynak yoki soch) va kichik yuzlar (masalan, olis masofadagi tasvirlarda) aniqlashni qiyinlashtiradi. Shuningdek, real-time qo'llanishlarda (video oqimlarida) tezlik va resurslarning cheklanganligi muammo yaratadi. Bu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy SI algoritmlari, masalan, RetinaFace, YOLO Face, ArcFace embedding, 3D face alignment hamda konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) asosidagi modellar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola ushbu algoritmlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashga bag'ishlangan.

Adabiyotlar tahlili

Tasvir orqali inson yuzini aniqlash texnologiyalari bugungi kunda sun'iy intellekt va kompyuter ko'rish sohasining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson yuzi biologik jihatdan noyob bo'lib, u shaxsni aniqlash va farqlash uchun ishonchli biometrik belgi vazifasini bajaradi. Shu sababli yuzni aniqlash texnologiyalari ko'plab amaliy sohalarda keng qo'llanilmoqda [1].

Avvalo, xavfsizlik va biometrik identifikatsiya tizimlarida yuzni aniqlash shaxsni tasdiqlash, noqonuniy kirishlarning oldini olish va jamoat joylarida monitoring olib borish imkonini beradi. Bank tizimlarida va raqamli to'lov platformalarida yuz orqali autentifikatsiya firibgarlik holatlarini kamaytiradi.

Shuningdek, kamerada yuzni aniqlash texnologiyasi qulay va tezkor autentifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Aqlli shaharlar, transport nazorati, aeroport va chegara punktlarida ushbu texnologiya odamlar oqimini samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Tibbiyot sohasida yuzni aniqlash bemorlarni identifikatsiya qilish, genetik yoki nevrologik kasalliklarni aniqlashda yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa yuzni aniqlash avtomatik belgilash, kontentni tartiblash va foydalanuvchi tajribasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi[2].

Hozirgi kundagi inson yuzini aniqlashdagi kamchiliklar:

Yuqori rivojlanish darajasiga qaramasdan, inson yuzini tasvir orqali aniqlash texnologiyalari hanuz bir qator muammolarga duch kelmoqda.

Birinchiidan, yoritilish sharoitlarining o'zgaruvchanligi yuzni aniqlash aniqligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Juda kuchli yoki yetarli bo'lmagan yorug'lik yuz xususiyatlarining yo'qolishiga olib keladi[3].

Ikkinchiidan, yuzning burilishi (pose variation) muammosi mavjud. Old tomondan qaralmagan, yon yoki yuqoridan olingan tasvirlarda algoritmlar yuzni noto'g'ri aniqlashi yoki umuman topa olmasligi mumkin.

Uchinchi muammo - qisman yopilish (occlusion) holatlari. Tibbiy niqoblar, ko'zoynaklar, soqol, bosh kiyimlar yoki boshqa obyektlar yuzning muhim qismlarini berkitib qo'yadi va aniqlashni murakkablashtiradi[5].


To'rtinchiidan, mimika va yuz ifodalarining o'zgarishi ham algoritmlar uchun muammo tug'diradi. Kulish, jahllanish yoki boshqa ifodalar yuz geometriyasini vaqtincha o'zgartiradi.

Beshinchiidan, tasvir sifati pastligi (past aniqlik, shovqin, xiralashuv) aniqlash aniqligini keskin pasaytiradi. Ayniqsa, kuzatuv kameralaridan olingan uzoq masofali tasvirlarda bu muammo yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuningdek, real vaqt talablari va hisoblash resurslarining cheklanganligi ham muhim kamchiliklardan biridir. Yuqori aniqlikka ega algoritmlar ko'pincha katta hisoblash quvvatini talab qiladi, bu esa mobil va IoT qurilmalarda qo'llashni qiyinlashtiradi[4].

Yana bir muhim masala - ma'lumotlar to'plamidagi nomutanosiblik. Ayrim irq, yosh yoki jins guruhlari yetarli darajada ifodalanmagan bo'lsa, algoritmlar xolislikni yo'qotishi va xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

Ilmiy yechimlar sifatida quydagilarni aytishimiz mumkin ya'ni ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy tadqiqotlarda ko'p model (multi-model) yondashuv, ya'ni yuzni aniqlash, hizalash va tanib olish algoritmlarini ketma-ket qo'llash keng qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, 3D yuz modellashtirish, data augmentation, domain adaptation va yengil (lightweight) neyron tarmoqlar yordamida aniqlik va tezlikni bir vaqtda oshirish ustida izlanishlar olib borilmoqda[6,7].





1-rasm. Linux OS uchun Visible Light Facial Recognition ilovalari ishlashining umumiy ko‘rinishi.

Endi bugungi kunda tasvir orqali inson yuzini aniqlashga yo‘naltirilgan eng ko‘p qo‘llanilayotgan suniy intellekt algoritmlarini ko‘rib chiqamiz:

1. MTCNN (Multi-task Cascaded Convolutional Neural Network) - tasvir orqali inson yuzini aniqlash va yuzning muhim nuqtalarini topishga mo‘ljallangan chuqur o‘rganishga asoslangan algoritmdir. Ushbu algoritm kaskadli tuzilishga ega bo‘lib, bir nechta konvolyutsion neyron tarmoqlarning ketma-ket ishlashi orqali yuqori samaradorlikka erishadi[8].

MTCNN uch bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich ma‘lum vazifani bajaradi:


✓ P-Net (Proposal Network). Ya‘ni bunda Tasvir bo‘ylab skanerlash amalga oshiradi, yuz bo‘lishi mumkin bo‘lgan hududlarni aniqlaydi, past aniqlikdagi, lekin tezkor dastlabki filtr vazifasini bajaradi.

✓ R-Net (Refine Network). Bunda P-Net tomonidan topilgan hududlarni aniqlashtiradi, noto‘g‘ri aniqlangan obyektlarni chiqarib tashlaydi, yuz chegaralarini aniqroq belgilaydi.

✓ O-Net (Output Network). Bunda esa yakuniy yuzni aniqlaydi, yuzning asosiy landmark nuqtalarini (ikki ko‘z, burun uchi, og‘iz burchaklari) hisoblab beradi, yuqori aniqlikni ta‘minlaydi (2-rasmda keltirilgan).

MTCNN algoritmining asosiy xususiyatlariga esa quydagilarni keltirishimiz mumkin:

- Multi-task yondashuvi ya‘ni yuzni aniqlash va landmark topish bir vaqtda bajariladi;
- Kaskadli arxitektura orqali esa hisoblash tezligini oshiradi;
- Turli o‘lchamdagi yuzlarni aniqlash qobiliyati mavjudligi;
- Oldindan tayyorlangan (pretrained) modellar mavjudligidir.



2-rasm. MTCNN arxitekturasini uch bosqichli (P-Net, R-Net va O-Net) larni ishlashining umumiy ko‘rinishi keltirilgan.

2. RetinaFace - chuqur konvolyutsion neyron tarmoqlarga asoslangan, bir bosqichli (single-stage) yuqori aniqlikdagi inson yuzini aniqlash algoritmi hisoblanadi. Ushbu algoritm yuzlarni aniqlash bilan birga ularning asosiy landmark nuqtalarini ham yuqori aniqlikda hisoblab berishi bilan ajralib turadi. RetinaFace zamonaviy biometrik va xavfsizlik tizimlarida eng kuchli yuzni aniqlash algoritmlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi[9].

RetinaFace RetinaNet arxitekturasiga asoslangan bo‘lib, Feature Pyramid Network (FPN) va Anchor-based yondashuvlardan foydalanadi. Algoritm quyidagi asosiy bosqichlarda ishlaydi:

1. Backbone tarmoq - Odatda ResNet yoki MobileNet arxitekturasi qo‘llaniladi. U tasvirdan chuqur xususiyatlarni ajratib oladi.

2. Feature Pyramid Network (FPN) - Turli o‘lchamdagi yuzlarni aniqlash uchun ko‘p miqyosli (multi-scale) xususiyat xaritalarini hosil qiladi.

3. Yuzni aniqlash (Face Classification) - Har bir anchor uchun yuz mavjud yoki mavjud emasligi aniqlanadi.

4. Chegara regressiyasi (Bounding Box Regression) - Yuz chegaralari aniq hisoblanadi.

5. Landmark regressiyasi - 5 ta asosiy yuz nuqtasi (ikki ko‘z, burun uchi, ikki og‘iz burchagi) aniqlanadi.

Ushbu RetinaFace algoritmining asosiy avfzalliklari sifatida quydagilarni aytishimiz mumkin.

- Zamonaviy yuz aniqlash algoritmlari ichida eng yuqori aniqliklardan biri;
- Yoritilish, burilish va qisman yopilish holatlarida barqaror ishlaydi;
- Landmark aniqligi juda yuqori;
- Yuqori darajadagi ilmiy asoslangan modeldir.


Amaliy tizimlarda RetinaFace ko‘pincha yuzni aniqlashning asosiy moduli sifatida ishlatiladi. Aniqlangan yuzlar keyinchalik 3D Alignment yordamida normallashtiriladi va ArcFace algoritmi orqali tanib olinadi. Ushbu ketma-ketlik yoritilish va burilish muammolarini minimallashtiradi hamda tanib olish aniqligini maksimal darajaga olib chiqadi.

3. YOLO Face (You Only Look Once – Face Detection) algoritmi - obyektlarni aniqlashga mo‘ljallangan YOLO algoritmining inson yuzini aniqlash vazifasiga moslashtirilgan varianti bo‘lib, real vaqt rejimida yuqori tezlikda ishlashi bilan ajralib turadi. Ushbu algoritm bir bosqichli (single-stage) chuqur konvolyutsion neyron tarmoqqa asoslangan bo‘lib, butun tasvirni bir martalik ko‘rish orqali yuz joylashuvini aniqlaydi [10]. YOLO Face algoritmining ishlash prinsipi quydagichadir:

YOLO Face algoritmi tasvirni panjara (grid)larga bo‘lib, har bir panjara uchun quyidagi ma’lumotlarni hisoblaydi:

- Yuz mavjudligi ehtimoli (confidence score);
- Yuzning chegaraviy qutisi (bounding box);
- Sinf ehtimoli (face class).

Amaliy tizimlarda YOLO Face odatda birlamchi yuzni aniqlash moduli sifatida ishlatiladi. Aniqlangan yuzlar keyinchalik MTCNN yoki RetinaFace yordamida aniqlashtiriladi yoki 3D Alignment orqali hizalanadi. Shundan so‘ng esa ArcFace algoritmi yordamida yuzni tanib olish amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv real vaqt tezligi va yuqori aniqlik o‘rtasida optimal muvozanatni ta’minlaydi. XD-face ma’lumotlar to‘plamida AP50 metrikasining (chapda) va metrikasining (o‘ngda) aniqlash natijalari keltirishimiz mumkin.





3-rasm. XD-face ma'lumotlar to'plamida AP50 metrikasining (chapda) va metrikasining (o'ngda) aniqlash natijalari.

4. ArcFace (Additive Angular Margin Loss) - inson yuzini tanib olish (face recognition) uchun mo'ljallangan zamonaviy chuqur o'rganish algoritmi bo'lib, yuz tasviridan yuqori aniqlikdagi embedding (raqamli vektor ifoda) hosil qiladi. Ushbu embeddinglar orqali yuzlar o'rtasidagi o'xshashlik burchak masofasi asosida aniqlanadi.

ArcFace algoritmi yuzni aniqlashdan keyingi bosqichda ishlaydi va shaxslar orasidagi farqlarni maksimal darajada aniqlab berishga qaratilgan.

5. 3D Face Alignment - yuzni uch o'lchamli model asosida hizalash algoritmi bo'lib, yuzning burilishi, egilishi va yoritilishdagi farqlarni kamaytirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv 2D tasvirlardan 3D yuz geometriyasini tiklash orqali amalga oshiriladi.

Algoritm quyidagi bosqichlardan iborat:

- Yuzning asosiy landmark nuqtalarini aniqlash;
- 3D yuz modelini (masalan, 3D Morphable Model) moslashtirish;
- Yuzni frontal holatga normallashtirish;
- ArcFace kabi tanib olish algoritmlariga tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi.

Yuqoridagi algoritmlar barchasi turli xildagi texnik ko'rsatkichlarda bir biriddan farq qiladi. Aynan ularni bitta tizimga birlashtirish orqali tasvirdan inson yuzini aniqlab olishda sezilarni aniqlikga erishishimiz mumkin.


1-jadval.

Algoritmlarni solishtirish tahlili.

Algoritm	Afzalliklari	Kamchiliklari	Qo'llanish sohalari	Samaradorlik (Aniqlik/Tezlik)
MTCNN	Yuqori aniqlik, alignment integratsiyasi	Past tezlik, resurs talabchan	Yuz tanish, ifoda tahlili	Aniqlik: 92% F1, Tezlik: 1-5 FPS
RetinaFace	Okklyuziyaga chidamli, yuqori AP	CPU da sekin	Kuzatuv, xavfsizlik	Aniqlik: 97% F1, Tezlik: 15-25 FPS
YOLO Face	Real-time tezlik, tejamkor	Past razresheniyada zaif	Video oqimlar, dronlar	Aniqlik: 95% F1, Tezlik: 20-45 FPS
ArcFace	Diskriminativ embedding	Deteksiya emas	Biometriya, smartfonlar	Aniqlik: 98%, Tezlik: O'rtacha
3D Alignment	Poz va okklyuziyaga chidamli	Hisoblash qimmat	AR/VR, 3D tanish	Aniqlik: Yuqori, Tezlik: Past

RetinaFace deteksiya uchun, ArcFace embedding uchun, MTCNN alignment uchun birlashtirilganda samaradorlik oshadi (yuqori aniqlik va tezlik). Masalan, RetinaFace + ArcFace pipelayn real-time + 3D Alignment tanishda samarali. 3D Alignment YOLO bilan birlashtirilganda okklyuziya muammosini 20-30% ga kamaytiradi.

Misol tariqasida RetinaFace, ArcFace va 3D Face Alignment algoritmlarini birgalikda qo'llash orqali olingan natijasini 4-rasmda ko'rishimiz mumkin.



a)

b)

4-rasm. (a va b) Inson yuzini aniqlashda RetinaFace, ArcFace va 3D Face Alignment algoritmlarini birgalikda qo'llash orqali olingan natijaning umumiy ko'rinishi.

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki har uchta (RetinaFace, ArcFace va 3D Face Alignment) algoritmlari birgalikda sinxron ravishda real-time orqali tasvirdan inson yuzini aniqlash orqali qo'llash orqali sezilarli aniqlikga erishishimiz mumkin. Bu esa albatta tizimning ishonchliligi yanada oshiradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda inson yuzini aniqlash va tanib olish jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy sun'iy intellekt algoritmlari RetinaFace, ArcFace (embedding) hamda 3D Face Alignment algoritmlarining kompleks tarzda qo'llanishi tahlil qilindi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur algoritmlarning har biri alohida vazifani bajaradi va ularni ketma-ket hamda uyg'un holda qo'llash orqali tizimning umumiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

3D Face Alignment algoritmi yuzning burilishi va egilishi bilan bog'liq muammolarni kamaytirib, yuzni normallashtirish orqali tanib olish jarayoni uchun optimal sharoit yaratadi. ArcFace embedding algoritmi esa normallashtirilgan yuz tasviridan yuqori aniqlikdagi embedding hosil qilib, shaxslar orasidagi farqlarni aniq ajratib berishga imkon beradi.

Mazkur algoritmlarni birgalikda qo'llash natijasida yuzni aniqlash aniqligi, tanib olish ishonchliligi va tizimning real sharoitlarda ishlash barqarorligi oshadi. Eng muhimi, ushbu yondashuv yoritilish, yuz burilishi, mimika, tasvir sifati pastligi kabi dolzarb muammolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yagona algoritimga asoslangan tizimlarga nisbatan ko'p bosqichli va kompleks yondashuv yuqori samaradorlikka ega bo'lib, zamonaviy biometrik xavfsizlik, identifikatsiya va aqlli kuzatuv tizimlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Deng, J., Guo, J., Niannan, X., & Zafeiriou, S. (2019). ArcFace: Additive angular margin loss for deep face recognition. *Proceedings of the IEEE/CVF Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, pp. 4690–4699.



2. Deng, J., Guo, J., Zhou, Y., Yu, J., Kotsia, I., & Zafeiriou, S. (2020). RetinaFace: Single-shot multi-level face localisation in the wild. *Proceedings of the IEEE/CVF Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, pp. 5203–5212.
3. Zhang, K., Zhang, Z., Li, Z., & Qiao, Y. (2016). Joint face detection and alignment using multitask cascaded convolutional networks. *IEEE Signal Processing Letters*, 23(10), pp. 1499–1503.
4. Redmon, J., & Farhadi, A. (2018). YOLOv3: An incremental improvement. *arXiv preprint*, arXiv:1804.02767, pp. 1–6.
5. Bochkovskiy, A., Wang, C. Y., & Liao, H. Y. M. (2020). YOLOv4: Optimal speed and accuracy of object detection. *arXiv preprint*, arXiv:2004.10934, pp. 1–17.
6. Zhu, X., Liu, X., Lei, Z., & Li, S. Z. (2019). Face alignment in full pose range: A 3D total solution. *IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence*, 41(1), pp. 78–92.
7. Blanz, V., & Vetter, T. (2005). A morphable model for the synthesis of 3D faces. *Proceedings of the 26th Annual Conference on Computer Graphics and Interactive Techniques (SIGGRAPH)*, pp. 187–194.
8. Taigman, Y., Yang, M., Ranzato, M., & Wolf, L. (2014). DeepFace: Closing the gap to human-level performance in face verification. *Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, pp. 1701–1708.
9. Schroff, F., Kalenichenko, D., & Philbin, J. (2015). FaceNet: A unified embedding for face recognition and clustering. *Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, pp. 815–823.
10. Wang, M., & Deng, W. (2021). Deep face recognition: A survey. *Neurocomputing*, 429, pp. 215–244.

INTEGRATION OF ASYNCHRONOUS MOTOR SUPPLIED FROM THE INDUSTRIAL POWER NETWORK INTO A RENEWABLE ENERGY SOURCE USING A SVG DEVICE

S.S. A'zamov

Andijan State Technical Institute, PhD., Associate Professor
azamovsaidikrom1992@gmail.com

Annotation: Due to the depletion of conventional energy resources worldwide and the need to prevent ecological crises, great attention is being paid to supplying electrical energy consumers with power generated from renewable energy sources. In particular, the study investigates the processes of ensuring continuous and high-quality operating modes of asynchronous motors—widely used in the industrial and manufacturing sectors of our country and being the largest consumers of electrical energy—through their integration with renewable energy sources. The issue of integrating industrial power-grid-supplied asynchronous motor systems with renewable energy sources using SVG (Static Var Generator) devices is becoming increasingly important. As asynchronous motors consume 70–80% of the electrical energy produced, excessive reactive power consumption—required for generating the rotating magnetic field—leads to higher energy losses. The factors causing these losses and the performance indicators of motors when connected to renewable energy sources are thoroughly analyzed and discussed in this study.

Keywords: asynchronous motor, cloud technologies, SVG device, reactive power, industrial power grids, integration.

Introduction: In modern energy systems, the relevance of improving energy efficiency and utilizing renewable energy sources is steadily increasing. In industrial manufacturing enterprises, asynchronous motors are the largest consumers of electrical energy, as they are widely used to convert electrical energy into mechanical energy. The reactive power consumed to generate the rotating magnetic field in an asynchronous motor is one of its key operating parameters. The issue of integrating industrial power-grid-supplied asynchronous motor systems with renewable energy sources using SVG (Static Var Generator) devices has become increasingly important. The power factor and energy efficiency of asynchronous motors vary depending on the load conditions.

Calculations for improving the power factor are carried out based on the following formulas:

$$P = \sqrt{3} U \times I \times \cos\varphi$$

$$Q = \sqrt{3} \times U \times I \times \sin\varphi$$

$$S = \sqrt{P^2 + Q^2}$$

In the equation:




Figure 1. Power consumption distribution in an Asynchronous motor

SVG devices supply controllable reactive power to the grid using semiconductor electronic components. These devices consist of the following components:

- IGBT (Insulated Gate Bipolar Transistor) modules
- DC capacitor
- Control system
- Filtering units

The reactive power control equation of an SVG device is given as follows:

$$Q_{svg} = 3 \times U^2 \times \omega \times C \times (1 - (U_{dc} / U)^2)$$

where: U is the line voltage, ω is the angular velocity, C is the equivalent capacitance, U_{dc} is the DC voltage.




Figure 1. Remote Monitoring System for Measuring the Energy Consumption of an Asynchronous Motor Using an Arduino Program

Let us examine the formation, types, and negative impacts of unbalanced currents that occur due to various influences during the operation of an asynchronous motor. The stator of an asynchronous motor contains three symmetrical windings displaced by 120° from one another. When voltage is applied to these windings, magnetic fluxes proportional to the applied voltage are generated in each phase. The main negative effects of unbalanced currents supplied to the stator windings include overheating of the motor, the generation of a counteracting torque opposite to the main electromagnetic torque, and degradation of the insulation of the stator windings.




Figure 2 Voltage regulation in smart inverters.

presents active and reactive power set-points for DER devices in distribution networks to provide regulation services. The model-free implementation of DOEs in explicitly considers both active-reactive power and import-export limits at customer connections. Inspired by where nodal P-Q operating envelopes are introduced to determine aggregate flexibility at the transmission/distribution interface for ancillary service provisions, the authors in have proposed DOEs for household connections using probabilistic load flows and a convex hull approximation, which encapsulates the feasible operating region in the P-Q space (including both import-export and active-reactive power limits) for each household. Fig. 2(a) illustrates the bounding box representing the capability curve at the Point of Connection (POC) of a household, and Fig. 10(b) represents the convex hull of feasible P-Q operating points within the capability curve obtained by performing probabilistic load flows. Fig. 1 depicts the time-varying operating envelopes of certain households of the LV distribution network in on a particular day. Additionally, Fig. 2 illustrates the behaviour of aggregate time-varying operating envelopes (obtained by the Excessive unbalanced currents beyond the permissible limit significantly shorten the motor's operational lifetime. If the voltage asymmetry in the supply network reaches 4%, the service life of the asynchronous motor may be reduced by up to half. Asynchronous motors experience two main types of asymmetry: amplitude asymmetry and phase-angle asymmetry. Amplitude asymmetry currents typically arise from unequal voltages applied to the stator windings. The integration scheme includes the following components: a central control system and a real-time monitoring system.

Table 1. Parameters of the Asynchronous Motor

1.	Parameter	Value
2.	Power	55 kW
3.	Voltage	380 V
4.	Current	98 A
5.	$\cos\phi$ (power factor)	0.85
6.	Efficiency	94.5%

Power Factor Improvement Results

The use of the SVG device significantly improved the power factor of the asynchronous motor.



Table 2. Variation of the Power Factor

No	Load (%)	cosφ (without SVG)	cosφ (with SVG)	Improvement (%)
1.	25	0,45	0.95	111.1
2.	50	0,68	0.96	41.2
3.	75	0,82	0.97	18.3
4.	100	0,85	0.98	15.3

Energy Efficiency Analysis

The implementation of the SVG device reduced energy consumption in the following aspects:

1. Reactive Power Compensation – reducing losses in the power grid
2. Voltage Stability – improving motor efficiency
3. Harmonic Filtering – minimizing additional losses

The equation for calculating the reduction in losses is as follows:

$$\Delta P_{network} = 3 \times I^2 \times R \times (1 - (\cos\phi_1/\cos\phi_2)^2)$$

Where: I – network current, R – resistance, cosφ₁ and cosφ₂ – power factors before and after the implementation of the SVG device, respectively.




Figure 3: Control scheme based on the electrical energy consumption of an asynchronous motor by a consumer.

Integration with Renewable Energy Sources

SVG devices effectively integrate with the following renewable energy sources:

1. Solar power - meeting the reactive power demand of inverters
2. Wind power - stabilizing variable loads
3. Biofuels - improving the power quality of generators



Economic Efficiency Analysis

The economic efficiency of implementing an SVG device is based on the following factors:

Investment costs.

Investment Costs:

- SVG device cost: 12 000,000 so'm
- Installation and design: 2500,000 so'm
- Total investment: 14500,000 so'm

Annual Savings:

- Electrical energy savings: 45,600 kWh
- Tariff: 450 som/kWh
- Annual financial savings: 20520,000 so'm

Table 3: Economic Indicators

Indicator	Value
Investment	14.5 million so'm
Annual Savings	20.52 million so'm
Payback Period	8.5 months
So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga, jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, xavfsizlik va ijtimoiy xizmatlar tizimiga chuqur kirib borishiga sabab bo'lmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash, tahlil qilish, bashoratlash va mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan SI tizimlari inson faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga, tubdan yangi ijtimoiy, huquqiy va axloqiy muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa, SI tizimlarining jamiyatga ko'rsatadigan ta'siri ularning nafaqat texnik imkoniyatlari, balki axloqiy asoslanganligi bilan ham bevosita bog'liq ekanligi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Sun'iy intellektni joriy etilishi bilan bog'liq asosiy axloqiy muammolar qatoriga algoritmik diskriminatsiya, shaxsiy ma'lumotlar maxfiylikning buzilishi, avtomatlashtirilgan qarorlar uchun javobgarlikning noaniqligi, inson nazoratining cheklanishi, shaffoflikning yetarli darajada ta'minlanmasligi hamda raqamli tengsizlikning kuchayishi kabi holatlar kiradi. Ushbu muammolar ayniqsa ta'lim tizimida keskin namoyon bo'lib, o'quvchilarning baholanishi, individual ta'lim yo'llarining shakllanishi, pedagogik adolat, akademik halollik va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli bugungi kunda sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga joriy etishda nafaqat texnologik samaradorlik, balki etik muvofiqlik ham muhim mezon sifatida qaralmoqda.

Mazkur jarayonlar global miqyosda ham keng muhokamaga sabab bo'lib, sun'iy intellekt etikasi bo'yicha xalqaro normativ-huquqiy yondashuvlar shakllanmoqda. Jumladan, UNESCO tomonidan 2021-yilda qabul qilingan "Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiya" hujjati, OECDning



“ishonchli sun’iy intellekt” tamoyillari hamda Yevropa Ittifoqining “Trustworthy AI” konsepsiyasi sun’iy intellektni inson huquqlari, adolat, shaffoflik, xavfsizlik va javobgarlik asosida tartibga solishga qaratilgan yetakchi xalqaro nazariy me’yorlar sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu hujjatlar sun’iy intellektni rivojlantirishda “Inson manfaatlariga yo’naltirilgan sun’iy intellekt” g’oyasini asosiy ustuvor yo’nalish sifatida belgilab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli transformatsiya jarayonlari, jumladan, ta’lim tizimini raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo’yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 – yil 5-oktyabrdagi PF – 6079–son farmoni bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlangan ushbu strategiya doirasida 2024–yil 14-oktyabrda “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 – yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ – 358-sonli qaror qabul qilingan, bunda, maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimida raqamli platformalarning jadal joriy etilishi ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt elementlarini bosqichma-bosqich tatbiq etishni hamda xavfsizlik nuqtai nazaridan sun’iy intellekt texnologiyalari bo’yicha etika qoidalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish, etik xavflarni oldindan baholash, adolatni ta’minlash va shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash masalalari yetarli darajada ilmiy asoslangan mexanizmlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt etikasi bo’yicha xalqaro nazariy me’yorlarni tizimli tahlil qilish, ularning umumiy tamoyillarini aniqlash, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni ilmiy baholash hamda ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro tajribaga tayangan holda O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellektdan mas’uliyatli va xavfsiz foydalanish modelini shakllantirish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi sun’iy intellekt etikasi bo’yicha yetakchi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy me’yorlarni tahlil qilish, asosiy tamoyillar va muammolarni aniqlash hamda ta’lim tizimi uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- sun’iy intellekt etikasi tushunchasining nazariy mohiyatini ochib berish;
- xalqaro me’yoriy hujjatlar asosida asosiy etik tamoyillarni tahlil qilish;
- sun’iy intellekt bilan bog‘liq dolzarb axloqiy muammolarni tasniflash;
- ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanishda yuzaga keladigan etik muammolarni aniqlash;
- ta’lim uchun mas’uliyatli sun’iy intellektdan (responsible AI) foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga joriy etishda etik, huquqiy va pedagogik muvozanatni ta’minlash, shuningdek, milliy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan barqaror va mas’uliyatli foydalanish bo’yicha konseptual yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Sun’iy intellekt etikasi tushunchasining nazariy asoslari

Sun’iy intellekt (SI) tushunchasi zamonaviy ilm-fan va texnologiya rivojining eng muhim fenomenlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda sun’iy intellekt odatda inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan tahlil qilish, o‘rganish, mantiqiy xulosa chiqarish, bashoratlash va qaror qabul qilish funksiyalarini amalga oshira oladigan algoritmik va dasturiy tizimlar majmui sifatida talqin etiladi.

Biroq texnologik taraqqiyot natijasida sun'iy intellektning jamiyat hayotiga chuqur integratsiyalashuvi uni faqat texnik kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy va axloqiy hodisa sifatida ham ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt etikasi tushunchasi raqamli etika va texnologik etika yo'nalishlarining mantiqiy davomchisi sifatida shakllandi. Umumiy etika inson xulq-atvori, qadriyatlari va axloqiy me'yorlarini tartibga solsa, raqamli etika zamonaviy axborot texnologiyalari, internet muhiti va raqamli xizmatlarning jamiyatga ta'sirini o'rganadi. Sun'iy intellekt etikasi esa aynan avtomatlashtirilgan aqlli tizimlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning inson hayoti, huquqlari, erkinliklari va jamiyat barqarorligiga ta'siri bilan bog'liq axloqiy muammolarni ilmiy jihatdan tahlil etadi.

Sun'iy intellekt etikasi nazariyasining markazida "inson manfaatlari" tamoyili turadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, har qanday sun'iy intellekt tizimi inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning huquqlarini cheklamasligi, jamiyatning ijtimoiy adolat, tenglik va xavfsizlik tamoyillariga zid kelmasligi lozim. Bu g'oya yetakchi xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO, OECD hamda Yevropa Ittifoqining rasmiy yondashuvlarida asosiy ustuvor yo'nalish sifatida mustahkamlangan. Nazariy jihatdan sun'iy intellekt etikasi quyidagi asosiy kategoriyalar orqali tavsiflanadi:

Birinchidan, inson huquqlari ustuvorligi. SI tizimlari shaxsning daxlsizligi, shaxsiy hayoti, fikrlash erkinligi va kamsitilmaslik huquqlarini buzmasligi kerak. Algoritmik qarorlar inson huquqlariga tahdid soluvchi omilga aylanmasligi zarur.

Ikkinchidan, adolatlilik. Ma'lumotlarda mavjud bo'lgan tarixiy yoki ijtimoiy noaniqliklar sun'iy intellekt algoritmlari orqali me'yordan oshmasligi zarur. Algoritmik diskriminatsiya zamonaviy SI etikasi nazariyasining eng muhim muammolaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Uchinchidan, shaffoflik va tushuntiriluvchanlik. Sun'iy intellekt tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning mantiqiy asoslari foydalanuvchi uchun tushunarli bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, javobgarlik. Agar SI noto'g'ri qaror qabul qilsa, uning oqibatlari uchun mas'ul subyekt aniq belgilangan bo'lishi kerak. Javobgarlikning noaniqligi sun'iy intellektni keng miqyosda tatbiq etishda asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Beshinchidan, xavfsizlik va barqarorlik. SI tizimlari texnik nosozlik, kiberxurujlar va noxolis foydalanishdan himoyalangan bo'lishi zarur. Aks holda, bunday tizimlar ijtimoiy xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirishi mumkin.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt etikasi nazariyasi normativ va deskriptiv yo'nalishlarni ham o'z ichiga oladi. Normativ etika "qanday bo'lishi kerak?" degan savolga javob izlab, sun'iy intellekt uchun axloqiy me'yorlarni belgilaydi. Deskriptiv yondashuv esa "hozirda qanday?" degan savol asosida jamiyatda real mavjud bo'lgan sun'iy intellektdan foydalanuvchi inson xulq-atvorini tahlil qiladi. Bu ikki yo'nalish uyg'unlashgandagina sun'iy intellekt etikasi samarali nazariy poydevorga ega bo'la oladi.

Ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt etikasi faqat texnologiya ishlab chiquvchilarga emas, balki davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish tizimlari, shuningdek keng jamoatchilik uchun ham muhim metodologik yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Ayniqsa, ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanishda etik me'yorlar o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari



himoyasi, baholashning adolatliligi, pedagogik halollik va teng imkoniyatlarni ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir.

2. Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha xalqaro nazariy me'yorlar.

Sun'iy intellektning jadal rivojlanishi va global miqyosda keng joriy etilishi natijasida uning inson huquqlari, xavfsizlik, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishga ta'siri masalalari alohida e'tibor markaziga chiqdi. Shu sababli so'nggi yillarda yetakchi xalqaro tashkilotlar tomonidan sun'iy intellekt etikasi bo'yicha umumiy konseptual yondashuvlar, universal tamoyillar va normativ tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu bo'limda mazkur yo'nalishda asos bo'lib xizmat qilayotgan UNESCO, OECD va Yevropa Ittifoqining "Trustworthy AI" konsepsiyalari hamda IEEE tashabbuslari tizimli tahlil qilinadi.

2.1. UNESCO yondashuvi: sun'iy intellekt etikasi bo'yicha global universal standart

2021-yilda UNESCO tomonidan qabul qilingan "Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence" hujjati sun'iy intellekt etikasi bo'yicha dunyodagi birinchi universal xalqaro normativ hujjat sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hujjat 190 dan ortiq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lib, unda sun'iy intellektni rivojlantirish va joriy etishda asosiy axloqiy, ijtimoiy va huquqiy yo'nalishlar belgilab berilgan.

UNESCOning sun'iy intellekt etikasi bo'yicha konsepsiyasi o'z markazida inson qadr-qimmatini va manfaatlarini himoya qilish tamoyilini qo'yadi. Ya'ni har qanday texnologik yechim yoki avtomatlashtirilgan qaror insonning huquqlari, erkinliklari va farovonligi ustuvor bo'lgan holda qo'llanilishi lozim. Hujjatda SI etikasi bir qator asosiy tamoyillar asosida belgilangan, bular inson huquqlarining ustuvorligi, inklyuzivlik va tenglikni ta'minlash, adolat va kamsitmaslik, shaffoflik va izoh berish imkoniyati, texnologik xavfsizlik va barqarorlik, ma'lumotlar maxfiyligi hamda javobgarlik va ijtimoiy mas'uliyat. Bu yondashuvning eng muhim jihati shundaki, sun'iy intellekt etikasi faqat texnik masala sifatida emas, balki jamiyat hayotining barcha qatlamlariga ya'ni madaniyat, ta'lim, ijtimoiy munosabatlar va siyosiy boshqaruvga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa ta'lim sohasida SI texnologiyalarini joriy etishda pedagogning hal qiluvchi roli, o'quvchilarning manfaatlari, teng imkoniyatlar yaratish va shaxsiy ma'lumotlarning ishonchli himoyasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan UNESCO konsepsiyasi global miqyosda yagona me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hujjat har bir davlat, jumladan O'zbekiston uchun ham SI texnologiyalarini etik tamoyillar asosida joriy etish, ularni boshqarish va ta'lim tizimiga uyg'un integratsiya qilishda muhim metodologik tayanch vazifasini bajarishi mumkin.

2.2 OECD yondashuvi: ishonchli sun'iy intellekt (Trustworthy AI) konsepsiyasi

OECD tomonidan 2019-yilda qabul qilingan va 2024-yilda yangilangan "AI Principles" hujjati sun'iy intellekt etikasi masalasiga davlatlar va hukumat vakillari uchun mo'ljallangan konsepsiya sifatida yondashadi. Ushbu hujjatda sun'iy intellektni "ishonchli sun'iy intellekt" tamoyili asosida rivojlantirish g'oyasi ilgari suriladi. Bu tamoyillar ikki asosiy yo'nalishga tayanadi: qiymatga asoslangan tamoyillar va siyosiy tavsiyalar. Qiymatga asoslangan tamoyillar qatoriga inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni hurmat qilish, adolat, tenglik va inklyuzivlikni ta'minlash, shaffoflik va

tizimlarning tushuntiriluvchanligini oshirish, texnologik xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek javobgarlikni aniq belgilash kiradi.

OECD yondashuvining muhim jihati shundaki, u sun'iy intellektni texnik muammo sifatida emas, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida ko'radi. Ushbu tamoyillar ko'plab davlatlarda milliy sun'iy intellekt strategiyalarini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

2.3. Yevropa Ittifoqi: “Trustworthy AI” yo‘riqnomasi

Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqнома sun'iy intellekt tizimlarining ishonchli, xavfsiz va inson huquqlariga mos ishlashini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvni taqdim etadi. Ushbu hujjatga ko'ra, har qanday sun'iy intellekt tizimi uch asosiy mezonga javob berishi lozim: qonuniylik, axloqiylik va texnik ishonchlilik. Mazkur yondashuv asosida yetti asosiy talab ishlab chiqilgan bo'lib, ular sun'iy intellektning inson nazorati ostida ishlashi, texnik xavfsizlikni ta'minlashi, ma'lumotlar maxfiylikni himoya qilishi, faoliyati shaffof bo'lishi, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymasligi, ijtimoiy va ekologik farovonlikka hissa qo'shishi hamda aniq javobgarlik mexanizmlariga ega bo'lishini talab qiladi.

Yo'riqnomada, shuningdek, sun'iy intellekt tizimlarini amaliy jihatdan baholash uchun etik mezonlar, risklarni baholash mexanizmlari va sertifikatlashtirish jarayonlari bo'yicha metodik ko'rsatmalar ham berilgan. Bu yondashuv ayniqsa ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat boshqaruvi kabi yuqori ijtimoiy mas'uliyat talab qiladigan sohalarda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu sohalarda sun'iy intellektning ishonchliligi va adolatliligi bevosita inson hayoti va farovonligiga ta'sir ko'rsatadi.

2.4. IEEE va ilmiy meta-tahlillar.

IEEE tomonidan ishlab chiqilgan IEEE 7010-2020 standarti sun'iy intellekt va avtonom tizimlarning inson farovonligiga real ta'sirini baholash metodologiyasini taklif etadi. Bu yondashuv SI ni faqat texnologik emas, balki ijtimoiy indikatorlar orqali baholash imkonini beradi.

Shuningdek, 200 dan ortiq xalqaro hujjatlarni qamrab olgan ilmiy meta-tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt etikasi bo'yicha 17 ta keng tarqalgan tamoyil mavjud, biroq ularning talqini va amaliy ustuvorligi hujjatdan hujjatga sezilarli darajada farqlanadi. “Adolat”, “shaffoflik”, “maxfiylik” tushunchalari turli kontekstlarda turlicha izohlanadi.

2.5. Xalqaro me'yorlarni qo'llashdagi muammolar

Xalqaro tamoyillar keng konsensus asosida shakllangan bo'lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator murakkab muammolar yuzaga kelmoqda:

- texnologiyalarning juda tez rivojlanishi sababli etik me'yorlarning tez eskirishi;
- davlat, biznes va fuqarolik jamiyati manfaatlarining to'qnashuvi;
- milliy qonunchilik tizimlarining zaifligi;
- maxfiylik va javobgarlik bo'yicha huquqiy bo'shliqlar.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tamoyillar bo'yicha umumiy kelishuv mavjud bo'lsa-da, ularni “qanday” va “kim tomonidan” amalga oshirish masalalari ochiq qolib, natijada global



me'yorlardan milliy tartibga solish tizimlariga o'tish jarayonida asosiy muammolar yuzaga kelmoqda.

2.6. Xalqaro yondashuvlarning taqqoslama tahlili

Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha UNESCO, OECD va Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar mazmunan turli yo'nalishlarga urg'u bersa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy yadroviy tamoyillar tizimi mavjud. Ushbu yondashuvlarni taqqoslash orqali tahlil qilish ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniq ilmiy asosda ochib berish imkonini beradi.

- UNESCO yondashuvi global va universal xarakterga ega bo'lib, u davlat siyosati, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy rivojlanishni qamrab oladi.

- OECD yondashuvi asosan davlat boshqaruvi, iqtisodiy, siyosiy va milliy strategiyalar uchun mo'ljallangan.

- Yevropa Ittifoqi yo'riqnomasi esa amaliy joriy etish, texnik baholash va sertifikatlash mexanizmlariga yo'naltirilgan.

Demak, UNESCO normativ-axloqiy me'yorlar, OECD siyosiy-strategik me'yorlar, Yevropa Ittifoqi yo'riqnomasi esa amaliy-texnik me'yor vazifasini bajaradi. Mazkur farqlar ularni bir-birini inkor etuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi global me'yoriy tizim sifatida qarash imkonini beradi.

3. Sun'iy intellekt etikasi bilan bog'liq asosiy muammolar

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va turli sohalarga keng ko'lamda joriy etilishi ularning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda murakkab axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xalqaro me'yoriy hujjatlarda belgilangan tamoyillar nazariy jihatdan mukammal bo'lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonida 1-rasmda keltirilgan tizimli muammolar mavjud.



1-rasm. Sun'iy intellektni joriy etishda yuzaga kelayotgan etik va huquqiy muammolar

Algoritmik diskriminatsiya bu sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ayrim ijtimoiy guruhlarga nisbatan adolatsiz yoki tarafkashligi bilan bog'liq muammo bo'lib, u asosan mutaxassis tomonidan o'qitilgan ma'lumotlardagi to'liq bo'lmagan axborot va model sozlamalaridagi xatolar bilan izohlanadi. Bunday holatlar avtomatlashtirilgan ishga qabul qilish

jarayonlari, kredit reytingini baholash, shuningdek, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash kabi tizimlarda bilvosita xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimlarida shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish jarayoni ham alohida e'tibor talab qiladi, chunki ularning samaradorligi katta hajmdagi maxfiy axborotlar bilan ishlashga tayanadi. Bu jarayon ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya hamda davlat xizmatlari kabi sohalarda yuqori darajada maxfiy axborotlar bilan ishlashni talab etadi. Bunday ma'lumotlarning yetarli darajada himoyalanganligi natijasida shaxsga doir ma'lumotlar uchinchi tomonga chiqib ketishi natijasida shaxs erkinligining cheklanishi jiddiy xavflarni keltirib chiqaradi. Shu bois shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash masalasi bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining eng muhim va eng zaif bo'g'inlaridan biri sifatida qaraladi.

Keyingi tizimli muammolardan biri bu javobgarlikning noaniqligi bo'lib, sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar noto'g'ri qaror qabul qilgan holatlarda javobgarlik kimning zimmasiga tushishi masalasi bugungi kunda eng murakkab huquqiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Amaldagi huquqiy tizimlar asosan inson faoliyatidan kelib chiqadigan javobgarlikni belgilaydi, biroq sun'iy intellekt ishtirokidagi qarorlar jarayonida soha mutaxassislari, texnologiyani joriy etgan tashkilotlar va tizim foydalanuvchilari kabi bir nechta subyektlar qatnashadi. Javobgarlikning ular o'rtasida aniq belgilanmaganligi esa huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirib, sud jarayonlarida va normativ-huquqiy tartibga solishda ham jiddiy qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Sun'iy intellektning yana bir muhim jihati uning avtonomligi, ya'ni mustaqil ishlash qobiliyatidir. Biroq qarorlar to'liq avtomatlashtirilgan holda, inson ishtirokisiz qabul qilinganda inson nazoratining kamayishi (loss of human oversight) muammosi yuzaga keladi. Bunday holatda noto'g'ri qarorlarning avtomatik ravishda ko'payishi, texnik nosozliklarning kech aniqlanishi, foydalanuvchining tizimga ortiqcha ishonib ketishi (automation bias) hamda mas'uliyatni bevosita texnologiya zimmasiga yuklash tendensiyasi ortadi. Shu bois sun'iy intellektdan foydalanishda inson ishtirokini ta'minlash muhim etik talab sifatida qaralishi lozim.

Shuningdek, texnologik tengsizlik va raqamli tafovut muammolariga e'tibor qaratsak, sun'iy intellekt texnologiyalari katta moliyaviy sarmoya va rivojlangan texnik infratuzilmani talab qilgani bois rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, shuningdek, shahar va qishloq hududlarida texnik imkoniyatlar yetarli va cheklangan sharoitlarda raqamli tafovut (digital divide) yanada ortib bormoqda. Bu holat sun'iy intellekt texnologiyalaridan teng va adolatli foydalanish imkoniyatlarini cheklab, ijtimoiy adolat tamoyiliga zid bo'lgan vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt etikasi bilan bog'liq muammolar faqat texnik xarakterga ega emas, balki inson huquqlari, ijtimoiy adolat, huquqiy javobgarlik va mas'uliyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab tizimli muammolar majmuini tashkil etadi. Algoritmik diskriminatsiya, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi, javobgarlikning aniq belgilanmaganligi, inson nazoratining cheklanishi hamda texnologik tengsizlik kabi omillar sun'iy intellektdan foydalanishni qat'iy ilmiy asoslangan va normativ jihatdan mustahkam mexanizmlar orqali tartibga solish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

4. Ta'lim tizimida sun'iy intellekt etikasi muammolari

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga jadal joriy etilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, individual yondashuvni ta'minlash, monitoring va baholashni



avtomatlashtirish kabi muhim imkoniyatlarni yaratmoqda. Biroq mazkur jarayon bilan bir qatorda ushbu texnologiyalarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan pedagogik, axloqiy va huquqiy masalalarni inobatga olishni ham talab etadi. Mazkur masalalar o'quvchilarning ta'lim jarayoni bilan bog'liq huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, pedagogning mas'uliyatini aniq belgilash va baholash jarayonining adolatli bo'lishi kabi ta'limning asosiy tamoyillari bilan bevosita bog'liqdir.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va pedagogik adolat muammosi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi avtomatlashtirilgan baholash tizimlari test topshiriqlarini tekshirish, yozma ishlarni tahlil qilish va o'quvchining rivojlanish dinamikasini muntazam monitoring qilish imkonini yaratmoqda. Biroq ushbu texnologiyalarning pedagogik adolatlilikni ta'minlash darajasi hali ham to'liq kafolatlanmagan. Amaliyotda bir qator muammolar kuzatilmoqda: baholash mezonlarining shaffof emasligi, kreativ fikrlash va subyektiv yondashuvlarning avtomatik modellarda yetarli aks etmasligi, o'quvchining psixologik holati va individual xususiyatlarining e'tibordan chetda qolishi hamda xatoliklarning tizimli takrorlanish xavfi. Natijada avtomatlashtirilgan baholash ko'pincha o'quvchining real bilim darajasini to'liq aks ettirmasligi mumkin, bu esa pedagogik adolat tamoyiliga zid holatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari himoyasi muammosi. Ta'lim tizimida sun'iy intellektning faol qo'llanilishi o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari, shaxsiy profillari, xulq-atvori va shaxsga doir bo'lgan ma'lumotlari yuqori darajada maxfiy axborotlar bazasining shakllanishiga olib kelmoqda. Ushbu ma'lumotlarning yetarli darajada himoyalansizligi natijasida noqonuniy kuzatuv, ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga tarqalishi, shaxs erkinligining cheklanishi, o'quvchi sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazilishi kabi xavflarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishda "minimal ma'lumot yig'ish" va "belgilangan maqsadlarda foydalanish" tamoyillari asosiy etik talab sifatida qaralishi zarur.

Akademik halollik muammolari. Sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar yordamida matn yaratish, tarjima qilish va masalalarni avtomatik yechish vositalari o'quv jarayonida akademik halollik muammosini keskinlashtirmoqda. O'quvchilar tomonidan mustaqil ishlarning sun'iy intellekt yordamida bajarilishi, ijodiy topshiriqlarni tayyorlash, manbalarni ko'rsatmasdan foydalanish holatlari ko'payishi natijasida bilimlarning real egallanish darajasi pasayishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatiga, baholashga bo'lgan ishonchga va ta'lim natijalarining haqiqiylikiga jiddiy xavf tug'diradi.

Pedagog rolining transformatsiyasi va kasbiy mas'uliyat muammosi. Sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi pedagogning an'anaviy rolini tubdan o'zgartirmoqda. Endilikda pedagoglar bilim beruvchi roldan yo'naltiruvchi, maslahatchi va o'quv jarayonini boshqaruvchi subyektga aylanmoqda. Bu esa ta'lim sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayrim xavflarni ham yuzaga chiqaradi. Jumladan, baholash, tahlil va qaror qabul qilish jarayonlarining ortiqcha darajada texnologiyaga topshirilishi pedagog mas'uliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli pedagoglar sun'iy intellektni yordamchi vosita sifatida qabul qilishi, o'quv jarayoniga oid yakuniy qarorlar uchun mas'uliyatni esa o'z zimmasida saqlab qolishi zarur.

Raqamli tengsizlik va inklyuzivlik muammolari. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi barcha ta'lim muassasalari uchun bir xil imkoniyatlarni ta'minlab bera olmayapti. Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, internet tarmog'i sifatidagi farqlar hamda raqamli savodxonlik darajasidagi tafovutlar shahar va qishloq maktablari, iqtisodiy jihatdan

rivojlangan va chekka hududlar, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar o'rtasida yangi "raqamli tengsizlik" to'liqining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat esa ta'limda teng imkoniyatlar tamoyilini zaiflashtirib, ayrim guruhlarning zamonaviy ta'lim resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish pedagogik samaradorlikni oshirish bilan birga jiddiy etik xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Avtomatlashtirilgan baholashning adolatliligi, o'quvchining shaxsiy ma'lumotlarining himoyasi, akademik halollik, pedagog mas'uliyati va raqamli tengsizlik muammolari ta'limda sun'iy intellektdan mas'uliyatli va ehtiyotkorona foydalanishni taqozo etadi.

5. Xalqaro tavsiyalar asosida ta'lim jarayonida qo'llaniladigan etik me'yorlar va O'zbekiston ta'lim tizimi uchun moslashtirish yo'nalishlari.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi global miqyosda strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq ushbu jarayonning muvaffaqiyati nafaqat texnologik infratuzilmaga, balki sun'iy intellektdan mas'uliyatli, adolatli va xavfsiz foydalanish uchun ishlab chiqilgan xalqaro etik tavsiyalarning ta'lim tizimiga to'g'ri integratsiya qilinishiga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli ushbu bo'limda yetakchi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'limga oid tavsiyalar umumlashtiriladi hamda O'zbekiston ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan konseptual yo'nalishlar taklif etiladi.

5.1. Ta'lim jarayonida qo'llash tavsiya etiladigan xalqaro etik me'yorlar.

UNESCO tomonidan sun'iy intellekt etikasi bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarda ta'lim sohasi inson manfaatlariga yo'naltirilgan sun'iy intellekt, teng imkoniyatlar va pedagogik mas'uliyatni ta'minlash nuqtai nazaridan ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. UNESCO yondashuviga ko'ra, ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida inson huquqlari to'liq ta'minlanishi, o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari qat'iy himoyalaniishi, raqamli tenglik va inklyuzivlik prinsiplariga amal qilinishi zarur. Shuningdek, pedagogning ta'limdagi yetakchi roli saqlanib qolishi hamda sun'iy intellekt asosida qabul qilinadigan qarorlar ustidan doimiy inson nazorati mavjud bo'lishi asosiy talablar sifatida belgilanadi. Shuningdek, UNESCO ta'lim tizimida sun'iy intellektning etik ta'sirini baholash (ethical impact assessment) va tayyorgarlik holatini aniqlash (readiness assessment) mexanizmlarini joriy etishni tavsiya etadi. Bu ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdan avval ularning ijtimoiy, axloqiy va pedagogik oqibatlarini bashorat qilish imkonini beradi.

OECD yondashuvida ta'lim sohasida sun'iy intellekt bilan bog'liq asosiy urg'u raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, o'quvchilarda sun'iy intellektga nisbatan tanqidiy fikrlashni shakllantirish, algoritmik xatoliklarni ang'lay olish ko'nikmalarini hosil qilish hamda o'qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyalarini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlikni ta'minlash va "umr bo'yi ta'lim" konsepsiyasini qo'llab-quvvatlash ham ushbu yondashuvning muhim ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi.

Yevropa Komissiyasi tomonidan ilgari surilgan "Trustworthy AI" konsepsiyasida esa ta'lim tizimi uchun sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining shaffofligi, o'quvchi ma'lumotlarini ishonchli texnik himoyalash, tavsiya beruvchi algoritmlarda adolatlilikni



ta'minlash hamda sun'iy intellekt tizimlarini majburiy sertifikatlash va auditdan o'tkazish kabi talablar asosiy amaliy yo'nalishlar sifatida belgilangan.

5.2. Ta'limda Mas'uliyatli sun'iy intellekt (Responsible AI) konsepsiyasi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro normativ hujjatlarda ta'lim tizimi uchun Mas'uliyatli sun'iy intellekt (Responsible AI) konsepsiyasi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishda faqat texnologik samaradorlikni emas, balki inson huquqlari, axloqiy me'yorlar, xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyatni ham bir butun tizim sifatida ta'minlashni nazarda tutadi. Mas'uliyatli sun'iy intellekt modeli quyidagi asosiy tarkibiy tamoyillarga tayangan holda shakllanadi: axloqiy me'yorlarga muvofiqlik (etika), amaldagi qonunchilik talablariga moslik (huquqiylik), qabul qilinayotgan qarorlarning tushuntiriluvchanligi va ochiqligi (shaffoflik), qarorlar ustidan inson ishtiroki va nazoratining mavjudligi (human-in-the-loop), tizimlarning xavfsizligi va barqaror ishlashi, shuningdek, javobgarlikning aniq belgilanishi.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan Mas'uliyatli sun'iy intellekt shuni talab etadiki, sun'iy intellekt pedagogning o'rnini bosuvchi asosiy subyekt emas, balki uni qo'llab-quvvatlovchi, o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi yordamchi texnologiya sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bunda barcha muhim va yakuniy pedagogik qarorlar doimo inson tomonidan qabul qilinishi, avtomatlashtirilgan tizimlardan esa asosan maslahat berish, tahlil qilish, monitoring va prognozlash vositasi sifatida foydalanilishi zarur. Aynan shu yondashuv ta'limda texnologiyalar bilan pedagog mas'uliyati o'rtasida sog'lom muvozanatni ta'minlaydi.

5.3. O'qituvchilarning raqamli-etik kompetensiyalarini rivojlantirish.

Ta'limda sun'iy intellektdan samarali, xavfsiz va mas'uliyatli foydalanish bevosita o'qituvchilarning raqamli-etik kompetensiyalari rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Zamonaviy raqamli muhit sharoitida pedagog nafaqat texnologiyalardan foydalana olishi, balki ularning imkoniyatlari va cheklovlarini to'g'ri baholay olishi ham zarur. Xalqaro tavsiyalarga muvofiq, bugungi pedagog sun'iy intellekt asosida ishlovchi platformalardan ongli foydalanish, algoritmik qarorlarning imkoniyatlari bilan birga xavf-xatarlarini ham tushunish, o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiylikni ta'minlash, avtomatlashtirilgan baholash natijalarini tanqidiy tahlil qilish hamda akademik halollikni nazorat qilish kabi asosiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish pedagogning sun'iy intellektga mutlaq tayanib qolishining oldini oladi, tanqidiy fikrlashni mustahkamlaydi va ta'lim jarayonida texnologiyalar bilan inson mas'uliyati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Shu sababli o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimlariga sun'iy intellekt etikasi, raqamli xavfsizlik va algoritmik savodxonlikka oid maxsus modullarni kiritish muhim ilmiy-amaliy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda.

5.4. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun moslashtirish yo'nalishlari.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda **sun'iy intellekt etikasi**

masalalarini milliy ta'lim siyosatiga integratsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba va milliy sharoitdan kelib chiqib, quyidagi moslashtirish yo'nalishlari taklif etiladi:


Normativ-huquqiy moslashtirish: Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanishni samarali va xavfsiz yo'lga qo'yish uchun uni tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarur. Mazkur hujjatlarda o'quvchi va pedagoglarning shaxsiy ma'lumotlarini himoyalash mexanizmlari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining shaffofligi, shuningdek, sun'iy intellekt asosida qabul qilinadigan qarorlar uchun javobgarlikning aniq chegaralari belgilab qo'yilishi lozim. Bunday normativ-huquqiy asos ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishda qonuniylik, ochiqlik va mas'uliyat tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash: Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan mas'uliyatli va samarali foydalanishni ta'minlash uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarur. Jumladan, pedagoglarni tayyorlash dasturlariga "Sun'iy intellekt asoslari", "Sun'iy intellekt etikasi" hamda "Raqamli pedagogika" fanlarini bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fanlar orqali o'qituvchilarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ishlash tamoyillari, axloqiy jihatlari hamda raqamli ta'lim muhitida samarali ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Etik monitoring va ekspertiza tizimini yaratish: Ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosida faoliyat yurituvchi platformalar va tizimlar uchun majburiy etik ekspertiza hamda doimiy monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu jarayon sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy me'yorlarga rioya qilinishini, shaxsiy ma'lumotlar himoyasini va algoritmik qarorlarning adolatliligini doimiy nazorat ostida ushlab turishga xizmat qiladi.

O'quvchilar uchun sun'iy intellekt savodxonligini oshirish: O'quvchilarda sun'iy intellekt savodxonligini shakllantirish ham muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda ularda sun'iy intellektning imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish, algoritmik xatolarga tanqidiy yondashish hamda raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu esa o'quvchilarning texnologiyadan ongli va xavfsiz foydalanish madaniyatini mustahkamlaydi.

Raqamli tenglik va inklyuziyani ta'minlash: Raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellektdan foydalanishda raqamli tenglik va inklyuzivlikni ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlardagi ta'lim muassasalari uchun internet infratuzilmasini rivojlantirish, sun'iy intellekt platformalariga teng kirish imkoniyatlarini yaratish bo'yicha davlat dasturlarini kengaytirish zarur. Bu esa barcha hududlardagi o'quvchilar uchun teng ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.



2-rasm. Ta'limda sun'iy intellekt etikasini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar



Yuqoridagi ilmiy tahlillarga tayangan holda, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

1. Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi alohida normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ularda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, avtomatlashtirilgan baholashning shaffofligi hamda javobgarlik mexanizmlarini aniq belgilash zarur.

2. O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga "Sun'iy intellekt asoslari", "Sun'iy intellekt etikasi" va "Raqamli pedagogika" modullarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosidagi platformalarni majburiy etik ekspertizadan o'tkazish va ularning xavflarini doimiy monitoring qilish mexanizmlarini yaratish zarur.

4. Ta'lim dasturlariga o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, algoritmik xatolarga ongli yondashish va raqamli xavfsizlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mavzularni kiritish lozim.

5. Qishloq va chekka hududlardagi ta'lim muassasalari uchun sun'iy intellekt texnologiyalariga teng kirish imkoniyatlarini yaratish bo'yicha infratuzilmaviy va tashkiliy choralarni kuchaytirish zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish faqat texnologik modernizatsiya emas, balki etik, huquqiy va pedagogik mas'uliyatni talab qiluvchi murakkab jarayon hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot doirasida sun'iy intellekt etikasi bo'yicha yetakchi xalqaro me'yorlar, jumladan, UNESCO, OECD va Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar tizimli tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda sun'iy intellekt etikasi global miqyosda inson huquqlari, adolat, shaffoflik, xavfsizlik, inson nazorati va javobgarlik tamoyillariga tayangan yagona konseptual tizim sifatida shakllanib bormoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi o'quv jarayonini individuallashtirish, baholash va monitoringni avtomatlashtirish, pedagogik samaradorlikni oshirish kabi muhim ijobiy imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu bilan birga, algoritmik xatoliklar, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi, javobgarlikning noaniqligi, inson nazoratining pasayishi, akademik halollik bilan bog'liq muammolar hamda raqamli tengsizlik kabi jiddiy etik xavflar ham yuzaga kelmoqda. Bu esa sun'iy intellektdan foydalanishni faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki axloqiy, huquqiy va pedagogik mas'uliyatli tizim sifatida yondashishni taqozo etadi.

Xalqaro yondashuvlarning uyg'un integratsiyasi ta'lim tizimida **"Mas'uliyatli sun'iy intellekt"** konsepsiyasini samarali joriy etish uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Ushbu model sun'iy intellektni pedagog o'rnini bosuvchi emas, balki pedagog faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi vosita sifatida qo'llash, yakuniy qarorlarning esa doimo inson tomonidan qabul qilinishini ta'minlash zarurligini belgilaydi. Umuman olganda, sun'iy intellekt etikasi ta'lim tizimida texnologik taraqqiyot bilan insonparvarlik, huquqiy tartib va pedagogik mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi asosiy konseptual poydevor sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UNESCO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. Paris: UNESCO, 2021.
2. OECD. *OECD Principles on Artificial Intelligence*. Paris: OECD Publishing, 2019 (Revised 2024).
3. European Commission. *Ethics Guidelines for Trustworthy AI*. Brussels, 2019.
4. Floridi, L., Cowls, J. A Unified Framework of Five Principles for AI in Society. *Harvard Data Science Review*, 2019, Vol. 1(1), pp. 1–15.
5. Russell, S., Norvig, P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. 4th ed. Pearson, 2021.
6. Jobin, A., Ienca, M., Vayena, E. The global landscape of AI ethics guidelines. *Nature Machine Intelligence*, 2019, Vol. 1, pp. 389–399.
7. IEEE. *IEEE 7010-2020: Recommended Practice for Assessing the Impact of Autonomous and Intelligent Systems on Human Well-being*. IEEE Standards Association, 2020.
8. UNESCO. *AI and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris, 2021.
9. Zawacki-Richter, O., et al. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 2019, Vol. 16(39), pp. 1–27.
10. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
11. Williamson, B., Eynon, R., Potter, J. Pandemic politics, pedagogies and practices: digital technologies and distance education during the coronavirus emergency. *Learning, Media and Technology*, 2020, Vol. 45(2), pp. 107–114.
12. Selwyn, N. *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. Cambridge: Polity Press, 2019.
13. Friedman, B., Hendry, D. *Value Sensitive Design: Shaping Technology with Moral Imagination*. MIT Press, 2019.
14. Ng, A. *Artificial Intelligence for Everyone*. Coursera Lecture Series, 2020.
15. Kearns, M., Roth, A. *The Ethical Algorithm*. Oxford: Oxford University Press, 2019.
16. UNESCO. *Global Education Monitoring Report: Technology in Education*. Paris, 2023.
17. World Economic Forum. *Shaping the Future of AI and Machine Learning*. Geneva, 2022.
18. Stahl, B. Ethical Issues of AI in Education. *AI & Society*, 2021, Vol. 36, pp. 1–8.
19. European Parliament. *Artificial Intelligence Act (AI Act) Proposal*. Brussels, 2023.
20. Holmes, W., Tuomi, I. State of the Art in AI and Education Ethics. *Computers & Education: Artificial Intelligence*, 2022, Vol. 3, pp. 100–115.



SMART GRID TIZIMLARIDA ENHAT ASOSIDAGI KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH.

Xusnidin Arzikulov; Zulfizar Orziqulova

Andijon davlat texnika instituti,
Andijon davlat chet tillari instituti
arzikulovkhusnidin@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy elektr energetika tizimlarining raqamli transformatsiyasi jarayonida Smart Grid konsepsiyasining ahamiyati va uning tarkibiy qismi sifatida ENHAT (Energiya nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimi)ning o'ri yoritiladi. ENHAT tizimi elektr energiyasini hisobga olish, monitoring qilish va boshqarishni avtomatlashtirish orqali iste'molchilar va ta'minotchilar o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlaydi. Smart Grid tizimlarida ENHAT asosidagi kommunikatsion texnologiyalar ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, uzatish va qayta ishlash imkonini berib, energiya samaradorligini oshirish, tijorat va texnik yo'qotishlarni kamaytirish hamda xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada ushbu texnologiyalarning sanoat korxonalarini va elektr ta'minoti tizimlarida qo'llanish imkoniyatlari, kommunikatsion qurilmalar va ma'lumotlar almashish jarayonlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Smart Grid, ENHAT, elektr tarmoqlari, kommunikatsion texnologiyalar, energiya nazorati, hisob tizimlari, ma'lumotlar almashinuvini, avtomatlashtirilgan boshqaruv.

1. Kirish.

Hozirgi davrda elektr energetika tizimlari jadal raqamlashtirilmoqda va bu jarayonda Smart Grid – "aqli elektr tarmoqlari" konsepsiyasi alohida o'rin egallaydi. Smart Grid tizimlari elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida samarali boshqarishni ta'minlaydi. Bunday tizimlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu – ENHAT (Energiya nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimi) bo'lib, u iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda hisob, monitoring va nazorat jarayonlarini avtomatlashtiradi.

ENHAT va Smart Grid integratsiyasi orqali elektr tarmoqlarida ma'lumotlarni yig'ish, uzatish va qayta ishlash imkoniyatlari kengayadi, bu esa energiya samaradorligini oshirish, yo'qotishlarni kamaytirish va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois "Smart Grid tizimlarida ENHAT asosidagi kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish" mavzusi hozirgi energetika va tarmoq texnologiyalari rivojlanishida dolzarb hisoblanadi.

2. Materiallar va usullar

Tadqiqotda elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi (ENHAT) va uning Smart Grid konsepsiyasidagi kommunikatsion imkoniyatlari asosiy ob'ekt sifatida tanlandi. ENHAT tizimi uch darajali iyerarxik tuzilma asosida ko'rib chiqildi:

Birinchi daraja (O'PO'AK – o'lchash punktining axborot kompleksi) – ko'p funksiyali elektron hisoblagichlar, tok va kuchlanish o'lchov transformatorlari yordamida elektr energiyasi parametrlarini real vaqt rejimida o'lchash va ma'lumotlarni yig'ish amalga oshirildi [1].

Ikkinchi daraja (EIAHK – elektr inshootining axborot-hisoblash kompleksi) – ma'lumotlarni yig'ish va uzatish qurilmalari (MYUQ) orqali bir nechta o'lchov punktlaridan axborotlar jamlanib,

markaziy tizimga uzatildi. Ushbu bosqichda konsentratorlar va kommutatorlar yordamida ma'lumotlarni birlashtirish va uzatish tahlil qilindi.

Uchinchi daraja (AHM – axborot-hisoblash majmuasi) – serverlar, avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ), yagona vaqt tizimi (YVT) va dasturiy ta'minot orqali tizim ma'lumotlari qayta ishlanib, hisobot va monitoring jarayonlari tashkil etildi.

Kommunikatsiya kanallari sifatida GSM/GPRS, PLC (elektr tarmog'i orqali ma'lumot uzatish), Ethernet va simsiz aloqa protokollari ko'rib chiqildi. Ushbu texnologiyalar ma'lumotlarni xavfsiz uzatish, energiya balanslarini aniqlash va tarmoqni real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatlarini taqdim etdi.

Tahlil qilishda mavjud sanoat korxonalarida qo'llanilayotgan ENHAT tizimlari, ularning dasturiy va apparat vositalari, ma'lumot almashish topologiyalari va Smart Grid konsepsiyasiga mos integratsiya usullari o'rganildi.

3. Natijalar

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Smart Grid tizimlarida ENHAT asosidagi kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish elektr energetika sohasida bir qator ijobiy natijalarni beradi:

Elektr energiyasi iste'moli parametrlarini elektron hisoblagichlar va sensorlar yordamida real vaqt rejimida qayd qilish natijasida tijorat va texnik yo'qotishlar kamayadi.

GSM/GPRS, PLC va Ethernet asosidagi kommunikatsiya kanallari yordamida ma'lumotlar markaziy serverlarga uzluksiz va tezkor yetkazib berildi.

Olingan ma'lumotlarni dasturiy ta'minot orqali qayta ishlash energiya taqsimotini boshqarish, avariya holatlarini tezkor aniqlash va ularni bartaraf etishga sharoit yaratadi.

Monitoring natijalariga ko'ra, iste'molchilarda ortiqcha sarf va noratsional foydalanish holatlari aniqlanib, energiya tejankorlik choralarini qo'llash mumkinligi isbotlandi.


Konsentrator va kommutatorlardan foydalanish natijasida ma'lumotlar oqimining samarali taqsimlanishi, tarmoq xavfsizligi va tezkorligi ta'minlandi.

ENHAT tizimi Smart Grid konsepsiyasi bilan uyg'unlashganda sanoat korxonalarini va elektr ta'minoti tizimlari uchun yagona axborot maydoni shakllantirildi. Bu esa elektr energiyasi balanslarini aniq hisoblash, moliyaviy hisob-kitoblarni soddalashtirish va iste'molchilar bilan aloqalarni yaxshilash imkonini berdi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, ENHAT tizimini Smart Grid kommunikatsion texnologiyalari asosida joriy etish elektr energetika tizimlarida raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish, energiya samaradorligini oshirish va xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3.1 ENHATning strukurasi.

Energiyasi nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimlari (ENHAT) - ko'p sathli, iyerarxik avtomatlashgan tizim, mazkur tizim elektroenergiya miqdorini va parametrlari (tok, kuchlanish, quvvat va boshqalar) kattaligini o'lchashni, o'lchov natijalarini avtomatik tarzda yig'ish va kommunikatsiya kanallari orqali yuqori sath (daraja)ga uzatish, keyinchalik uni saqlash va foydalanishni ta'minlaydi. Umumiy hisobda ENHAT uchta sath (daraja)dan tuziladi 1.1.-rasm.



1.1-rasm. ENHAT strukturasi.

Birinchi sath o'z ichiga ko'p funksiyali elektroenergiya hisoblagichlari, tok va kuchlanish o'lchov transformatorlari, ikkilamchi o'lchov transformatorlarini oladi. Ushbu sath hisobga olish nuqtasida elektr iste'moli parametrlarini o'lchashni bajaradi, yuz bergan hodisalarni qayd qiladi, ularni elektron hisoblagich xotirasida saqlash va raqamli shaklda axborotni aloqa kanallari orqali ikkinchi sath (daraja)ga chiqaradi. Birinchi sathga kiruvchi qurilmalar hisoblash nuqtasida o'lchash punktining axborot kompleksi (O'PO'AK) deyiladi.

Ikkinchi sath (daraja)ga ma'lumotlarni yig'ish va uzatish qurilmalari kiradi (MYUQ) va kanal hosil qiluvchi uskunalari. Bu sath (daraja) bir nechta axborot va axborot tizimlaridan ma'lumotlarni yig'ish va uchinchi darajaga uzatish imkonini beradi, to'g'ridan-to'g'ri o'lchov va axborot kompleksi O'PO'AK ga yuqori darajadan oxirigacha kirish. Ushbu darajaga kiritilgan uskunalari majmuasi elektr inshootining axborot-hisoblash kompleksi (EIAHK) deb ataladi, masalan: EO'AHK, GPP, RP, KTP yoki sanoat korxonasi ustaxonasi. ENHAT ning ba'zi versiyalarida ikkinchi daraja birinchi yoki bilan birlashtirilishi mumkin. Uchinchi sath (daraja). Bunday holda, bir nechta axborot manbalaridan ma'lumotlarni yig'ish va uzatish, TU aloqa kanallarini birlashtirgan qurilmalar tomonidan amalga oshiriladi, konsentratorlar yoki kommutatorlar kabi.

Uchinchi sath (daraja) o'z ichiga ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish texnik vositalari (kanal hosil qiluvchi apparatura) personal (xodimlar)ning avtomatlashtirilgan ishchi joylari (AIJ), yagona vaqt (xizmatini) ta'minlovchi sistema.

Uchinchi darajaga ma'lumotlarni qabul qilish va uzatishning texnik vositalari (kanallarni shakllantirish uskunalari), xodimlarning avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ), yagona vaqt tizimi (YVT), dasturiy ta'minot (DT), ENHAT serverlari, mahalliy kompyuter tarmog'ini tashkil qilish uchun texnik vositalar va axborot xavfsizligi vositalari kiradi. Bu daraja o'lchov natijalarini avtomatik yig'ish va saqlashni, holat diagnostikasini, hisobotlarni tayyorlashni, shuningdek ma'lumotlarni import va eksport qilishni ta'minlaydi. Darajaga kiritilgan uskunalari — bu maxsus xonada o'rnatilgan tarmoqlarning axborot-hisoblash majmuasi (AHM) [2].

Yagona vaqt tizimi (YVT) shakllantirilmoqda, yuqori darajali va vaqtni o'lchash funksiyasini bajaradi, standartlashtirilgan metrologik xususiyatlarga ega va elektr energiyasini o'lchashda vaqt sinxronizatsiyasini ta'minlaydi. Aniqlik $\pm 5,0$ s/kun dan oshmaydi. YVT barcha o'lchov vositalarini o'z ichiga oladi vaqtni sinxronlashtirish uchun ishlatiladigan vaqt (elektr hisoblagichlar, ma'lumot uzatgichlar, aniq vaqt signalini qabul qiluvchilar), shuningdek, hisobga olinadi, ular orasidagi aloqa liniyalarining vaqt xususiyatlari (kechikishlari). YVT Bunga mos keladigan bitta kalendar vaqtiga «bog'langan» ENHAT joylashgan vaqt zonasi. Tizim vaqtini sinxronlash qurilmasi (TVSQ) amalga oshiradi.

¹ *University of management and future technologies, magistrant; tel; Email; +998946163366; Email: norpulotovarano@gmail.com*

² *University of management and future technologies, magistrant; jasurbek2155@gmail.com*

Annatsiya: Ushbu maqolada raqamli tasvirlarni qayta ishlash jarayonida shovqinlarni kamaytirish orqali tasvir sifatini oshirishning klassik usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda oʻrtacha filtr, median filtr, Gauss silliqlash, bilateral filtr va Wiener filtr kabi anʼanaviy denoising metodlarining ishlash tamoyillari, afzallik va cheklovlari oʻrganiladi. Tasvirdagi shovqin turlari — Gauss, tuzmurch va spekl shovqinlari hamda ularga mos filtrlar tanlovi ilmiy asosda koʻrib chiqiladi. Shuningdek, klassik filtrlar yordamida shovqinni kamaytirish natijasida tasvirning aniqligi, kontrasti va vizual xususiyatlarining yaxshilanishi isbotlanadi. Maqola natijalari tasvirni qayta ishlash, kompyuter koʻrish, tibbiy diagnostika, masofaviy zondlash va videokuzatuv tizimlarida amaliy ahamiyatga ega boʻlib, klassik metodlarning samaradorligini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: tasvir sifati, denoising, shovqin, median filtr, Gauss filtri, bilateral filtr, Wiener filtri, raqamli tasvirlar.

Kirish. Raqamli tasvirlarni qayta ishlash bugungi kunda kompyuter koʻrish, sunʼiy intellekt, tibbiy diagnostika, kosmik tadqiqotlar va videokuzatuv tizimlarida eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Tasvirlar sifati maʼlumot yetkazishda asosiy omil boʻlib, ularning aniqligi va tabiiyligi raqamli qurilmalarning funksional imkoniyatlarini belgilaydi. Biroq tasvirlarning uzatilishi, sensorga qabul qilinishi, atrof-muhit omillari hamda qurilma xatoliklari natijasida turli shakldagi shovqinlar yuzaga keladi. Ushbu shovqinlar tasvir sifatini pasaytiradi, detallarni buzadi hamda kompyuter orqali qayta ishlash jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu bois tasvirdan shovqinni samarali olib tashlash raqamli tasvirlarni qayta ishlashning asosiy muammolaridan biri sanaladi.

Tasvirdagi shovqinni kamaytirishning klassik yondashuvlari, yaʼni filtratsiya asosidagi denoising usullari ushbu yoʻnalishning poydevorini tashkil etadi. Oʻrtacha filtr, median filtr, Gauss silliqlash, bilateral filtr va Wiener filtr kabi algoritmlar oddiy tuzilishga ega boʻlishiga qaramay, tasvir sifatini tiklashda yuqori samaradorlik koʻrsatadi. Ushbu metodlar yordamida tasvirni silliqlash, tuzmurch shovqinini bartaraf etish, konturlar va strukturalarni saqlagan holda shovqinni kamaytirish imkoniyatlari mavjud.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy chuqur oʻqitishga asoslangan modellar mavjud boʻlishiga qaramay, klassik denoising filtrlar hali ham tezkor ishlashi, matematik asoslanganligi va turli sharoitlarda amaliy natija berishi sababli qoʻllanilib kelinmoqda. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda klassik filtrlarning ishlash tamoyillarini oʻrganish orqali zamonaviy algoritmlar uchun ham samarali gʻoyalar shakllanmoqda. Shu maʼnoda, ushbu tadqiqot tasvirlardan shovqinlarni olib tashlashning klassik usullarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va amaliy natijalarini yoritishga qaratilgan.[1].

Raqamli tasvirlardan shovqinlarni olib tashlash sohasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu yo'nalish kompyuter ko'rish va signalni qayta ishlash fanlarining eng faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ilk tadqiqotlarda shovqinlarni kamaytirish uchun oddiy silliqlash usullari qo'llanilgan. Xususan, o'rtacha filtr va past chastotali filtratsiya tamoyillari asosida tasvirni silliqlash orqali shovqin kamaytirish natijalari olingan (Gonzalez & Woods, 2002). Ushbu usullar tasvirdagi nozik detallarning saqlanmasligi sababli keyinchalik takomillashtirildi.

Median filtrning ishlab chiqilishi (Tukey, 1971) shovqinlarni, ayniqsa tuz-murch shovqinini samarali bartaraf qilish imkonini yaratdi. Median filtrlash piksel atrofidagi qiymatlarni o'rtacha emas, balki median qiymat bilan almashtirish orqali kontur va strukturalarni saqlab qolishga xizmat qildi. Keyingi tadqiqotlar median filtrning o'zgartirilgan versiyalarini yaratishga qaratilgan: moslashuvchan median filtr (Huang, 1979), zamon bo'yicha median, takomillashtirilgan og'irlikli median filtrlari shular jumlasiga kiradi.

Gauss filtr va Wiener filtr kabi statistik asoslangan yondashuvlar ham ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Wiener filtr (Norbert Wiener, 1949) shovqinni kamaytirishda eng yaxshi chiziqli prognozlash modeliga asoslanib, shovqin va signalning dispersiyasini matematik baholash orqali optimal natijaga erishishni maqsad qiladi. Gauss silliqlash esa tasvirni yumshoq tarzda filtratsiya qilishga imkon berib, tasodifiy sensor shovqinlarini samarali yo'qotishga xizmat qilgan.

1990-yillardan boshlab tasvirdagi chegaralarni saqlash muammosi dolzarb bo'lib qoldi. Shu davrda bilateral filtr (Tomasi & Manduchi, 1998) taklif qilinib, u masofa hamda piksel intensivligi o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda shovqinni kamaytirishga muvaffaq bo'ldi. Bilateral filtr tasvir konturlarini buzmasdan silliqlash xususiyati bilan avvalgi filtrlar ustidan ustunlikka ega bo'ldi.

Shuningdek, anizotropik diffuziya usuli (Perona & Malik, 1990) ham tadqiqotlarda katta e'tibor qozongan. Ushbu metod shovqinlarni bartaraf etish jarayonini issiqlik diffuziyasiga o'xshash matematik modellashtirish orqali amalga oshirib, strukturali hududlarni buzmay shovqinni kamaytirishga imkon berdi.

So'nggi yillarda sodda klassik usullar asosida murakkab gibrid yondashuvlar ham taklif etilgan. Masalan, median va Gauss filtrlarining kombinatsiyasi, moslashuvchan variatsion modellar, statistik tahlil asosidagi filtrlash kabi texnikalar tasvirni qayta tiklashning samaradorligini oshirgan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tasvirlardan shovqinni olib tashlashning klassik usullari oddiy, izchil, hisoblashga tejamkor va samarali ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda chuqur o'qitish texnologiyalari paydo bo'lishiga qaramay, klassik filtratsiya metodlari amaliyotda keng ishlatilmoqda hamda yangi algoritmlarning poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Rasm kompyuterga yuklanadi va kerak bo'lsa rangli formatga o'tkaziladi, float turiga konvertatsiya qilinadi, bu filtrlarni hisoblash va natijalarni vizualizatsiya qilishda aniqlikni oshiradi. Avval median filtr ishlatiladi, u nuqta shaklidagi salt-pepper shovqinini kamaytiradi va tasvirning kontur hamda strukturasi saqlanadi. Keyin Gaussian filtr qo'llanib, tasodifiy normal shovqinlar yumshatiladi, tasvir silliqlash orqali yanada tozalanadi va vizual sifat oshadi. Shundan so'ng bilateral filtr yordamida rasmning detallarini saqlagan holda silliqlash davom ettiriladi, chekkalar buzilmaydi va strukturaviy elementlar himoyalanaadi. Yakuniy bosqichda Wiener filtr tatbiq qilinadi, u statistika asosida tasvir va shovqin dispersiyasini hisoblab optimal silliqlashni amalga oshiradi, natijada rasm yanada toza va aniqligi yuqori bo'ladi.

Har bir filtr bosqichi natijasi vizual tarzda tekshiriladi, original rasm bilan taqqoslanadi, bu orqali filtrlar samaradorligi baholanadi. Ketma-ket filtrlar birlashmasi turli xil shovqin turlarini bir



vaqtning o'zida kamaytirishga imkon beradi. Natijada tasvirning vizual sifati sezilarli darajada oshadi, konturlar va detallar saqlanadi, shuningdek, tasvirni tahlil qilish yoki kompyuter ko'rish algoritmlari uchun qulay ma'lumot hosil bo'ladi. Ushbu jarayon oddiy klassik filtrlar yordamida amalga oshiriladi, ammo ular birgalikda ishlatilganda murakkab shovqinlarni ham samarali kamaytiradi va zamonaviy denoising algoritmlari uchun poydevor yaratadi.



1-rasm. Shovqinlarni olib tashlash jarayoni.

Raqamli tasvirlardan shovqinlarni samarali olib tashlash va tasvir sifatini oshirish maqsadida klassik denoising filtrlarining ketma-ket birlashtirilgan pipeline'i amalga oshirildi. Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

Median filtr qo'llash: Avval salt-and-pepper shovqinini bartaraf etish uchun median filtr ishlatildi. Har bir piksel atrofidagi median qiymat bilan almashtirildi, natijada tasvirning kontur va strukturalari saqlangan holda tasodifiy nuqta shaklidagi shovqinlar kamaytirildi.

Gaussian filtr qo'llash: Median filtr natijasiga Gaussian silliqlash tatbiq qilindi. Bu bosqichda tasodifiy normal taqsimotdagi shovqinlar yumshatildi va tasvir silliqlash orqali yanada tozalanib, vizual sifat oshirildi.

Bilateral filtr qo'llash: Gaussian filtrdan so'ng bilateral filtr ishlatildi. Ushbu filtr rasmning strukturalarini va chekkalarini saqlagan holda silliqlashni davom ettirdi. Natijada tasvirning detallarini yo'qotmasdan shovqin kamaytirildi.

Yuqoridagi ketma-ket filtrlar birlashmasi tasvirdan turli xil shovqinlarni samarali olib tashlash, vizual sifatni sezilarli darajada oshiradi. 2-rasmdagi kabi yondashuv odatiy klassik filtrlarning birgalikdagi samaradorligini namoyon qiladi va ilmiy-tadqiqot hamda amaliy ishlarda foydalanish uchun xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda raqamli tasvirlardan shovqinlarni olib tashlash va tasvir sifatini oshirish maqsadida klassik denoising filtrlarining ketma-ket birlashmasi ishlab chiqildi. Pipeline Median, Gaussian, Bilateral va Wiener filtrlarini o'z ichiga oladi, bu filtrlar turli xil shovqin turlarini kamaytirishda samarali bo'lib, tasvirning kontur va detallarini saqlashga imkon beradi. Median filtr salt-and-pepper shovqinini kamaytirsa, Gaussian filtr tasodifiy normal shovqinlarni yumshatadi. Bilateral filtr tasvirning chekkalari va strukturaviy elementlarini himoyalaydi, Wiener filtr esa statistik yondashuv orqali optimal silliqlashni ta'minlaydi.

```

plt.figure(figsize=(15,6))

plt.subplot(1,5,1)
plt.title("Original")
plt.imshow(image)
plt.axis('off')

plt.subplot(1,5,2)
plt.title("Median")
plt.imshow(median_step)
plt.axis('off')

plt.subplot(1,5,3)
plt.title("Gaussian")
plt.imshow(gaussian_step)
plt.axis('off')

plt.subplot(1,5,4)
plt.title("Bilateral")
plt.imshow(bilateral_step)
plt.axis('off')

plt.subplot(1,5,5)
plt.title("Final Output")
plt.imshow(final)
plt.axis('off')

... (np.float64(-0.5), np.float64(1077.5), np.float64(965.5), np.float64(-0.5))

```



2-rasm. Bir nechta klassik usullar yordamida shovqinlarni pasaytirish.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ketma-ket filtrlar birlashmasi oddiy klassik usullardan foydalangan holda tasvirni sezilarli darajada tozalash va sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, filtr parametrlarini optimallashtirish orqali tasvirning haddan tashqari xiralashishi oldi olindi. Ushbu yondashuv ilmiy-tadqiqot va amaliyotda, jumladan kompyuter ko'rish, tibbiy diagnostika va videokuzatuv tizimlarida samarali qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Khatamov, O. (2025). *Image denoising and reconstruction in medical imaging* // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 3(6), 125–130.
2. Ravshanov, A. A. (2024). *Using a neural network to remove noise from images*. IJCTCM Research Commons, 2024(3), 72–77.
3. Rakhimov, B., Otamuratov, K., & O'razmatov, T. (2025). *Digital image processing models and algorithms for medical images*. Techscience Uz – Topical Issues of Technical Sciences, 3(5), 17–24.



MASOFAVIY TA'LIM AXBOROT TIZIMIDA FAN KONTENTLARINI SHAKLLANTIRISHNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI

Zarmasov Elbek; Elov Jamshid; Kimsanboyev Nurillo

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti masofaviy ta'lim markazi Zarafshon fakulteti
dekan o'rin bosari

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti masofaviy ta'lim markaz boshlig'i

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti masofaviy ta'lim markazi bosh mutaxassisi
kimsanboyevnurillo@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada masofaviy ta'lim axborot tizimlarida fan kontentlarini shakllantirishning texnik va pedagogik jihatlari, ularning funksional imkoniyatlari, o'quv jarayonini optimallashtirishdagi roli hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, fan kontentini yaratishda multimedia elementlari, interfaol vositalar va sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan.

Tayanch iboralar: masofaviy ta'lim, axborot tizimi, fan kontenti, LMS, multimedia, interfaol ta'lim, raqamli texnologiya, sun'iy intellekt.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamlashtirilishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Masofaviy ta'lim axborot tizimlari (Learning Management Systems - LMS) o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqani virtual muhitda tashkil etish, ta'lim kontentini yaratish va tarqatish, hamda o'qitish jarayonini nazorat qilish uchun asosiy platformaga aylanmoqda.

Fan kontentini to'g'ri shakllantirish masofaviy o'qitishning samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardandir. Chunki o'quv materialining tuzilmasi, taqdim etilish shakli va texnik imkoniyatlari o'quvchilarning bilimni egallash tezligi va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Fan kontenti tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Masofaviy ta'limdagi fan kontenti - bu o'quv fanining barcha axborot resurslarini o'z ichiga oluvchi raqamli majmua bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Matnli ma'lumotlar (ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, yo'riqnomalar);
- Multimedia elementlari (rasmlar, audio, video, animatsiyalar);
- Interfaol mashqlar (test, viktorina, simulyatsiya);
- Nazorat modullari (oraliq va yakuniy baholash);
- Forum va muhokama bo'limlari (muloqot va tajriba almashish uchun).

Fan kontentini yaratishda bu elementlar o'zaro uyg'unlikda ishlashi, talaba faoliyatini rag'batlantiruvchi mexanizmlar bilan boyitilishi zarur, [1].

Fan kontentlarini shakllantirish jarayonining bosqichlari

Masofaviy ta'lim tizimida fan kontentini yaratish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

1. Tahlil bosqichi - o'quv maqsadlarini aniqlash, talabalar ehtiyojini o'rganish.
2. Loyiha bosqichi - kontent tuzilmasi, modul tizimi, o'quv yo'nalishlari ishlab chiqiladi.
3. Yaratish bosqichi - matn, media va interfaol elementlar ishlab chiqiladi.

4. Integratsiya bosqichi - kontent LMS tizimiga joylanadi.
5. Sinov va tahlil bosqichi - foydalanuvchi tajribasi (UX) asosida samaradorlik baholanadi.

Bu bosqichlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchidan texnik, dizayn va pedagogik kompetensiyani talab etadi.

Xalqaro tajribalarda masofaviy ta‘lim axborot tizimining fan kontentlarini shakllantirishning funksional imkoniyatlari, ko‘plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan va har bir mamlakatning o‘ziga xos tajribasi mavjud, bunga misol qilib quyidagi davlatlarni olsak bo‘ladi.

AQSh tajribasi – LMS ekotizimining rivojlangan modeli

AQShda masofaviy ta‘lim tizimlari eng rivojlangan sohalardan biridir. U yerda **Canvas, Blackboard, Coursera, EdX** kabi platformalar keng qo‘llaniladi. Bu tizimlarda fan kontentlari quyidagi funksional imkoniyatlarga ega:

- Adaptiv ta‘lim modullari: tizim foydalanuvchining o‘qish tezligi va bilim darajasini tahlil qilib, shunga mos kontentni taklif etadi.
- AI (sun‘iy intellekt) asosida avtomatik baholash: testlar va loyiha topshiriqlarini avtomatik tahlil qilinadi.
- Gamifikatsiya elementlari yordamida motivatsiya oshiriladi. Masalan, “Canvas Badges” tizimi orqali talaba har bir bosqichda raqamli sertifikat oladi.
- Multimedia integratsiyasi - video darslar, virtual laboratoriyalar, podkastlar yordamida o‘qitish [2,3].

Janubiy Koreya tajribasi - Raqamli ta‘lim platformalarini milliy darajada boshqarish

Janubiy Koreyada KERIS (Korea Education and Research Information Service) tashkiloti ta‘limni to‘liq raqamlashtirish uchun yagona tizim yaratgan. Uning tarkibida EDUNET nomli milliy o‘quv portali mavjud bo‘lib, u quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Yagona bulutli ma‘lumot bazasi: barcha fan kontentlari yagona serverda saqlanadi va barcha o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.
- Moslashtirilgan ta‘lim yo‘nalishlari: o‘quvchilarning yoshi, fani va o‘qish tezligiga qarab o‘qitish ssenariysi avtomatik yaratiladi.
- Virtual laboratoriyalar: fizika, kimyo va biologiya fanlari uchun tajriba simulyatorlari ishlab chiqilgan.
- AI yordamida monitoring: tizim har bir talabani faoliyatini tahlil qilib, o‘qituvchiga tavsiya beradi.


Finlyandiya tajribasi - Shaxsga yo‘naltirilgan raqamli ta‘lim

Finlyandiya ta‘lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va mustaqil o‘rganishni rivojlantirishda yetakchidir. Ularning MOOC (Massive Open Online Courses) va Funet LMS platformalari quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

- O‘quvchini markazga qo‘yish: fan kontenti individual qiziqish va maqsadlarga mos ravishda tanlanadi [4,5].
- Ochiq ta‘lim resurslari (OER): barcha o‘qituvchilar va talabalar kontentni erkin yuklab olishi yoki o‘zgartirishi mumkin.



- Kross-platformativiy moslashuv: fan kontenti kompyuter, planshet va smartfonlarda bir xil interfeysda ishlaydi.
- Yashil texnologiyalar tamoyili asosida energiya tejamkor LMS serverlari qo'llaniladi.



1-rasm. Xalqaro tajribalarda masofaviy ta'lim axborot tizimining fan kontentlarini shakllantirishning funksional imkoniyatlari.

Zamonaviy LMS tizimlari (Moodle, Canvas, Google Classroom, Everest LMS va boshqalar) fan kontentlarini shakllantirishda keng funksional imkoniyatlarni taqdim etadi:


- Multimedia integratsiyasi: video darslar, audio sharhlar, 3D modellarni joylashtirish.
- Interfaol test tizimlari: avtomatik baholash, vaqtli testlar, o'zini baholash imkoniyati.
- Modulli tuzilma: o'quv materiallarini mavzu va bosqichlarga ajratish.
- Moslashuvchan interfeys: foydalanuvchining qurilmasiga mos ko'rinishda chiqish (responsive dizayn).
- Tahliliy monitoring: talabaning faoliyatini kuzatish, statistik hisobotlar tuzish.
- Bulutli saqlash imkoniyati: kontentni istalgan joydan foydalanish.

Fan kontentlarini shakllantirishda texnologik yondashuvlar

Masofaviy ta'lim kontentini yaratishda quyidagi texnologiyalar keng qo'llaniladi:

- HTML5 va SCORM standartlari asosida kontentni modullashtirish;
- AI (sun'iy intellekt) yordamida adaptiv o'qitish (foydalanuvchiga mos material taklif etish);
- Gamifikatsiya elementlari - o'yin uslublarini qo'llab, motivatsiyani oshirish;
- VR/AR texnologiyalari - laboratoriya ishlarini virtual muhitda bajarish;
- Interfaol chatbotlar - talabaga 24/7 yordam beruvchi virtual yordamchi sifatida.

O'quv materiallarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida rejalashtirish, ishlab chiqish va taqdim etish jarayonidir. Ushbu yondashuvda ta'lim maqsadlari va kutilayotgan kompetensiyalar aniqlanadi, o'quvchilar ehtiyojlari tahlil qilinadi hamda mos pedagogik modellar (masalan, Blended Learning, Flipped Classroom) tanlanadi. Fan kontenti LMS platformalari orqali multimedia (video, test, simulyatsiya) ko'rinishida taqdim etilib, avtomatik baholash va monitoring vositalari yordamida o'quv jarayoni nazorat qilinadi. Natijada ta'lim jarayoni yanada moslashuvchan, interaktiv va samarali bo'lib, o'quvchilarning mustaqil o'rganish imkoniyatlari kengayadi [6,7].



2-rasm. Masofaviy ta'lim axborot tizimida fan kontentlarini shakllantirishning funksional imkoniyatlari


Fan kontentini samarali tashkil etish tamoyillari

Fan kontentlarini ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga rioya etish zarur:


1. Pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik;
2. Axborotning tizimliliigi va bosqichma-bosqichligi;
3. Vizual va audio muvozanat;
4. Talaba faol ishtirokini ta'minlash;
5. Texnik soddalik va qulay interfeys.

Masofaviy fan kontentlarini shakllantirishning afzalliklari

- Masofaviy fan kontentlari quyidagi ustunliklarga ega:
- Talabalarga moslashuvchan o'qish muhiti yaratadi;
- O'qituvchiga vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi;
- Axborotni tez yangilash va doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi;
- Global o'quv resurslariga kirish imkonini ochadi;
- Ta'lim sifatini oshirish va baholashning shaffoqligini ta'minlaydi [8,9].




3-rasm. Masofaviy axborot tizimida fan kontent yaratish uchun o'quv dasturi bo'limi.




4-rasm. Mavzularning yaratilgan holati.

4-rasmdagi sahifada fanning mavzular soni keltirilgan bo'lib har bir mavzular ikki qismga ajratiladi nazariy bilim va amaliy ko'nikma va ushbu bo'limlarga ma'lumotlar joylashtiriladi (5-6-rasmlarda vazifalari ko'rsatilgan).



5-rasm. Nazariy bilimning umumiy ko'rinishi.

5-rasmdagi sahifada nazariy bilim bo'limida fanga doir nazariy materiallar, taqdimotlar, video darsliklar va test materiallari joylashtiriladi, testni ishlash uchun talabaga ikkimarta urinish beriladi, birinchi urinishda talaba ishlagan natijasiga qoniqmasa ikkinchi urinishdan foydalanishi mumkin bo'ladi, agar talaba tizmda test ishlash uchun ikkinchi urinishdan foydalansa ikkinchi urinish natijasini inobatga oladi.



6-rasm. Amaliy ko'nikmaning umumiy ko'rinishi.

Amaliy ko‘nikam bo‘limida talabalar amaliy topshiriqni bajarish uchun amaliy uslubiy ko‘rsatma va amaliy topshirlarni joylashtiriladi, amaliy topshiriqni yuklash uchun ham ikkimarta urinish beriladi, talabalar tamonidan texnik xatolik bo‘lib yokida anglashilmovchilik bo‘lganda to‘g‘ri vazifani qayta yuklash imkoniyati mavjud [10,11].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda masofaviy ta‘lim axborot tizimlarida fan kontentlarini shakllantirishning funksional imkoniyatlari, texnologik va pedagogik yondashuvlari hamda ularning o‘quv jarayonidagi ahamiyati keng tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy LMS platformalari asosida ishlab chiqilgan fan kontentlari ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘qitish jarayonini moslashuvchan tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Fan kontentlarini shakllantirishda multimedia, interfaol vositalar, adaptiv o‘qitish mexanizmlari hamda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta‘lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Shuningdek, fan kontentlarini ishlab chiqishda pedagogik maqsadga yo‘naltirilganlik, tizimlilik, vizual va texnik muvozanat tamoyillariga amal qilish zarurligi asoslab berildi. Texnologik yondashuvlar asosida shakllantirilgan kontent nafaqat talabalarning bilim darajasini oshiradi, balki o‘qituvchilar faoliyatini optimallashtirish, baholash jarayonining shaffofligini ta‘minlash va ta‘lim resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi.
2. UNESCO. *Distance Learning Strategies in Education Systems*, 2021.
3. Moodle Documentation, 2024.
4. Karimov, B. “Axborot tizimlarida ta‘lim kontentini ishlab chiqish metodologiyasi”, TATU jurnali, 2023.
5. World Bank Report, *Digital Education Transformation*, 2023.
6. Siemens, G. *Connectivism: A learning theory for the digital age*. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2005.
7. Bates, A. W. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. Tony Bates Associates Ltd, 2019.
8. Means, B., Bakia, M., & Murphy, R. *Learning Online: What Research Tells Us About Whether, When and How*. Routledge, 2014.
9. Khalil, M., & Ebner, M. *MOOCs completion rates and possible methods to improve retention*. *World Conference on Educational Multimedia*, 2014.
10. OECD. *Education at a Glance: Digital Education*. Paris, 2022.
11. Jamshid Elov, Utkir Khamdamov, Utkir Khamdamov. *Development of a database of higher education process management information system based on the relational model*, *International Conference of Information science and communications technologies applications, trends and opportunities ICISCT 2021*. 3-5 November, 2021. Tashkent, Uzbekistan



SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Aminov shavkatjon

Toshkent amaliy fanlar universiteti Raqamli va fundamental fanlar kafedra assistenti;
aminovshavkatjon93@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida imo-ishora tilini aniqlashning nazariy asoslari va so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida konvolyutsion neyron tarmoqlar, LSTM, GRU hamda transformer arxitekturalariga asoslangan modellarni qo'llash imkoniyatlari solishtirma tahlil asosida yoritilgan. Shuningdek, hybrid va multimodal yondashuvlarning aniqlik darajasi hamda real vaqt rejimida ishlash samaradorligi baholangan. Xalqaro imo-ishora datasetlari asosida olingan natijalar O'zbek imo-ishora tilini raqamlashtirish va avtomatik aniqlash tizimlarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv texnologiyalarni rivojlantirish hamda sun'iy intellekt asosidagi muloqot tizimlarini takomillashtirishda qo'llash imkoniyatiga ega.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, imo-ishora tilini aniqlash, deep learning, konvolyutsion neyron tarmoqlar, transformer arxitekturalari, hybrid modellar, multimodal yondashuv, explainable AI, real vaqt tizimlari.

Kirish

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari o'nggi yillarda inson-kompyuter interfeysi va kommunikatsiya sohalarida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, eshitish va nutq qobiliyati cheklangan shaxslar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatlarini oshirish yo'nalishida, imo-ishora tilini aniqlash va tarjima qilish tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Imo-ishora tilini aniqlash – bu qo'l harakatlari, imo va mimikalarni tasvir yoki sensor signallar orqali qayta ishlash va ularni matn yoki nutqqa aylantirish jarayonidir. So'nggi uch yil ichida ushbu sohada chuqur o'rganish (deep learning) va sun'iy neyron tarmoqlar asosidagi yondashuvlar keng qo'llanila boshlandi. Masalan, 3D konvolyutsion neyron tarmoqlar, uzoq muddatli xotiraga ega LSTM modellar, shuningdek, transformer arxitekturalari imo-ishora aniqlashda yuqori aniqlik va real vaqt ishlash imkonini berdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hybrid modellarning qo'llanilishi – masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlari transformer va konvolyutsion neyron tarmoqlari kombinatsiyalari – turli datasetlar (ASL, ISL, ArSL) bilan ishlashda aniqlikni sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, multimodal yondashuvlar, jumladan, tasvir, pozalar va qo'l harakatlarini birgalikda tahlil qiluvchi tizimlar, imo-ishora aniqlashning samaradorligini yanada oshirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, explainable Suniy intellekt (XAI) metodlari modellarning qaror qabul qilish jarayonini tushunishga imkon berib, tizimlarni foydalanuvchilar va mutaxassislar uchun yanada ishonchli qiladi.

Ushbu maqola sun'iy intellekt texnologiyalari asosida imo-ishora aniqlashning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirgan holda, soha rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili

So'nggi uch yil ichida sun'iy intellekt asosida imo-ishora aniqlash sohasida bir qator yirik tadqiqotlar o'tkazildi. Deng, Guo va Niannan (2019) ta'kidlashicha, sun'iy intellekt asosidagi chuqur neyron tarmoqlarda maxsus yo'qotish funksiyasini (angular margin loss) qo'llash obyektlarni, xususan, yuz tasvirilarini aniqroq farqlash imkonini beradi.[1]

1-jadval. Datasetlar va statistika

Dataset	Millat / Tili	Video soni	Imo harakatlari soni	Foydalanuvchi soni	Aniqlik darajasi (eng yaxshi model)
ASL 100	Amerika	1000+	100	50+	96–98%
ArSL 50	Arab	500+	50	30	94–96%
ISL 200	Hind	2000+	200	100+	95–97%
UZ SL	O‘zbekiston	300+	80	40	88–90% (eksperimental)

Imo-ishora aniqlashda turli chuqur o‘rganish modellarining imkoniyatlari so‘nggi yillarda keng o‘rganildi. Long Short-Term Memory(LSTM) va Gated Recurrent Unit(GRU) modellar, masalan, Paul, S., Gupta, R., & Martinez, J. (2025) olimlarning ishida, konvolyutsion neyron tarmoqlari bilan birlashtirib ishlatilgan va Amerika Sign Language datasetida 96% aniqlik ko‘rsatgan[2]. Ushbu modellar ketma-ketlikdagi imo-ishora harakatlarini aniq o‘rganishga va vaqt bo‘yicha yuz beradigan o‘zgarishlarga bardoshli bo‘lishga imkon beradi, shuningdek, turli harakatlarning ketma-ketlik xususiyatlarini to‘liq qamrab oladi. Shu bilan birga, vizual detallarga sezgirliги nisbatan past va parallel hisoblashda samaradorligi cheklangan.

Hybrid yondashuvlar, masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlari va LSTM yoki Transformer va konvolyutsion neyron tarmoqlari arxitekturalari, vizual va ketma-ketlik ma‘lumotlarini birlashtiradi Aly, S., & Fathi, A. (2024). tadqiqotining, Transformer hamda konvolyutsion neyron tarmoqlari arxitekturasi ArSL datasetida 97–98% aniqlikni ta‘minlagan. [3] Bu modellar real vaqt ishlashda ham yuqori aniqlikni saqlab qoladi, chunki ular harakatlar ketma-ketligi va vizual ma‘lumotlarni bir vaqtning o‘zida o‘rganadi. Shu bilan birga, arxitektura murakkab bo‘lgani uchun katta dataset va kuchli hisoblash resurslari talab etiladi.

Multimodal yondashuvlar esa imo-ishora aniqlashda yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Video tasvirlar, qo‘l pozalari va inertial sensorlar birgalikda ishlatiladi. Masalan, Alzohairi, R., Alghonaim, A., Al-Slamah, R., & Al-Mubarak, H. (2024) olimlar olib borgan tadqiqot ishida esa MobilNetV3 va ResNet50 yordamida tasvirni qayta ishlash hamda attention mexanizmi orqali aniqlikni 94–97% darajasiga yetkazgan. [4] Bunday yondashuv harakatlarni yanada aniq va ishonchli aniqlash imkonini beradi va Explainable Suniy intellekti yordamida qarorlarni tushunishni osonlashtiradi, biroq tizim murakkabligi va qo‘shimcha hisoblash resurslari talab qilinishi e‘tiborga olinishi kerak.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, imo-ishora aniqlashda hybrid va multimodal modellar eng samarali hisoblanadi. Ular turli ma‘lumotlarni birlashtirib, real vaqt rejimida yuqori aniqlik bilan ishlashga qodir bo‘lib, foydalanuvchilar uchun ishonchli va tushunarli tizimlar yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, turli modellarning cheklovlarini hisobga olgan holda, kelajakda resurslarni optimallashtirish va tizimlarni universal qilish bo‘yicha tadqiqotlar davom ettirilishi lozim. Batafsil solishtirma quyidagi jadvalda to‘liq bayon etilgan. (2-jadval)



2-jadval. Batafsil solishtirma jadval

Model / Yondashuv	Dataset	Aniqlik (%)	Real vaqt	Hisoblash xarajati	Afzalliklari	Kamchiliklari
3D KONVOLIYUTSION NEYRON TARMOQLARI	ASL 100	94–95	O‘rtacha	Yuqori	Harakatlar va vizual ketma-ketlikni o‘rganadi	Parametrlar ko‘p, resurs talab qiladi
LSTM / GRU	ASL 100	90–96	Yuqori	O‘rtacha	Ketma-ketlik va temporal xususiyatlar	Vizual detalni yetarlicha o‘rganmaydi
KONVOLIYUTSION NEYRON TARMOQLARI va LSTM	ASL / ISL	95–97	Yuqori	Yuqori	Vizual + temporal ma’lumotlarni birlashtiradi	Murakkab arxitektura
Transformer va KONVOLIYUTSION NEYRON TARMOQLARI	ArSL	96–98	O‘rtacha-Yuqori	Yuqori	Uzun ketma-ketliklar va attention mexanizmi	Katta dataset talab qiladi
Multimodal va XAI	ArSL	94–97	Yuqori	Yuqori	Ishonchli, tushuntiriladi	Arxitektura murakkab, qo‘shimcha sensorlar kerak

Tahlil xulosalari

1. Hybrid modellar (konvolyutsion neyron tarmoqlari + lstm, transformer + konvolyutsion neyron tarmoqlari) imo-ishora aniqlashda eng yuqori aniqlik va real vaqt ishlash balansini beradi.

2. LSTM va GRU modellar temporal ketma-ketlikni yaxshi o‘rganadi, lekin vizual detalni yetarlicha hisobga olmaydi.

3. Multimodal yondashuvlar va explainable AI foydalanuvchi ishonchliligini oshiradi va tizimni ilmiy asoslash imkonini beradi.

4. Dataset hajmi va xilma-xilligi model aniqligiga bevosita ta’sir qiladi; O‘zbek imo-ishora tizimlari uchun keng va xilma-xil dataset yaratish zarur.

Izlanishim natijalari sifatida O‘zbek alifbosining 28 ta asosiy harfini o‘z ichiga olgan original tasvirlar to‘plami shakllantirildi. Hajmi: Jami 7,938 ta noyob tasvirdan foydalanildi. Har bir harf uchun o‘rtacha 5,000 tadan ortiq o‘quv namunalari hamda sifat nazorati uchun 1,500 ga yaqin test tasvirlari tayyorlandi. Imo-ishora belgilarini (Static Gestures) aniqlashda kompyuter ko‘rishining eng samarali usuli hisoblangan Konvolyutsion neyron tarmoqlari (konvolyutsion neyron tarmoqlari) tanlab olindi. Modelning arxitekturasi tasvirdagi lokal belgilarni iyerarxik usulda ajratib olishga moslashtirilgan:

Regulyarizatsiya (Dropout): Ma’lumotlarga haddan tashqari moslashib ketishning (overfitting) oldini olish uchun 0.25 va 0.5 koeffitsiyentli Dropout qatlamlari kiritildi.

O‘zbek imo-ishora tili uchun maxsus yaratilgan dataset tadqiqotning poydevorini tashkil etadi. Tadqiqot doirasida O‘zbek alifbosining 28 ta asosiy harfi uchun jami 7,938 ta noyob tasvirdan iborat baza shakllantirildi.

Taqsimot: Ma'lumotlarning 80% qismi o'qitish (training), 20% qismi esa validatsiya va test jarayonlari uchun ajratildi. Har bir harf uchun o'quv namunalari soni o'rtacha 5,000 tadan ortiqni tashkil etishi modelning turli yoritish darajalarida ham aniq ishlashini ta'minladi.

Tasvirlarga ishlov berish: Barcha tasvirlar 300x300x1 o'lchamli monoxrom (grayscale) formatga o'tkazildi. Bu usul rangli shovqinlarni (color noise) yo'qotib, modelning faqat qo'l morfologiyasiga fokuslanishiga yordam beradi. [5]

O'tkazilgan tajribalar natijasida model yuqori koeffitsiyentli ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Quyidagi 2-jadvalda modelning asosiy metrikalari keltirilgan:

2-jadval. Modelning asosiy metrikalari

Metrika	Ko'rsatkich	Izoh
Training Accuracy	98.4%	Modelning o'quv bazasini o'zlashtirishi
Test Accuracy	97.8%	Noma'lum tasvirlarni aniqlash aniqligi
F1-Score	0.97	Precision va Recall muvozanati
Inference Time	< 30ms	Real vaqt rejimida ishlash tezligi

Tizimning eng muhim yutug'i — bir-biriga vizual jihatdan juda yaqin bo'lgan harflarni (masalan, "O",

va "G", "I" va "J") farqlash qobiliyatidir. Real vaqt rejimida veb-kamera orqali o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, monoxrom format va chuqur qatlamli konvolyutsion neyron tarmoqlari kombinatsiyasi fon shovqinlariga qaramay barqaror natija beradi.

Gibrid modellarning afzalligi: Faqatgina konvolyutsion neyron tarmoqlari emas, balki kelgusida ketma-ketliklarni hisobga oluvchi konvolyutsion neyron tarmoqlari va LSTM gibrid modellari dinamik harakatlarni (masalan, "J" yoki "G" harflaridagi harakatlanishni) aniqlashda yanada yuqori balansni ta'minlaydi.

Datasetning ahamiyati: O'zbek imo-ishora tizimi uchun yaratilgan ushbu baza kelajakdagi multimodal (ko'p qirrali) ilmiy ishlar uchun etalon bo'lib xizmat qilishi mumkin.


Explainable AI (XAI): Tizimga tushuntiriladigan sun'iy intellekt elementlarini kiritish, model nima uchun aynan ma'lum bir harfni tanlaganini tahlil qilish imkonini beradi va foydalanuvchi ishonchini oshiradi.

Tasvirlar shovqinlardan tozalandi va 300x300x1 o'lchamli monoxrom formatga keltirildi, (rasm) bu esa hisoblash resurslarini tejash bilan birga modelning harakat traektoriyasiga fokuslanishini ta'minladi.

Tasvirlarni aniqlash uchun chuqur o'rganishning (Deep Learning) konvolyutsion neyron tarmoqlari tanlandi. Tanlangan model quyidagi qatlamlardan tashkil topdi:

4 ta Konvolyutsion qatlam: Tasvirdagi qo'l shakli va barmoqlar holatining o'ziga xos belgilarini ajratib olish uchun.

Max Pooling: Muhim belgilarni saqlab qolgan holda ma'lumotlar hajmini optimallashtirish uchun. Dropout: Modelning o'quv ma'lumotlariga haddan tashqari bog'lanib qolishini (overfitting) oldini olish va umumlashtirish qobiliyatini oshirish uchun.



1-rasm. CNN modelning iyerarxik arxitekturasi va ma'lumotlar oqimi

Ishlab chiqilgan tizim laboratoriya va real sharoitlarda sinovdan o'tkazilganda kutilganidan yuqori natijalarni qayd etdi. O'quv jarayoni samaradorligi: Model o'quv bosqichida 98.4% aniqlikka erishdi. Validatsiya va Test: Begona (model ko'rmagan) ma'lumotlar bilan ishlashda 97.8% lik aniqlik saqlanib qoldi. Tizim barqarorligi: F1-score ko'rsatkichining 0.97 ga tengligi modelning "yanglishish" ehtimoli minimal ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, vizual jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan "O" va "G" harflarini real vaqt rejimida veb-kamera orqali aniqlashda tizimning tezkorligi sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Xulosa

Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida imo-ishora aniqlashning nazariy asoslari va so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, turli chuqur o'rganish modellarini qo'llash, xususan konvolyutsion neyron tarmoqlari, LSTM, GRU va Transformer arxitekturalarining hybrid kombinatsiyalari, imo-ishoralarni aniqlashda yuqori aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Multimodal yondashuvlar – tasvir, qo'l pozalari va boshqa sensorlar birgalikda ishlatilishi – tizimlarning real sharoitlarda ishonchli ishlashini oshiradi. Explainable AI metodlari esa model qarorlarini tushuntirish imkonini berib, foydalanuvchilarga tizimdan ishonch bilan foydalanish imkonini yaratadi.

O'zbek imo-ishora tiliga nisbatan quyidagi yangiliklar va istiqbollar muhim hisoblanadi. O'zbek imo-ishora ma'lumotlar bazasini yaratish: keng va xilma-xil dataset, turli yosh, jins va sharoitdagi foydalanuvchilarni qamrab oladi.

Xulosa qilganda sun'iy intellekt asosidagi imo-ishora aniqlash tizimlari insonlar bilan muloqotni soddalashtirishi, eshitish qobiliyati cheklangan shaxslar hayotini yaxshilashi va kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. O'zbek imo-ishora tilini rivojlantirish va yuqorida keltirilgan yo'nalishlarni amalga oshirish esa sohada ilmiy izlanishlar va texnologik yangiliklar uchun istiqbolli yo'l bo'lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Deng, J., Guo, J., Niannan, X., & Zafeiriou, S. (2019). ArcFace: Additive angular margin loss for deep face recognition. Proceedings of the IEEE/CVF Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), pp. 4690–4699.



2. Paul, S., Gupta, R., & Martinez, J. (2025). Hybrid Deep Learning Architectures for Real-Time American Sign Language Recognition. *IEEE Access*, vol. 13, pp. 4520-4535.
3. S. Aly and A. Fathi, "Deep Learning-based Arabic Sign Language Recognition: A Hybrid Transformer-CNN Approach," in *Proc. of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, 2024, pp. 210-225
4. Alzohairi, R., Alghonaim, A., Al-Slamah, R., & Al-Mubarak, H. (2024). *Hybrid Lightweight Deep Learning Models for Arabic Sign Language Recognition with Spatial Attention Mechanisms*. *IEEE Access*, 12, 11450-11468.
5. Central Asian Sign Language Recognition using a Convolutional Neural Network. *International Conference Proceedings*, August 2023.



SIGNALLARNI SILLIQLASHDA VOLTERRA 2 –TUR TENGLAMASINI QO‘LLANILISHI

¹Qulmatov M.B., ²Salimov J.I., ³Ziyodullayev S.S

¹International Digital University, Mudofaachilar Str, Tashkent, 100000, Uzbekistan.

²International Digital University, Mudofaachilar Str, Tashkent, 100000, Uzbekistan.

³Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Gavhar Str, Tashkent, 100127, Uzbekistan.

kulmatov.mukhriddin@idu.uz

Annotatsiya. Mazkur ishda signallarni qayta ishlash jarayonida shovqin ta’sirini kamaytirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, chiziqsiz va vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan tizimlarda signallarni silliqlashda Volterra 2-tur integral tenglamalarini qo‘llashning nazariy asoslari yoritilgan. Volterra yadrosi yordamida tizimning xotira xususiyatlarini hisobga olish imkoniyati tahlil qilinadi hamda ushbu yondashuvning signalni aniqroq tiklashdagi afzalliklari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari raqamli signalni qayta ishlash, texnik va tabiiy jarayonlarni modellashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: signallarni silliqlash, Volterra integral tenglamasi, chiziqsiz tizimlar, shovqinli signal, yadro funksiyasi, xotirali tizimlar, raqamli signalni qayta ishlash.

Kirish

Raqamli va analog signallarni qayta ishlash jarayonida shovqin ta’sirini kamaytirish va foydali signalni aniqlik bilan ajratib olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalani hal etishda signalni silliqlash (filtrlash) usullari keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, tizim chiziqsiz xususiyatga ega bo‘lgan hollarda klassik chizikli modellar yetarli aniqlik bermaydi. Bunday vaziyatlarda Volterra 2 – tur integral tenglamalari samarali matematik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Volterra 2 – tur tenglamasi umumiy holda quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$${}_x y(t) = f(t) + \int_0^t K(t, \tau)x(\tau)d\tau \quad (1)$$

bu yerda

$y(t)$ – noma’lum funksiya bo‘lib, silliqlangan signal,

$f(t)$ – kuzatilgan signal yoki shovqin,

$K(t, \tau)$ – tizimning yadro funksiyasi bo‘lib signalning vaqt bo‘yicha o‘zaro ta’sirini ifodalaydi[3].

Mazkur tenglama signallarni silliqlashda shovqinli signalni integral operator orqali qayta ishlash imkonini beradi. Volterra yadrosi yordamida tizimning xotira xususiyati hisobga olinadi, ya’ni signalning oldingi qiymatlari hozirgi holatga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa real fizik va texnik tizimlarni modellashtirishda muhim ahamiyatga ega[5].

Volterra 2-tur tenglamalarining afzalligi shundaki, ular nochizikli va turg‘un bo‘lmagan signallarni silliqlashda yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, biologik signallar, tibbiy diagnostika ma’lumotlari, seysmik va ekologik monitoring signallarini qayta ishlashda ushbu yondashuv keng qo‘llaniladi. Shuningdek, raqamli signalni qayta ishlashda Volterra modellari adaptiv filtrlash algoritmlarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘p holatlarda Volterra 2-tur tenglamalarini aniq yechish imkoni bo‘lmaydi, shu sababli ularni sonli yechim orqali yechiladi[4].

Bir qator yaxshi natija beradigan sonli usullar, ya'ni xatolik kamroq bo'ladigan sonli yechimlarni hisoblash usullari mavjud. Ulardan biri kvadratur usuli bo'lib, shu jumladan Trapetsiya va Simson formulalarini keltirish mumkin. Asosiy maqsad bunda integralni yig'indi ko'rinishda ifodalash bo'ladi. Unda, $f(x)$ funksiya chiziqli funksiyaga yaqin bo'lsin, u holda integralni balandligi $b-a$ ga va asoslari $f(a)$ va $f(b)$ ga teng bo'lgan trapetsiya yuzi bilan almashtirish mumkin, u holda

$$\int_a^b f(x)dx \approx \frac{b-a}{2} (f(a) + f(b)) \quad (2)$$

(2) formula trapetsiya formulasi deyiladi. Trapetsiya usuli algoritmi $[a, b]$ kesmani

nuqtalar bilan n ta teng bo'lakka bo'lamiz. Har bir qo'shni bo'luvchi nuqtalar orasidagi $h = \frac{b-a}{n}$

$[a, b]$ kesmani bo'luvchi nuqtalardan chehgaraviy egri chiziq bilan kesishgunga qadar perpendikulyar o'tkazamiz. Egri chiziq mos nuqtalarining ordinatalari quyidagicha bo'ladi:

$$y_0 = f(x_0), y_1 = f(x_1), \dots, y_n = f(x_n)$$

Perpendikulyarning $y = f(x)$ chiziq bilan kesishgan qo'shni nuqtalarini vatarlar bilan birlashtiramiz va hosil qilingan har bir to'g'ri chiziqli trapetsiyalarning yuzini topamiz:

$$\frac{y_0 + y_1}{2} h, \frac{y_1 + y_2}{2} h, \dots, \frac{y_{n-1} + y_n}{2} h$$

barcha n ta trapetsiya yuzini qo'shamiz:

$$s = h \left(\frac{y_0}{2} + y_1 + y_2 + \dots + \frac{y_n}{2} \right) \quad (3)$$


bo'linish qadami $h = \frac{b-a}{n}$ ekanligi va hosil bo'lgan yig'indi inobatga olinsa, egri chiziqli trapetsiyaning yuzini taqriban quyidagicha yozish mumkin:

$$\int_a^b f(x)dx \approx h \left(\frac{y_0}{2} + y_1 + y_2 + \dots + \frac{y_n}{2} \right) \quad (4)$$

Ushbu sonli usulning xatoligi quyidagiga teng:

$$R_n(f) = \frac{b-a}{12} f''(\xi) h^2, \xi \in [a, b] \quad (5)$$

Ushbu sonli usul algoritmining blok-sxema orqali ifodalanishi quyidagicha bo'ladi[1].



1-rasm. Trapetsiya sonli usuli algoritmi blok-sxema ko‘rinishi

Integrallarni hisoblashning Simpson usulini ko‘rib chiqamiz. $f(x)$ funksiya $[a, b]$ oraliqda kvadratik funksiya ayqin bo‘lsa, u holda $\int_a^b f(x)dx$ ni taqribiy ravishda Ox o‘qi va $x=a$, $x=b$ to‘g‘ri chiziqlar hamda $y=f(x)$ funksiya grafingining absislari $x=a$, $\frac{a+b}{2}$ va $x=b$ bo‘lgan nuqtalaridan o‘tuvchi ikkinchi tartibli parabola orqali chegaralangan yuza bilan almashtirish mumkin, u holda quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi:

$$\int_a^b f(x)dx \approx \frac{b-a}{2} \left\{ f(a) + 4f\left(\frac{a+b}{2}\right) + f(b) \right\} \quad (6)$$

$[a, b]$ kesma uzunligi $h = \frac{b-a}{2n}$ bo‘lgan $2n$ ta juft bo‘lakka $x_1, x_2 \dots x_{2n-1}$ nuqtalar orqali ajratamiz:

$$[x_0, x_2], [x_2, x_4], \dots, [x_{2n-2}, x_{2n}] (a = x_0, b = x_{2n})$$


Bu kesmalarning o'rtalari mos ravishda $x_1, x_2, \dots, x_{2n-1}$ nuqtalar bo'ladi [2]. Umumiy holatda

$$f(x)dx \approx \frac{b-a}{6} [(y_0 + y_{2n}) + 2(y_2 + y_4 + \dots + y_{2n-2}) + 4(y_1 + y_3 + \dots + y_{2n-1})] \quad (7)$$

(7) formula Simpson formulasidir. Ushbu sonli usulning xatoligi quyidagicha bo'ladi:

$$R_n(f) = -\frac{b-a}{180} f^{IV}(\xi)h^4, \xi \in [a, b] \quad (8)$$

Simpson sonli usli algoritmi blok-sxema orqali ifodalanishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



2-rasm. Simpson sonli usuli algoritmi blok-sxema ko'rinishi

Endi signallarni qayta ishlashda (1) ko'rinishdagi tenglamalar Volterra 2 – tur tenglamalari uchun ushbu sonli usullar orqali yechishni ko'rib chiqamiz.

Masalaning qo'yilishi

Signallarni yuborishda manbaga yetib kelguncha signal ma'lum bir to'siq yoki shovqinga uchrab kelishi mumkin. Zararlangan signallarni qayta ishlashda avvalo signalni o'zini qanday tutishini uning funksiyasiga qarab bilishimiz mumkin. Odatda signallar sinusoida ko'rinishida tarqaladi. Ushbu tezisda Volterra integral tenglamalarida yadro $K(t, \tau)$ va ozod had $f(t)$ ning o'zgarishi signalning qanday "silliqlanishi" yoki "transformatsiya" bo'lishini belgilab beradi.

Bunda faqat yadro emas balki ozod had ya'ni signal funksiyasi turli xil ko'rinishda, ularni trapetsiya va simpson sonli usullari orqali yechib xatoliklarini baholashni ko'rib chiqamiz.



Quyidagi 2 xil ko‘rinishdagi yadrolar orqali ifodalangan Volterra 2-tur tenglamalarini ko‘rib chiqamiz:

1. Ushbu tenglama signallarni shovqindan tozalashda eng ko‘p qo‘llaniladigan model hisoblanadi. Umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

$$y(t) = \sin(t) + \int_0^t e^{-(t-\tau)} y(\tau) d\tau \tag{9}$$


Ushbu tenglamaning [0;2] kesmada $h=0.01$ qadam bilan aniq yechimi va Trapetsiya hamda Simpson sonli usullarida olingan barcha t lar uchun olingan $y(t)$ qiymatlari 1-jadvaldagi kabi bo‘ladi.

1-jadval

Signallarni qayta ishlashda (9) tenglama aniq yechimi va Trapetsiya hamda Simpson sonli usullari tahlili

Tugun nuqtalar(t)	Aniq yechimda olingan natija($y(t)$)	Trapetsiya yechimida olingan natija($y(t)$)	Simpson yechimida olingan natija($y(t)$)
0.0	0.0000	0.0000	0.0000
0.5	0.6018	0.6019	0.6023
1.0	1.3012	1.3012	1.3010
1.5	1.9268	1.9268	1.9245
2.0	2.3254	2.3255	2.3198

3-rasmda bu ikki sonli usulning va aniq yechimlarning taqqoslanishi ko‘rsatilgan. Grafikda ko‘rinib turibdiki sonli yechim ma’lum bir nuqtalarda uzoqlashayotganini va yana qaysidir nuqtalar yaqilashayotganini kuzatish mumkin.



3-rasm. (9) tenglamaning aniq yechimi va Trapetsiya hamda Simpson sonli usullari taqqoslash grafigi

2. Agar yadro doimiy son bo'lsa, bu tizim avvalgi barcha qiymatlarni bir xil darajada hisobga oladi. Umumiy ko'rinishi quyidagicha:


$$y(t) = t^2 + \int_0^t 1 \cdot y(\tau) d\tau \quad (10)$$

Ushbu tenglamaning $[0; 2]$ kesmada $h=0.01$ qadam bilan aniq yechimi va Trapetsiya hamda Simpson sonli usullarida olingan barcha t lar uchun olingan $y(t)$ qiymatlari 1-jadvaldagi kabi bo'ladi.

Signallarni qayta ishlashda Trapetsiya va Simpson sonli usullari tahlili

Tugun nuqtalar(t)	Aniq yechimda olingan natija($y(t)$)	Trapetsiya yechimida olingan natija($y(t)$)	Simpson yechimida olingan natija($y(t)$)
0.0	0.0000	0.0000	0.0000
0.5	0.2974	0.2941	0.2953
1.0	1.4366	1.4174	1.4242
1.5	3.9634	3.9010	3.9239
2.0	8.7781	8.6163	8.6775

4-rasmda bu ikki sonli usulning taqqoslanishi ko'rsatilgan. Grafik ko'rib turibdi sonli yechim $t=0.5$ dan so'ng uzoqlashayotganini va yana qaysidir nuqtalar yaqilashayotganini kuzatish mumkin.





4-rasm. (10) tenglamaning aniq yechimi va Trapetsiya hamda Simpson sonli usullari taqqoslash grafigi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda ushbu ishda signallarni qayta ishlash jarayonlarida Volterra 2-tur integral tenglamalarining o'rnini va ularni yechishda qo'llaniladigan sonli usullarning samaradorligi ko'rib chiqildi. Xususan, Trapetsiya va Simpson kvadratur formulalari yordamida integral tenglamalarni sonli yechish va ularning xatoliklarini solishtirib chiqildi. Simpson usuli kvadratik approksimatsiyaga asoslangani sababli, chiziqli yaqinlashishga ega Trapetsiya usuliga qaraganda ancha yuqori aniqlik namoyon etdi. Bu, ayniqsa, dinamik o'zgaruvchan va yuqori chastotali signallarni silliqlashda muhim ahamiyatga ega. Hisoblash tajribalari shuni ko'rsatdiki, sonli yechimning xatolik darajasi bevosita integral tenglamasining yadrosiga bog'liq. Yadroning differensiallanish tartibi qanchalik yuqori (ya'ni, yadro qanchalik silliq) bo'lsa, sonli usullarning barqarorligi shunchalik ortadi va natijaviy signalning "shovqin" darajasi pasayadi. Ozod hadning uzluksizligi va uning yuqori tartibli hosilalarining mavjudligi integrallash jarayonidagi xatoliklar yig'indisiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Signalning keskin o'zgarish nuqtalarida Trapetsiya usuli Simpson usuliga qaraganda kamroq tebranish berishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, yadro funksiyasini to'g'ri tanlash va mos sonli usulni qo'llash orqali signallarni qayta ishlash tizimlarida axborot yo'qotilishini minimallashtirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Sonli usullar: O'quv qo'llanma/A.I.Ismoilov, Sh.A.Ro'zaliyev. –Farg'ona.:2025.-150 b.
2. Integral tenglamalar: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik./ M. Salohiddinov. T.: Yangiyul poligraph service, 2007. —256 b.
3. Linz, P. (1985). Analytical and Numerical Methods for Volterra Integral Equations. SIAM. (Volterra tenglamalarini sonli yechish bo'yicha dunyodagi eng mashhur qo'llanmalardan biri).
4. Wazwaz, A. M. (2011). Linear and Nonlinear Integral Equations: Methods and Applications. Springer Science & Business Media.
5. Kress, R. (1989). Linear Integral Equations. Springer-Verlag.

IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLAR UCHUN SUN'IIY INTELLEKTGA ASOSLANGAN APPARAT-DASTURIY MAJMUA

Umarov Muhridin; Umarov Xusniddin

“University of Management and Future Technologies” universiteti, “Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar” kafedrası dotsenti
muhridin.umarov.1992@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi insonlarga qulaylik yaratish uchun sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib yordamchi tizim ishlab chiqish masalasi qaralgan. Ushbu tizim obyektlarni tanib olish, to‘siqlargacha bo‘lgan masofani o‘lchash va matnlarni aniqlash kabi vazifalarni bajaradi. Obyektlarni tanib olish va to‘siqlar masofasini o‘lchashda mashinali o‘qitish algoritmlaridan, tasvirdagi matnlarni aniqlashda optik belgilarni aniqlash algoritmlaridan hamda aniqlangan natijalarni ovozli ifodalashda matnlarni tahlil qilish algoritmlaridan foydalanildi. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi insonlarning atrof-muhitni anglashi, insonlar bilan muloqot qilishi va mustaqil harakatlanishiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faoliyatini yaxshilash asosiy maqsad hisoblanadi. Ko‘zi ojiz insonlar uchun foydalanishga qulay, arzon va o‘zbek tilida natijalarni bayon qiluvchi dasturiy vositalarni ishlab chiqish mamlakatimizda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqilgan algoritmlar yordamida obyektlarni va matnlarni aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari mos ravishda 92,16% va 99,87% ni tashkil qildi. To‘siqlar masofasini o‘lchash mobil ilovaga nisbatan maksimal og‘ish darajasi 6,32% ni tashkil etdi. Bunday natijalar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilayotgan yordamchi tizim tijorat qurilmalari kabi ishonchli ko‘rsatkichlarni beradi. Ko‘rish qobiliyati zaif insonlarning xavfsizligi va farovonligiga foyda keltiradigan kundalik hayotning asosiy talablariga javob beradi.

Kalit so‘zlar: ko‘zi ojiz insonlar, sun‘iy intellekt, yordamchi tizim, obyektlarni tanib olish, matnlarni aniqlash, to‘siqlar masofasini o‘lchash, ovozli ifodalash.

Kirish

Vision Loss Expert Group (VLEG) tomonidan ishlab chiqilgan statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo miqyosida ko‘r bo‘lgan insonlar soni 2050-yilda 115 million kishiga yetishi kutilmoqda [1]. Bugungi kunda mamlakatimizdagi 76020 nafar ko‘zi ojiz insonlarning 64244 nafari O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati hisobiga olingan. Jami ishlovchi ko‘zi ojiz insonlar soni 3305 nafarni, shundan 1539 nafari jamiyat korxonalarida, 557 nafari jamiyat tizimida va 1209 nafari tizimdan tashqari turli tashkilotlarda faoliyat yuritmoqda [2]. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimining tobora ortib borayotgan yuqori xarajatlarini bartaraf etish muammosi ko‘plab mamlakatlarda katta qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Odatda, ko‘rish qobiliyati zaif insonlar ko‘rish tizimlarisiz tashqi ma‘lumotni idrok eta olmaydilar, bu esa kundalik hayotda qiyinchiliklar va noqulayliklarga olib keladi [3]. Masalan, ular to‘siqlarga va yaqin atrofdagi tanib bo‘lmaydigan buyumlarga urilishi, shuningdek, kitob yoki ekrandagi kontentni o‘qiy olmasligi tufayli yiqilib tushishi mumkin [4]. Hozirgi kunda tijorat qurilmalari qimmat, katta hajmli va natijalarni ovozli ifodalashda til muammolari mavjud hamda atrof-muhitni tushunarli va yuqori aniqlikda yetkazib berish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu sababli, ko‘rish qobiliyati zaif insonlar uchun yordamchi tizim usullarini yanada takomillashtirish zarur.



Ko'rish qobiliyati zaif insonlarga tashqi ma'lumotni idrok etishga yordam beradigan bir nechta yechimlar taklif qilingan. Masalan, hassa ko'zi o'z insonlar uchun an'anaviy vosita bo'lib, o'z atrofida harakat qilishi va o'zlarini boshqalarga ko'rsatish uchun foydalanadi [5]. Biroq, u uzoqdan yaqinlashib kelayotgan to'siqlarni oldidan ogohlantira olmaydi, shuningdek, tizzadan yuqorida joylashgan to'siqlarni taniy olmaydi. Yo'l ko'rsatuvchi itlar ko'rish qobiliyati zaif insonlarga yordam beradigan yana bir variant bo'lib, bu ularga mustaqil, ishonchli va boshqalarga tayanmasdan xavfsiz yurishiga yordam beradi va to'siqlar natijasida jarohat olishiga to'sqinlik qiladi. Lekin, yo'l ko'rsatuvchi itlarni o'rgatish uchun vaqt va ko'p kuch talab etiladi, bunday jarayon odatda 2 yilgacha davom etadi va narxi qimmat [6]. Hozirgi kunda turli vositalar va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan boshga taqiladigan, ovozi ko'rsatma beradigan va qo'lida foydalanadigan bir nechta prototiplar taklif etilgan [7, 8, 9]. Ularning aksariyati yaqin atrofdagi ma'lumotlarni to'plash uchun turli xil sensorlarni birlashtiradi va eshitish vositasi orqali xabar beradi. Sog'liqni saqlash nazorati funksiyasini qo'shish va monitoring qilish, umumiy xarajatlarni bir vaqtning o'zida kamaytirish orqali yanada takomillashtirilishi mumkin.

Ushbu mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun joriy prototiplar asosida sun'iy intellektga asoslangan yordamchi tizim ishlab chiqilgan. Ushbu tizim obyektlarni tanib oladi va ularni foydalanuvchidan uzoqligini taxmin qiladi. Bundan tashqari, ovozi yordamchi orqali taqdim etilishi mumkin bo'lgan matnni aniqlaydi va foydalanuvchiga uzatish imkonini beradi. Keyinchalik, ko'rish qobiliyati zaif insonlarga atrof-muhitdagi obyektlar haqida ma'lumotni yaxshiroq idrok etishga yordam berish va real vaqt rejimida ishlashni ta'minlash uchun tasvirga oid barcha ma'lumotlarni qayta ishlash maxsus serverlarda amalga oshiriladi. Natijada, yordamchi tizimlar kundalik hayotda ko'rish qobiliyati zaif insonlarning xavfsizligi va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan insonlarning idrok etish qobiliyatini yaxshilash uchun taklif etilayotgan sun'iy intellektga asoslangan yordamchi tizim real vaqt rejimida obyektlarni tanib olish, to'siqlar masofasini o'lchash va matnni aniqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ovozi ifodalash orqali tegishli ma'lumotlarni o'zbek tilida taqdim etish imkonini beradi. Tajribalar bunday funksiyalarning qulayligini ko'rsatdi, ularning atrof-muhit haqida muhim ma'lumotlarni olishi keng imkoniyatlarni yaratadi.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda qaralayotgan ko'rishda nuqsoni bo'lgan insonlarga yordam beruvchi tizimga to'xtalsak, ular texnologik asoslariga ko'ra uchta alohida toifaga ajratildi: kompyuter ko'rishga asoslangan, kompyuter ko'rishga asoslanmagan va gibril [10]. Kompyuter ko'rishga asoslangan tizimlar atrof-muhit haqida ma'lumot berish uchun real vaqt rejimida video oqimlar yoki tasvirlardan foydalanadi. Kompyuter ko'rishga asoslanmagan tizimlar atrof-muhitni tahlil qilish va foydalanuvchiga tegishli ma'lumotlarni yetkazish uchun ko'plab sensorlar va modullardan foydalanadi. Gibril tizimlar ikkala yondashuvning afzalliklarini olish uchun kompyuter ko'rishga asoslangan sensor texnologiyalarini birlashtiradi. Yordamchi tizim ko'p funksiyali bo'lishi va natijalarning aniqligi hamda qulay tarzga ifodalanishi muhim masalalardan hisoblanadi.

Obyektlarni tanib olish. Mashhur olim Lowe tomonidan yorug'lik va shovqin ta'sir qilmaydigan ishonchli xususiyatlarni aniqlaydigan Scale Invariant Feature Transform (SIFT) algoritmini taklif qildi [11]. Keyinchalik, SIFTga asoslangan takomillashtirilgan Speeded-Up Robust Features (SURF) algoritmi ishlab chiqildi, u taqsimotga asoslangan deskriptordan foydalanilgan [12].


Ushbu an'anaviy algoritmlar muhim obyektlarni aniqlash uchun past darajadagi xususiyatlarni qo'lda ajratib oladi va ko'p toifali obyektlarni samarali tanib olmaydi [13]. Shu maqsadda bir nechta chuqur o'qitish algoritmlari qo'llanildi, ular nafaqat murakkabroq xususiyatlarni ajratib olish imkonini beradi, balki bitta neyron tarmoq yordamida xususiyatlarni ajratib olish, tanlash va tasniflash imkonini beradi. Region-Convolution Neyron Network (R-CNN) algoritmi obyektlarni tanib olish aniqligini yaxshilashga katta yordam beradi. Biroq, real vaqt talablarida yetarli javob bermaydi. The You Only Look Once (YOLO) algoritmi chuqur o'qitishda regressiyadan foydalanadi. U real vaqt talablariga javob berib, soniyasiga 40 ta kadrni (FPS) qayta ishlashi mumkin. Umuman olganda, chuqur o'qitish algoritmlari tanib olish aniqligi va tezligi bo'yicha an'anaviy usullardan ancha ustundir.

To'siqlargacha bo'lgan masofani o'lchash. To'siqlar masofasini o'lchashni to'rt toifaga bo'lish mumkin: ultratovush, infraqizil, lazer va vizual. Masalan, Meshram tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ultratovushli datchiklardan tizza ostidagi to'siqlarni aniqlash uchun foydalanilgan. Villanueva va Farsi kabi olimlar hassani infraqizil datchiklar bilan birlashtirib, to'siqlardan aks ettirilgan infraqizil impulslarni chiqardi va aniqladi, bu ko'rish qobiliyati zaif odamlarga yo'lda yetarlicha keng yo'l topishga imkon berdi. Yuqorida tavsiflangan yondashuvlar diapazondagi muammoni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin, biroq ular yaqin atrofdagi harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash uchun mos emas. Bundan tashqari harorat, namlik va atrof-muhit shovqini kabi atrof-muhit parametrlari ta'sir qiladi hamda lazer insonning ko'ziga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababdan, kompyuter ko'rishga asoslangan usul eng yaxshi yechim hisoblanadi. Monteiro tomonidan kamera atrofida sodir bo'layotgan harakatlarni tanib olish va ko'rish qobiliyati zaif insonlar uchun fikr-mulohazalarni berishda konvolyutsion neyron tarmog'idan foydalangan. Shunday qilib, kompyuter ko'rishga asoslangan yondashuvlar ko'rish qobiliyati zaif insonlarga atrof-muhitni his qilishlariga va to'siqlardan ishonchliroq qochishlariga yordam beradi.

Matnni aniqlash. Oldingi bir qancha tadqiqotlar real vaqt rejimida matnni aniqlashni amalga oshiradigan mustahkam tizimlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ular ko'p hollarda kitob yoki ekrandagi kontentni olish uchun chegaralarni aniqlash va optik belgilarni aniqlash (OCR-Optical Character Recognition) kabi kompyuter ko'rish usullaridan foydalanilgan. Masalan, Pei va Zhu tomonidan Tesseractga asoslangan real vaqt rejimida matnni aniqlash tizimi taqdim etilgan. Long Short-Term Memory (LSTM) arxitekturasini o'z ichiga olgan yangi xususiyatli so'zlar va satrni aniqlash vazifasini bajaradi. Har bir kadr uchun matnni aniqlaydi va bashorat qiladi, keyin har bir kadr uchun bashorat yorliqlarini yakuniy ketma-ketlikka aylantiradi. Mukhiddinov va Cho kabi olimlarning tadqiqotlarida OCR orqali matnni end-to-end tanib olish algoritmidan foydalanib aniqlash amalga oshirilgan, uning asosiy komponenti matnni tanib olish uchun o'zgartirilgan to'liq konvolyutsion tarmoq hisoblanadi.


Tadqiqot natijalari

Ko'zi ojiz insonlarning kundalik hayotdagi turli holatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, uchta asosiy talabni bajarish kerak. Shu maqsadda, 1-rasmda YOLO algoritmi asosida atrof-muhitni idrok etadigan yordamchi tizim uchun taklif qilingan dizayn ko'rsatilgan. Bu yerda tasvirlar kamera yordamida olinadi va neyron tarmoq modeli mos masofadagi tashqi obyektlarni va kitob yoki ekrandagi kontentni aniqlaydi. Ma'lumotlarni yig'ish va monitoring qilish uchun natijalarni markaziy severga yuklash mumkin.



1-rasm. Obyektni tanib olish, to'siqlar masofasini o'lchash va matni aniqlashga tavsiya etilgan dizayn.

Obyektlarni tanib olish YOLO algoritmi tomonidan amalga oshiriladi, bunday chuqur neyron tarmoqlardan foydalanish orqali obyektni tanib olishning aniqligi va tezligi oshirildi. U tasvirni bo'laklarga bo'lish va har bir bo'lakdagi katakchalar uchun chegaralovchi qutilarni bashorat qilish orqali ishlaydi, shuning uchun ular atrofida chegaralovchi qutilarni yaratishda tasvirdagi bir nechta obyektlarni tanib olishi mumkin. Bundan tashqari, uning yengil ishlashi cheklangan ishlov berish quvvatiga ega bo'lgan qurilmalarga mos va Raspberry Pi ga integratsiya qilish imkonini beradi. Bu tadqiqotda YOLO neyron tarmog'idan foydalanildi, uni asosan uchta qatlarga bo'lish mumkin: xususiyatlar xaritasi, obyektlarni aniqlash, sinflashtirish (2-rasm).




2-rasm. YOLO arxitekturasi.

Birinchi qatlam kameradan olingan kiruvchi tasvirlardan xususiyatlarni ajratib olish uchun ma'sul. Xususiyatlar xaritasi qatlami CNN modeli orqali turli masshtablarda ierarxik xususiyatlarni to'plash uchun bir qator konvolyutsiya va birlashtirish operatsiyalarini bajaradigan tayanch bo'lib xizmat qiladi. Obyektlarni aniqlash qatlami xususiyatlar xaritasi qatlamining chiqishi bilan bog'laydi

va turli o'lchamdagi obyektlarni aniqlash qobiliyatini yaxshilashi mumkin bo'lgan xususiyat sintezidan foydalanadi. Nihoyat, sinflashtirish qatlami obyektning yakuniy bashoratini chegaralovchi quti bilan ifodalaydi.

Obyektlarni tanib olishdan tashqari, to'siqlardan qochish nazoratini amalga oshirish uchun ko'zi o'z insonlar oldidagi to'siqlarni masofadan o'lchashga erishish muhimdir. Shu maqsadda binokulyar ko'rish diapazoni usuli binokulyar kameradan (Intel RealSense D435) yozib olingan ma'lumotlardan foydalaniladi. 3-rasmda ko'rsatilganidek, bu yerda O_L va O_R chap va o'ng linzalarga ishora qiladi, f kameraning fokus uzunligini bildiradi, B chap va o'ng linzalar orasidagi masofani bildiradi, a - linzaning kengligi, P - to'siqning maqsad nuqtasi, P' , P'' - P va ikkita linzalarning kesishish nuqtalari, m - linzalarning o'rta nuqtasi, n - linzaning so'nggi nuqtasi va Z - to'siqlardan asosiy chiziqqacha bo'lgan masofani ifodalaydi.



3-rasm. To'siqlargacha bo'lgan masofani binokulyar ko'rish usuli asosida o'lchash.

Matematik jihatdan ularning munosabatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\frac{Z-f}{Z} = \frac{B-(m+n)}{B} \quad (1)$$

$$X_L = \frac{a}{2} + m \quad (2)$$

$$X_R = \frac{a}{2} - n \quad (3)$$


(1), (2) va (3) formulalarni birlashtirib, (4) formulani hosil qilamiz:

$$Z = \frac{B \cdot f}{X_L - X_R} = \frac{B \cdot f}{d} \quad (4)$$



Bu yerda Z o'zaro B , f va d (tegishli chap va o'ng nuqtalarning paralaksi, ya'ni X_L-X_R) bilan bog'liq. B va f kameraning o'zgarish qiyamtlari bo'lib, ular nisbatan o'zgarishdir va har bir nuqtaning paralaksi d qiymati olinganda, Z qiymatini (to'siqlar masofasi) mos ravishda baholash mumkin. Natijada, agar to'siq aniqlansa va foydalanuvchilargacha bo'lgan masofa o'lchansa, yordamchi tizim obyektlarning toifasini ko'rish qobiliyati zaif insonlarga tegishli masofa bilan xabar qilishi mumkin.

Bundan tashqari, kitob yoki ekrandagi kontentni o'qish vaqtida duch keladigan muammolarni hal qilish uchun OCR asosidagi matnni aniqlash usuli ovozli yordamchi bilan birgalikda qo'llanildi. Butun jarayon 4-rasmda ko'rsatilgandek, bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Dastlab binokulyar kameradan tasvir olinadi, so'ngra tasvir shovqinini kamaytirish uchun namuna olinadi. Keyinchalik, tasvirdan tegishli matn hududini olish uchun kulrang tasvirga aylantiriladi va binarizatsiya qo'llaniladi. Shundan so'ng, alohida belgilarni segmentlarga bo'lish uchun belgilarni ajratib olish qo'llaniladi. Keyingi qadam segmentlangan tasvirni skanerlashni o'z ichiga oladi va muhim belgilardan xususiyat vektorlari olinadi. Xususiyat vektorlarini optimallashtirish maqsadida shablon kutubxonasiga moslashtiriladi, bu esa shablonlarni aniq moslashtirish va belgilarni aniqlash imkonini beradi. Nihoyat, natijalar ko'rishda nuqsoni bo'lgan insonlar uchun o'qish muammolarini hal qiladigan ovozli yordamchi orqali ifodalanadi.




4-rasm. Matnni tanib olish tuzilmasi.


Tadqiqot natijalari tahlili

Eksperimental amaliyot asosan ishlab chiqilgan algoritmlar orqali uchta asosiy masalani tekshirishni o'z ichiga oldi. Uning maqsadi ushbu tizim turli sharoitlarda ushbu funksiyalarni bajarishi mumkinligini tekshirishdir. Tajribalar obyektlarni tanib olish, to'siq masofasini o'lchash va matnni aniqlash uchun o'rnatilgan Raspberry Pi ga ulangan binokulyar kameraga ega. Yuqorida aytib o'tilganidek, real vaqt rejimi talablarini bajarish uchun yordamchi tizim tomonidan amalga oshirildi.

Obyektlarni tanib olish va to'siqlar masofasini o'lchashni tekshirish uchun bino ichida va bino tashqarisida aniqlanadigan bitta yoki bir nechta obyektlarni o'z ichiga olgan 20 ta holatdan foydalangan holda baholash o'tkazildi. Natijalar bino ichida 5-rasmda va bino tashqarisida 6-rasmda ko'rsatilganidek, tegishli masofaga ega bo'lgan berilgan obyektни qamrab oldi. Turli sinov holatlarida obyektlarni tanib olishning batafsil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.



5-rasm. Binoda ichida olingan tasvirlar yordamida obyektlarni tanib olish va to‘siq masofasini o‘lchash natijalariga misol.



6-rasm. Bino tashqarisida olingan tasvirlar yordamida obyektlarni tanib olish va to‘siq masofasini o‘lchash natijalariga misol.

1-jadval natijalari bitta, ikkita va uchta obyektli holatlar uchun yuqori aniqlikni ko‘rsatadi. Biroq, tasvirdagi obyektlar soni ortishi bilan, ayniqsa, o‘xshash ko‘rinishdagi obyektlar uchun xatoliklar kuzatildi. Masalan, 10 va 13 holatlarda kompyuter monitori televizor sifatida noto‘g‘ri identifikatsiya qilingan, 19 va 20 holatlarda esa mototsikl velosiped sifatida noto‘g‘ri aniqlangan, bu o‘xshash obyektlarni tanib olish qobiliyatini yaxshilash uchun qo‘shimcha ma’lumotlarni qayta ishlash zarurligini bildiradi. Yordamchi tizim obyektlarni tanib olishning taxminan 92,16% aniqligiga erisha oldi (20 holatda jami 51 tadan 47 ta to‘g‘ri bashorat va atigi 4 tasi xato), bu ko‘rish qobiliyati zaif insonlarga obyekt haqida ma’lumot berish uchun yetarli hisoblanadi.




Turli hollarda obyektlarni tanib olish ko'rsatkichlari

Holatlar	Obyektlar soni	Haqiqiy obyektlar	Belgilangan obyektlar	Nato'g'ri obyektlar
1	bitta	odam	odam	yo'q
2	bitta	kubok	kubok	yo'q
3	bitta	qalam	qalam	yo'q
4	bitta	klaviatura	klaviatura	yo'q
5	bitta	monitor	monitor	yo'q
6	ikkita	odam, shisha	odam, shisha	yo'q
7	ikkita	kreslo, sichqoncha	kreslo, sichqoncha	yo'q
8	uchta	kitob, qalam, telefon	kitob, qalam, telefon	yo'q
9	uchta	odam, kubok, stul	odam, kubok, stul	yo'q
10	to'rta	odam, sichqoncha, monitor, klaviatura	odam, sichqoncha, televizor, klaviatura	manitor
11	to'rta	odam, shisha, stul, telefon	odam, shisha, stul, telefon	yo'q
12	to'rta	kitob, qalam, sichqoncha, klaviatura	kitob, qalam, sichqoncha, klaviatura	yo'q
13	beshta	odam, shisha, stul, sichqoncha, monitor	odam, shisha, stul, sichqoncha, televizor	manitor
14	bitta	avtomobil	avtomobil	yo'q
15	ikkita	velosiped, motosikl	velosiped, motosikl	yo'q
16	ikkita	odam, avtomobil	odam, avtomobil	yo'q
17	uchta	odam, mashina, daraxt	odam, mashina, daraxt	yo'q
18	uchta	odam, velosiped, avtomobil	odam, velosiped, avtomobil	yo'q
19	uchta	odam, motosikl, avtomobil	odam, velosiped, avtomobil	motosikl
20	beshta	odam, daraxt, avtomobil, motosikl	odam, daraxt, avtomobil, velosiped	motosikl

Masofani o'lchash natijalariga kelsak, 1-jadvalda keltirilgan barcha holatlar orasida bir nechta obyektlar nomi noto'g'ri aniqlangan bo'lsada, ularning tegishli masofalarini olish mumkin va diapazoni 0,71–65,54 m. Mobil ilova bilan taqqoslaganda, og'ish darajasi 0,28–6,32% ni tashkil qiladi, masofa qanchalik uzoq bo'lsa, og'ish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Masofa oshgani sayin, ushbu uzoqdagi obyektlar uchun tasvirlardagi mos nuqtalar orasidagi tafovut kichikroq bo'lib, chuqurlikni baholashning aniqligini pasaytiradi. Shuning uchun, chuqurlikni hisoblash usuli tufayli uzoq masofalarda cheklovlar mavjud.

Bundan tashqari, OCR usuli ko'rish qobiliyati zaif insonlar uchun real vaqt rejimida o'qish tajribasini yaxshilash uchun mo'ljallangan, masalan, odatda bino ichida bo'lgan kitob yoki ekran kontentini o'qish. Shuning uchun uni baholash kitobdan olingan o'nta matn asosida amalga oshirildi

va namunaviy natijalar 7-rasmda ko‘rsatilgan. Shunisi e‘tiborga loyiqlik, ushbu test holatida barcha so‘zlarni aniqlash mumkin.



7-rasm. Matnni aniqlash natijalariga misol.

Qo‘shimcha holatlar turli xil sonli so‘zlarni o‘z ichiga olgan va natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Real vaqt rejimida matnni aniqlashda juda kichik xatolarga olib kelishi mumkin bo‘lsada, aniqlik taxminan 99,87% ni tashkil etdi. EasyOCR and Tesseract algoritmlari [27] yordamida olingan natijalar bilan solishtirma ko‘rsatkichlar 3-jadvalda keltirilgan. Shunday qilib, Bluetooth audio uskunasini orqali bunday so‘zlarni ifodalash orqali ko‘rish qobiliyati zaif insonlar kundalik hayotda o‘qish tajribasini yaxshilashlari mumkin.

2-jadval

Turli holatlardagi matnni aniqlash ko‘rsatkichlari

Holatl	Asl so‘zlar soni	To‘g‘ri so‘zlar soni	Aniqlik (%)
1	263	263	100
2	422	422	100
3	489	489	100
4	784	783	99.87
5	986	980	99.39

3-jadval

Turli algoritmlar yordamida matn belgilarini aniqlash ko‘rsatkichlari

Holatl	TesseractOCR (%)	EasyOCR (%)	Bizning yondashuv (%)
1	99.55	99.55	99.68
2	100	99.53	99.81
3	100	100	100
4	100	99.02	100
5	97.97	75.38	98.79

Xulosalar

Ushbu maqolada obyektlarni tanib olish, to‘siqlar masofasini o‘lchash va matnni aniqlash kabi vazifalarni bajaruvchi ko‘rish qobiliyati zaif insonlar uchun qulaylikni oshirish uchun yordamchi tizim taklif etildi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarga aniqlangan natijalarini yetkazadigan ovozli yordamchi mavjud. Tadqiqot tajribalari obyektlarni tanib olish va matnni aniqlash uchun mos



ravishda 92,16% va 99,87% yuqori aniqlikni ko'rsatdi. Mobil ilovaga nisbatan to'siqlar masofasini o'lchashda kuzatilgan maksimal og'ish darajasi 6,32% ni tashkil qildi. Bunday natijalar shuni ko'rsatadiki, taklif etilayotgan tizim mavjud tijorat qurilmalari bilan raqobatlasha oladi. Arzon va ko'p funksiyali yordamchi tizim ko'rish qobiliyati zaif insonlarning ehtiyojlarini qondirish uchun mos va qulay yechim bo'lib, ularning xavfsizligi va farovonligi uchun xizmat qiladi.

Kelajakda yetarlicha katta ma'lumotlar to'plami yordamida tanib olishning aniqligini yanada yaxshilash uchun yordamchi tizimda kuchaytirilgan chuqur neyron tarmog'I kabi bir nechta ilg'or modellar o'rganiladi. Bundan tashqari, his-tuyg'ularni aniqlash va charchoqni aniqlash kabi qo'shimcha funksiyalar ko'rish qobiliyati zaif insonlarning umumiy hayot sifatini yaxshilash uchun ishlab chiqiladi.

REFERENCES

1. LESH Visual Impairment & Blindness Global Data & Statistics 2023 Update: <https://www.lasereyesurgeryhub.co.uk/data/visual-impairment-blindness-data-statistics/>.
2. O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati: <https://uzkoj.uz/about-us/>.
3. El-Rashidy, N.; El-Sappagh, S.; Islam, S.M.R.; El-Bakry, H.M.; Abdelrazek, S. Mobile health in remote patient monitoring for chronic diseases: Principles, trends, and challenges. *Diagnostics* 2021, 11, 607.
4. Jivrajani, K.; Patel, S.K.; Parmar, C.; Surve, J.; Ahmed, K.; Bui, F.M.; Al-Zahrani, F.A. AIoT-based smart stick for visually impaired person. *IEEE Trans. Instrum. Meas.* 2023, 72, 2501311.
5. Husin, M.H.; Lim, Y.K. InWalker: Smart white cane for the blind. *Disabil. Rehabil. Assist. Technol.* 2020, 15, 701–707.
6. Glenk, L.M.; Pr'ibylová, L.; Stetina, B.U.; Demirel, S.; Weissenbacher, K. Perceptions on health benefits of guide dog ownership in an Austrian population of blind people with and without a guide dog. *Animals* 2019, 9, 428.
7. Chang, W.; Chen, L.; Hsu, C.; Chen, J.; Yang, T.; Lin, C. MedGlasses: A wearable smart-glasses-based drug pill recognition system using deep learning for visually impaired chronic patients. *IEEE Access* 2020, 8, 17013–17024.
8. Kuriakose, B.; Shrestha, R.; Sandnes, F.E. Tools and technologies for blind and visually impaired navigation support: A review. *IETE Tech. Rev.* 2020, 39, 3.
9. Li, B.; Muñoz, J.P.; Rong, X.; Chen, Q.; Xiao, J.; Tian, Y.; Ardit, A.; Yousuf, M. Vision-based mobile indoor assistive navigation aid for blind people. *IEEE Trans. Mobile Comput.* 2019, 18, 702–714.
10. Plikynas, D.; Žvironas, A.; Gudauskis, M.; Budrionis, A.; Daniušis, P.; Sliesoraityte, I. Research advances of indoor navigation for blind people: A brief review of technological instrumentation. *IEEE Instrum. Meas. Mag.* 2020, 23, 22.
11. Lowe, D.G. Distinctive image features from scale-invariant keypoints. *Int. J. Comput. Vis.* 2004, 60, 91–110.
12. Bay, H.; Ess, A.; Tuytelaars, T.; Van Gool, L. Speeded-up robust features (SURF). *Comput. Vis. Image Underst.* 2008, 110, 346–359.
13. Xiao, Y.; Tian, Z.; Yu, J.; Zhang, Y.; Liu, S.; Du, S.; Lan, X. A review of object detection based on deep learning. *Multimed. Tools Appl.* 2020, 79, 23729–23791.

KORPARATIV TARMOQ TRAFIGIDA SHUBHALI PAKETLARNI ANIQLASH ALGORITMI

kapitan Raxmonov N.N.

O‘R MV Kiberxavfsizlik departamenti bo‘lim boshlig‘i

DSc., dotsent Turapov Sh.N.

AKT va AHI, Axborotni kriptografik himoyalash va maxsus aloqa kafedrası boshlig‘i

kapitan Qodirov Jahongir Alisherjon o‘g‘li

O‘R MV Kiberxavfsizlik departamenti bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari

kapitan Anvarov Sh.S.

O‘R MV Kiberxavfsizlik departamenti boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada korporativ tarmoqlarda IP-trafikni tahlil qilish va shubhali paketlarni aniqlash uchun mashinali o‘qitishga asoslangan model taklif etilgan. Tadqiqotda o‘qituvchi bilan, o‘qituvchisiz va qisman o‘qituvchi bilan o‘qitish usullari qo‘llanilgan. Trafik statistikasi va paket xususiyatlari asosida zararli trafikni aniqlash samaradorligi oshirilishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Korporativ tarmoq, IP-trafik, shubhali paket, mashinali o‘qitish, trafik tasniflash, DDoS hujum, fishing, IDS, tarmoq monitoringi, kiberxavfsizlik.

Kirish. Shubhali paketlarni aniqlash ro‘yxatlari tarmoqdagi turli tahdidlar va zararli harakatlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan maxsus ma‘lumotlar bazalaridir. Ushbu ro‘yxatlar muntazam ravishda yangilanadi va yangi ma‘lum tahdidlar, zararli IP-manzillar, domenlar, fayl xeshlari va zararli faoliyatning boshqa xususiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shubhali paketlarni aniqlashda ikkita qora va oq qoidalar ro‘yxatlaridan foydalaniladi. Shubhali paketlarni aniqlash tuzilmasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Yumshatish bosqichi

Yumshatish bosqichi quyida keltirilgan beshta jadvaldan iborat:

1. Qora ro‘yxat jadvali buzg‘unchining MAC-manzilini blokirovka qiladi va foydalanuvchilarga kerakli ma‘lumotlar to‘plamini taqdim qiladi.
2. Oq ro‘yxat jadvali paketning manba MAC-manzilini tekshiradi. Agar mos yozuv bo‘lsa, paket yo‘naltiriladi. Aks holda, SYN paketi tekshirish-sinxronlash jadvaliga joylashtiriladi, ACK paketi tekshirishni tasdiqlash jadvaliga joylashtiriladi va paketning qolgan qismi o‘chiriladi.
3. Yo‘naltirish jadvali paketlarni tegishli chiqish portiga yo‘naltiradi.
4. Sinxronizatsiyani tekshirish jadvali agar paket 256 ta yozuvdan biriga mos kelsa, SYN va ACK paketlari sinxronlashtiriladi va buzg‘unchi aniqlanadi.
5. Tasdiqlash jadvali paketning ACK raqamini tekshiradi. Agar ACK raqami to‘g‘ri bo‘lsa, buzg‘unchi aniqlangan hisoblanadi. Aks holda paket tashlab yuboriladi.

Aniqlash bosqichi

Registrlarda qiymatlarni saqlash uchun xesh-jadval va jadvaldagi slotda esa kalit va qiymat mavjud. Kalit ikkita maydonni saqlaydi: IP va MAC-manzillar, qiymat esa hisoblagichni saqlaydi. Aniqlash bosqichi uchta harakatni amalga oshirish modullariga bo‘linadi: slotga qo‘shish, slotni tozalash hamda paket xususiyatlari va sinf belgilari modullari.

Slotga qo‘shish moduli. Kalit sifatida paketning manba IP va MAC manzillaridan foydalanib,



k indeksga mos keladigan k ni olish uchun turli xesh-funksiyalar yordamida hisoblab chiqiladi. Agar kalit xesh-jadvalda mavjud bo'lmasa, k sloti bo'sh slot mavjudligini tekshiradi, agar bo'sh slot bo'lmasa, paket mijozga qaytariladi; aks holda kalit saqlanadi hamda hisoblagich 1 ga o'rnatiladi. Bundan tashqari, agar kalit xesh-jadvalda mavjud bo'lsa, hisoblagich 1 ga oshiriladi va hisoblagich T chegarasidan oshib ketganligi tekshiriladi. Chegara T ulanishining buzilishiga ruxsat berilganligini bildiradi. Agar hisoblagich chegaradan oshib ketgan bo'lsa, kommutator kontrollerga xulosa ma'lumotlarini yuboradi keyin kontroller kalitning MAC manzilini qora ro'yxat jadvaliga qo'shadi.

Slotni tozalash moduli. Slotni tozalashda kirish elementi kaliti yordamida kirish mumkin bo'lgan k slotlar sonini oladi. So'ngra kalitni xesh-jadvalida mavjudligini tekshiradi.

Paket xususiyatlari va sinf belgilari moduli. Shubhali paketlarni aniqlashda tarmoq paketlarining manba va maqsad IP-manzili, port, protokol, paket o'lchami hamda har bir paket uchun paketning shubhali yoki shubhali emasligini ko'rsatuvchi sinf belgilarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar to'plami mavjud. Bu to'plamni quyidagicha tavsiflash kerak bo'ladi:

Paket xususiyatlari. Har bir tarmoq paketi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

$$X = \{x_1, x_2, \dots, x_n\} \quad (4.4)$$

Bu yerda, x_i – paketning o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi, masalan, IP-manzil, port, protokol va boshqalar.

Sinf belgilari. Agar $y = 1$ bo'lsa paket shubhali bo'lsin, agar $y = 0$ bo'lsa normal paket bo'lsin, ya'ni

$$F(x) = \begin{cases} y = 1, & \text{paket shubhali hisoblanadi} \\ y = 0, & \text{paket zararli hisoblanadi} \end{cases} \quad (4.5)$$

Shubhali paketlar ulushini aniqlashda paket xususiyatlari va sinf belgilari asosida logistik regressiya usulidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi [1, 73-b], sababi mazkur usulda ikkita ma'lumot omili o'rtasidagi munosabatlarni topishda foydalaniladi, ya'ni

$$LR_v(X) = \frac{1}{1 + e^{-vX}} \quad (4.6)$$

Bu yerda, v –vektor parametrlari hisoblanadi.


Fishing hujumlarini aniqlash bosqichi

1-rasmda fishing hujumlarini aniqlash algoritmining blok-sxemasi taklif etilgan.

Fishing hujumini aniqlash bosqichi ikkita modulga bo'lingan. Birinchi modul URL va DNS solishtirish moduli bo'lib, unda ish vaqtini oshirish va yolg'on xabarlarini kamaytirish uchun foydalaniladigan oq ro'yxat mavjud [2]. Oq ro'yxat ikkita parametрни qo'llab-quvvatlaydi: domen nomi va mos IP-manzil.


Domen nomi. Har safar foydalanuvchi veb-saytga kirganda, tizim joriy veb-saytning domen nomi bilan oq ro'yxatga mos kelishini tekshiradi.

Mos IP-manzil. Agar joriy veb-sayt domeni oq ro'yxatga mos kelsa, tizim qaror qabul qilish uchun IP-manzilni moslashtiradi [3,4,5-72-bet].




1-rasm. Fishing hujumlarini aniqlash algoritmining blok-sxemasi

Agar foydalanuvchi oq ro'yxatga kiritilgan veb-saytga kirsam, DNS hujumini tekshirish uchun tegishli domenning IP-manzilini moslashtiradi. Oq ro'yxat noldan boshlanadi. Bu shuni anglatadiki, dastlab ro'yxatda hech qanday domen bo'lmaydi va foydalanuvchi yangi veb-sahifalarga kirishi bilan oq ro'yxat o'sish tartibida to'ldirilishni boshlaydi. 2-rasmda tarmoq trafigidagi shubhali paketlarni aniqlash tuzilmasi taklif etilgan[6,67-bet].



2-rasm. Tarmoq trafigidagi shubhali paketlarni aniqlash tuzilmasi

Foydalanuvchi veb-saytga kirganida, ikkita imkoniyat mavjud: yoki foydalanuvchi veb-saytga birinchi marta yoki u allaqachon veb-saytga kirib bo'lgan. Agar foydalanuvchi saytga birinchi marta kirsa, sayt domeni oq ro'yxatda bo'lmaydi. Bunday holda ikkinchi modul ishlashni boshlaydi, fishingni identifikatsiyalash moduli veb-sahifaning fishing ekanligini tekshiradi va veb-sahifadan giperhavolalarni qabul qiladi va giperhavolalarni fishingni aniqlash algoritmiga yo'naltiradi. Fishingni aniqlash algoritmi qaror qabul qilish uchun giperhavolalar xususiyatlarini tahlil qiladi. Tarmoq trafigidagi shubhali paketlarni aniqlash tuzilmasi asosida 3-rasmda shubhali paketlarni aniqlash algoritmining blok-sxemasi taklif etilgan.



3-rasm. Tarmoq trafigidagi shubhali paketlarni aniqlash algoritmining blok-sxemasi

Veb havolani zararsizligini tekshirgandan so'ng, agar sayt fishing bo'lsa, tizim foydalanuvchini ogohlantiradi. Agar sayt zararsiz bo'lsa, tizim oq ro'yxatdagi domenlarni yangilashga imkon beradi. Tarmoq trafigidagi shubhali paketlarni aniqlash bo'yicha taklif etilgan algoritm giperhavo funksiyalaridan foydalanib veb-sahifaning zararsizligini tekshirish va domenlarni soxta hujumlardan himoya qilishga imkon beradi.

Xulosa:

Maqolada taklif etilgan model korporativ tarmoqlarda zararli trafikni aniqlashda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanligi ko'rsatib berilgan. Paketlarning IP va MAC manzillari, port raqamlari, protokol turi va hajmi kabi xususiyatlar asosida trafikni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Qora va oq ro'yxatlar, xesh-jadvallar hamda logistik regressiya usulidan foydalanish shubhali faoliyatni tez va aniq aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, fishing hujumlarini aniqlash uchun URL va DNS tekshiruv mexanizmlarining qo'llanilishi foydalanuvchilarni soxta saytlar orqali amalga oshiriladigan hujumlardan



himoyalash imkonini beradi. Umuman olganda, taklif etilgan algoritmlar tarmoq xavfsizligini oshirish, real vaqt rejimida tahdidlarni aniqlash va kiberhujumlarga qarshi samarali himoya tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.С. Потапова, В.В. Батищева, Ш. Панс. Улучшение качества распознавания в сетях глубокого обучения с помощью метода имитации отжига. Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики Scientific and Technical Journal of Information Technologies, Mechanics and Optics 2014, № 5 (93), стр.71-76
2. Gulomov Sherzod Rajaboevich, Kadirov Mir-Xusan Mirpulatovich, Tashev Sarvar Norboboevich. The structure of tracking suspicious packets in network traffic. 2023 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) , Tashkent, Uzbekistan, pp.4
3. Gulomov Sh.R., Kadirov M.M., Karimova N.A., Raximjonov U.Sh. Building a k-means algorithm to reduce false positives when determining a network attacks. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 6, Issue 10 , October 2019. – P. 11107-11111
4. Sh.R.G‘ulomov. Uzfirewall-next generation firewall apparat-dasturiy vositasining funksional strukturasi. «Xalq xo‘jaligi sohasida ilg‘or texnologiyalar tadbiri muammolari» mavzusidagi hududiy ilmiy-texnik konferensiyasi 2023-yil, 27-dekabr, Nukus. -B.136-140
5. Бороненко Т. А., Кайсина А. В., Федотова В. С. Концептуальная модель понятия цифровой грамотности // Перспективы науки и образования. 2020. № 4 (46). - С. 47-73. doi: 10.32744/pse.2020.4.4
6. Н.В. Родионов, Р.С. Загидуллин. Разработка концептуальной модели информационной среды инноваций. International Scientific Conference Proceedings PIT 2021 “Advanced Information Technologies and Scientific Computing”, -С. 580-583

АЛГОРИТМИЧЕСКИЙ КОД АНАЛИЗ

С.Б.Пардабаев¹, З.Н.Азимова²

University of Management and future Technologies,

University of Management and future Technologies

forzillas099@gmail.com

Аннотация: В работе рассматривается роль комбинаторики в анализе устойчивости PIN-кодов как одного из базовых механизмов защиты информации в условиях цифровизации. Показано, что повседневно используемые коды и пароли могут быть исследованы с точки зрения вероятностных и комбинаторных моделей, позволяющих количественно оценить степень их защищённости от подбора. Особое внимание уделяется практической значимости комбинаторных методов, лежащих в основе современных алгоритмов шифрования и криптоанализа. На примере PIN-кодов демонстрируется, что даже простые математические рассуждения позволяют делать обоснованные выводы о реальной надёжности систем информационной безопасности. Работа подчёркивает связь теоретических основ дискретной математики с прикладными задачами защиты данных и формирует представление о комбинаторике как важном инструменте анализа криптоустойчивости.

Ключевые слова: Комбинаторика, дискретная математика, информационная безопасность, PIN-код, криптоустойчивость, защита данных, вероятность, подбор паролей.

1. Введение

В условиях стремительного развития цифровых технологий проблема защиты информации приобретает особую актуальность. Персональные и конфиденциальные данные пользователей хранятся в мобильных устройствах, банковских системах и онлайн-сервисах, доступ к которым, как правило, осуществляется с помощью паролей и PIN-кодов. Эти сравнительно простые символьные или числовые комбинации выступают первичным барьером между пользователем и потенциальным злоумышленником, поэтому оценка их надёжности имеет важное практическое значение.

Естественным образом возникает вопрос о том, насколько защищён стандартный PIN-код и можно ли количественно оценить вероятность его подбора. Для ответа на данный вопрос целесообразно обратиться к комбинаторике — разделу дискретной математики, изучающему способы подсчёта, выбора и расположения элементов из конечных множеств. Комбинаторный подход позволяет определить общее число возможных вариантов PIN-кодов и на этой основе оценить вероятность успешного взлома при случайном или систематическом подборе.

Значимость рассматриваемой темы обусловлена тем, что комбинаторные методы лежат в основе множества алгоритмов, применяемых в криптографии, защите информации и криптоанализе. Понимание принципов комбинаторики позволяет не только решать абстрактные математические задачи, но и применять полученные знания для анализа реальных систем безопасности, в том числе для оценки криптоустойчивости паролей и кодов доступа.

В рамках данной работы комбинаторика рассматривается как инструмент анализа стойкости PIN-кодов. Показано, что даже простые математические модели, основанные на подсчёте числа возможных комбинаций и оценке вероятностей, позволяют сделать обоснованные



выводы о фактической надёжности защитных механизмов. Тем самым подчёркивается тесная связь между теоретическими основами дискретной математики и практическими задачами обеспечения информационной безопасности в современных цифровых системах.

2. Понятие и область применения комбинаторики

Комбинаторика является разделом дискретной математики, изучающим методы подсчёта, выбора и упорядочивания элементов конечных множеств. Основная задача комбинаторики заключается в определении числа возможных вариантов реализации некоторого события или структуры при заданных условиях. В отличие от непрерывных разделов математики, комбинаторика оперирует дискретными объектами, что делает её особенно важной для анализа процессов, связанных с конечным числом состояний и решений. Формирование комбинаторики как самостоятельной математической дисциплины было обусловлено практическими задачами, связанными с теорией вероятностей, теорией чисел и анализом алгоритмов. Со временем комбинаторные методы стали неотъемлемой частью многих направлений современной науки и техники, в частности информатики, криптографии и теории алгоритмов. Комбинаторика обеспечивает строгий математический аппарат для оценки сложности задач, количества возможных конфигураций и вариантов перебора. Область применения комбинаторики чрезвычайно широка. В информационных технологиях и компьютерных науках она используется при анализе алгоритмов, оценке вычислительной сложности и проектировании структур данных. В криптографии комбинаторные модели лежат в основе оценки стойкости шифров, паролей и PIN-кодов, поскольку позволяют определить общее число возможных ключей и вероятность их подбора. В теории связи и сетевых технологиях комбинаторика применяется при анализе маршрутизации, кодирования информации и распределения ресурсов.

Комбинаторика также широко применяется в экономике, логистике и управлении, где необходимо оптимально распределять ресурсы, планировать расписания и анализировать возможные сценарии развития процессов. В естественных науках, таких как физика и биология, комбинаторные методы используются при моделировании состояний сложных систем и анализе структурных комбинаций элементов.

Таким образом, комбинаторика представляет собой не только теоретическую математическую дисциплину, но и универсальный инструмент прикладного анализа. Её методы позволяют формализовать и решать широкий круг задач, связанных с подсчётом, выбором и упорядочиванием вариантов, что делает комбинаторику важной составной частью современного научного и инженерного знания.

Хотя комбинаторика часто воспринимается как чисто теоретическая дисциплина, на практике она применяется в самых разных сферах:

- в **информатике** — для проектирования алгоритмов, хэш-функций, структур данных и генераторов случайных чисел;
- в **криптографии** — для анализа количества возможных ключей и устойчивости систем шифрования;
- в **биоинформатике** — для изучения комбинаций генов;
- в **теории вероятностей** — для расчета вероятностей сложных событий.

Таким образом, комбинаторика — это универсальный инструмент, который соединяет абстрактную математику с реальными задачами современного мира.

Основные виды комбинаторных соединений

Основная цель комбинаторики — подсчитать количество возможных способов выбора или упорядочивания элементов. Для этого используются три базовых типа комбинаторных конструкций: перестановки, размещения и сочетания.

- Перестановки описывают все возможные способы расположить различных элементов.
Формула:

$$P_n = n!$$

Например, если у нас есть три цифры (1, 2, 3), то возможные перестановки: 123, 132, 213, 231, 312, 321 — всего $3! = 6$ вариантов

Размещения — это все возможные способы выбрать и упорядочить m элементов из n .
Формула:

$$A_n^m = \frac{n!}{(n-m)!}$$

Пример: если мы выбираем 2 цифры из 5 (1,2,3,4,5), то $A_5^2 = 20$ возможных комбинаций.

- Сочетания — это выбор элементов без учета порядка.
Формула:

$$C_n^m = \frac{n!}{m!(n-m)!}$$

Пример: комбинация из 2 элементов (1 и 2) такая же, как (2 и 1).

Когда речь идёт о PIN-кодах, важно учитывать, что цифры могут повторяться, а порядок играет роль. В этом случае используется размещение с повторениями:

$$\hat{A}_n^m = n^m$$

Здесь n — количество возможных цифр (в случае PIN-кода — 10), а m — длина кода.

Принцип умножения и роль комбинаторики в защите данных

Принцип умножения утверждает: если одно действие можно выполнить n_1 способами, а другое — n_2 , то оба действия вместе можно выполнить $n_1 \times n_2$ способами. Именно этот принцип лежит в основе расчета числа комбинаций в PIN-кодах.

Каждая цифра PIN-кода выбирается независимо, и для каждой позиции существует 10 возможных значений. Следовательно, для кода длиной 5 цифр общее количество комбинаций равно:

$$10 \times 10 \times 10 \times 10 \times 10 = 10^5 = 100000$$

Этот простой, но мощный принцип позволяет оценить, насколько устойчив код к подбору: чем больше комбинаций, тем ниже вероятность случайного совпадения.

3. Практическая часть: оценка вероятности взлома pin-кода

Алгоритмический анализ: постановка задачи

Представим, что система безопасности использует PIN-код из 5 цифр. Каждая цифра может принимать значения от 0 до 9. Задача злоумышленника — угадать этот код.

Чтобы понять, насколько это сложно, рассчитаем:



1. Общее количество возможных комбинаций;
2. Вероятность успешного угадывания с одной и несколькими попытками;
3. Влияние длины кода на вероятность взлома.

Количество возможных PIN-кодов

Поскольку каждая из пяти цифр может быть выбрана независимо, общее количество комбинаций определяется формулой размещений с повторениями:

$$\hat{A}_{10}^5 = 10^5 = 100000$$

Это означает, что существует сто тысяч уникальных PIN-кодов.

Если длина кода увеличивается до 6 цифр, число комбинаций возрастает до:

$$\hat{A}_{10}^6 = 10^6 = 1000000$$

то есть до одного миллиона. Даже простое добавление одной цифры увеличивает количество возможных кодов в 10 раз.

Вероятность успешного взлома

Теперь определим вероятность того, что злоумышленник угадает PIN-код случайным образом. Если код выбирается из 100 000 возможных комбинаций, то вероятность успеха с одной попытки:

$$P_1 = \frac{1}{100000} = 0.00001$$

что эквивалентно **0.001%**.

Если злоумышленнику разрешено сделать несколько попыток, например три, вероятность увеличивается:

$$P_3 = \frac{3}{100000} = 0.00003 = 0.003\%$$

Это чрезвычайно малая вероятность. Даже при 10 попытках шанс угадать PIN-код не превышает 0.01%.

Однако реальная стойкость PIN-кода зависит не только от длины, но и от **человеческого фактора**. Многие пользователи выбирают предсказуемые комбинации — например, 12345, 00000, 25800 или дату рождения. Это резко сокращает реальное количество возможных кодов, и тогда математическая стойкость не совпадает с практической.

В системах защиты (например, банкоматах или телефонах) часто используется ограничение числа попыток — обычно 3. После этого доступ блокируется. Такое ограничение делает даже короткие PIN-коды достаточно устойчивыми для повседневного использования.

Влияние длины кода и стратегии защиты

Для повышения криптостойкости важно увеличивать количество возможных комбинаций.

Например:

- 4-значный PIN → $10^4 = 10,000$ комбинаций
- 5-значный PIN → $10^5 = 100,000$ комбинаций
- 6-значный PIN → $10^6 = 1,000,000$ комбинаций

Разница кажется небольшой, но для алгоритмов перебора (brute-force) это существенное увеличение времени и ресурсов. Если система допускает только 3 попытки, вероятность взлома 6-значного PIN-кода составляет:

$$P = \frac{3}{1000000} = 0.0003\%$$

что делает такой код в тысячу раз надежнее, чем 4-значный.

Зависимость количества возможных комбинаций от длины PIN-кода. Если PIN-код состоит только из цифр (0–9), то общее число возможных комбинаций определяется формулой.

$$N = 10^n$$

где n — количество цифр в PIN-коде.

По оси X откладывается длина PIN-кода, по оси Y — число комбинаций. График имеет экспоненциальный характер, что демонстрирует резкий рост количества вариантов даже при увеличении длины кода всего на одну цифру.

Вероятность подбора PIN-кода в зависимости от числа попыток. При случайном переборе вероятность угадать правильный PIN-код после k попыток определяется выражением:

$$P(k) = 1 - \left(1 - \frac{1}{N}\right)^k.$$

Формула показывает, что при ограниченном числе попыток (например, 3–5 попыток, как в большинстве мобильных устройств) вероятность успешного подбора остаётся крайне низкой.

4. Выводы

В ходе работы было показано, что комбинаторика играет важную роль в анализе и обеспечении цифровой безопасности. На первый взгляд, PIN-код — простая комбинация цифр, однако за его стойкостью стоит мощный математический аппарат.

Используя принципы комбинаторики, можно точно рассчитать количество возможных вариантов и вероятность случайного угадывания. Эти знания демонстрируют, насколько критично увеличение длины кода даже на одну цифру.

Комбинаторика не только помогает понять структуру PIN-кодов, но и формирует математическое мышление, необходимое для анализа алгоритмов шифрования и оценки рисков в сфере кибербезопасности.

Для студента, изучающего информатику, понимание таких простых, но фундаментальных принципов — это первый шаг к освоению алгоритмов, криптографии и защиты данных. Математика перестает быть теорией и становится реальным инструментом безопасности в цифровом мире.

Представление комбинаторных зависимостей подтверждает, что стойкость PIN-кодов определяется прежде всего числом возможных комбинаций. Даже простые математические модели позволяют количественно оценить уровень защищённости и обосновать практическую эффективность механизмов ограничения попыток и увеличения длины кода.

Использованная литература

1. Риордан Дж. *Введение в комбинаторный анализ*. — М.: Наука, 1980.
2. Холл М. *Комбинаторная теория*. — М.: Мир, 1972.
3. Виленкин Н. Я. *Комбинаторика*. — М.: Просвещение, 1975.
4. Бондаренко В. Н. *Комбинаторика и теория графов*. — М.: Наука, 1988.
5. Липский В. М. *Комбинаторика для программистов*. — М.: Наука, 1988.
6. Грэхем Р., Кнут Д., Паташник О. *Конкретная математика*. — М.: Мир, 2000.
7. Aigner M. *A Course in Enumeration*. — Berlin: Springer, 2007.



SUN'IY KO'PAYTIRISH ALGORITMLARINING TUR VA USULLARI

Rayimova Shaxnoza

UMFT universiteti

shaxnozarayimova96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'lumotlar to'plamini sun'iy ko'paytirish (data augmentation) algoritmlarining mohiyati, ularning qo'llanish sohasi va samaradorligi o'rganiladi. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish jarayonlarida ma'lumotlar hajmi va sifatini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotda tasvir, matn va signal ko'rinishidagi ma'lumotlar bilan ishlashda qo'llaniladigan turli sun'iy ko'paytirish usullari tahlil qilindi hamda GAN (Generative Adversarial Networks) kabi ilg'or generativ modellar imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Eksperimental natijalar data augmentation algoritmlarining real ma'lumotlar to'plamlarida mashinaviy o'rganish modellarining aniqligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Maqola yakunida sun'iy ko'paytirish usullarining amaliy qo'llanishi bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: sun'iy ko'paytirish, data augmentation, mashinaviy o'rganish, sun'iy intellekt, generativ modellar, GAN, tasvirlarni qayta ishlash, matnni ko'paytirish, signalni qayta ishlash, ma'lumotlar to'plami, model aniqligi, generativ tarmoqlar.

I. Kirish.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish sohalari jadal suratlar bilan rivojlanib, inson faoliyatining turli jabhalarida keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar, xususan, tasvirni avtomatik tahlil qilish, avtonom transport tizimlari, yuzni tanish, texnik diagnostika, xavfsizlik va monitoring kabi ko'plab yo'nalishlarda sezilarli natijalarni namoyon qilmoqda. Mazkur tizimlarning samarali ishlashi, eng avvalo, ularni o'rgatishda foydalaniladigan ma'lumotlar to'plamining sifati, hajmi va xilma-xilligiga bevosita bog'liqdir.

Katta hajmdagi, muvozanatli va turli sharoitlarda to'plangan ma'lumotlar to'plami mashinaviy o'rganish modellarining aniqligi va barqarorligini oshiradi. Biroq amaliyotda real hayotga yaqin, izohlangan (annotatsiyalangan) ma'lumotlar to'plash ko'plab resurslar, vaqt va mehnat talab qilishi tufayli, ko'pincha cheklangan imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ayniqsa, har xil yoritish sharoitlari, burchaklar, fonlar va boshqa muhim omillarni aks ettiruvchi ma'lumotlarning yetishmasligi mashinaviy o'rganish modellarining umumlashma qobiliyatini pasaytiradi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun sun'iy ko'paytirish (data augmentation) algoritmlaridan foydalanish samarali yechimlardan biri sifatida tan olinmoqda. Bu algoritmlar mavjud ma'lumotlar asosida yangi, real sharoitlarga yaqin namunalar yaratish imkonini berib, o'quv to'plamlarini boyitadi va modellar samaradorligini oshiradi. Hozirda tasvirlar, matnlar va signallarni qayta ishlashda sun'iy ko'paytirish usullari keng tatbiq etilmoqda hamda tadqiqot natijalarini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Ma'lumotlar to'plamining hajmini kengaytirish va modelning umumlashtirish qobiliyatini oshirish sun'iy intellekt tizimlarida muhim yo'nalishlardan biridir. Data augmentation usullari ayniqsa ma'lumotlar yetishmasligi, noaniqligi yoki notekis taqsimlangan holatlarda modellarining barqaror ishlashini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu bo'limda tasvirlar, matn va signallar

bilan ishlashda qo'llaniladigan sun'iy ko'paytirish texnikalari hamda chuqur o'rganishga asoslangan GAN texnologiyalarining imkoniyatlari yoritiladi.

1. Tasvirlar uchun sun'iy ko'paytirish usullari:

Kompyuter ko'rish yo'nalishida data augmentation eng keng qo'llaniladigan metodlardan hisoblanadi. Mavjud tasvirlardan yangi variantlarni yaratish orqali model turli sharoitlarga moslashadi va overfitting xavfi kamayadi. Asosiy usullar quyidagilardan iborat:

Geometrik transformatsiyalar: aylantirish, siljitish, kengaytirish, siqish, gorizontal yoki vertikal ag'darish, kesish va rotatsiya kabi o'zgarishlar tasvirning asosiy xususiyatlarini yo'qotmagan holda yangi namunalar yaratadi.

Rang o'zgarishlari: yorqinlik, kontrast, gamma, rang to'yinganligini o'zgartirish modelning turli yorug'lik sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi.

Shovqin qo'shish: Gaussian yoki impulsiv shovqin kiritish tasvirni buzilgan holatlarga nisbatan barqaror qiladi.

Afina transformatsiyalari: egish, deformatsiya qilish kabi chiziqli o'zgarishlar tasvirning shakliy tuzilmasini biroz o'zgartirib, yangi ma'lumotlar hosil qiladi.

Mikrosiljitish (micro-translation): tasvirning kichik siljishi modelning ob'yekt joylashuvi o'zgarishlariga moslashuvini oshiradi.

Mixup va koeffitsientli aralashtirish: ikki yoki undan ortiq tasvirni aralashtirish orqali butunlay yangi o'quv namunalarini hosil qiladi va modelning barqarorligini oshiradi.

2. Chuqur o'rganishga asoslangan sun'iy ko'paytirish yondashuvlari:

An'anaviy transformatsiyalardan tashqari, chuqur o'rganish asosidagi generativ modellar murakkab, realistik va sintetik ma'lumotlar yaratishda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda.

2.1. Generativ raqib tarmoqlar (GAN)

GAN – generator va diskriminator tarmoqlaridan iborat bo'lib, ular o'zaro raqobat asosida o'qitiladi:

Generator tasodifiy shovqinlardan sintetik ma'lumotlar yaratadi.

Diskriminator haqiqiy va sun'iy namunalarni farqlashga urinadi.

O'quv jarayonida generator real ma'lumotlarga juda yaqin bo'lgan namunalarni yaratishga o'rganadi.

GAN texnologiyasi tasvir, matn, audio va boshqa domenlarda yuqori sifatli sintetik ma'lumotlar yaratishda samarali hisoblanadi. Biroq, uni o'qitish jarayoni murakkab bo'lib, ba'zan artefaktlar yuzaga kelishi mumkin.

2.2. Neyron uslubini uzatish (Neural Style Transfer)

Bu yondashuv kontent va uslub xususiyatlarini ajratish va qayta birlashtirishga asoslanadi:

Tarmoq kontent tasviri (strukturasi) va uslub tasviri (rang, tekstura, badiiy uslub)ni alohida kodlaydi.

Keyinchalik ushbu xususiyatlar birlashtirilib, yangi tasvir hosil qilinadi.

Natijada kontenti saqlangan, ammo boshqa uslubga ega bo'lgan butunlay yangi tasvirlar yaratiladi. Ushbu texnika tasvirlar ma'lumotini sun'iy ko'paytirishda samarali vosita bo'lib, uni boshqa domenlarga ham moslashtirish mumkin.

2.3. O'rganiladigan ko'paytirish modellar (Learned Augmentation Networks)

Bu modellar qo'lda belgilanmagan, balki model o'zi o'rgangan transformatsiyalarni qo'llaydi:



Kirish ma'lumotiga tasodifiy transformatsiya kodi kiritiladi.

Tarmoq ushbu kod asosida optimal o'zgarishlarni yaratadi.

O'rgatilgan transformatsiyalar domen uchun moslashtirilgan, murakkab va chiziqli bo'lmagan bo'lishi mumkin.

Bu yondashuv yuqori samaradorlikka ega bo'lsa-da, o'quv jarayonidan oldin ko'paytirish siyosatini to'g'ri shakllantirish talab etiladi.

3. Domenlar bo'yicha ma'lumotlarni ko'paytirish misollari

3.1. Tasvirlar

Tasvirlarni tasniflash, obyektни aniqlash, segmentatsiya kabi vazifalarda keng qo'llaniladi.

Oddiy transformatsiyalar bilan bir qatorda GAN va uslub uzatish orqali butunlay yangi tasvirlar synthesize qilish mumkin. Bu modelni turli yoritilish, rakurs va okklyuziya holatlariga moslashtiradi.

3.2. Audio ma'lumotlari

Nutqni aniqlash va audio tasniflash vazifalarida quyidagilar qo'llaniladi:

fon shovqin qo'shish,

tezlik va tonallikni o'zgartirish,

ovoz balandligini oshirish yoki pasaytirish.

Bu modellarni turli aksent, talaffuz va akustik muhitlarga moslashuvchan qiladi.

Tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib, sun'iy ko'paytirish algoritmlarini amaliy qo'llash bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Ma'lumotlar turiga mos ko'paytirish metodlarini tanlash:

Tasvirlar, matnlar va audio signallar o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgani sababli, har bir ma'lumot turi uchun alohida transformatsiyalar majmuasini qo'llash samaradorlikni oshiradi. Masalan, tasvirlarda geometrik o'zgarishlar, matnda semantik yaxlitlikni buzmaydigan sinonimik almashtirishlar, audioda esa tezlik va shovqin o'zgarishlari tavsiya etiladi.

Modelning murakkabligiga mos ravishda generativ yondashuvlardan foydalanish:

GAN, VAE yoki Diffusion modellariga asoslangan sun'iy ko'paytirish metodlari murakkab vazifalar uchun yuqori sifatli sintetik ma'lumot yaratish imkonini beradi. Biroq ularning o'qitilishi murakkab bo'lgani sababli, kichik loyihalarda oddiy transformatsiyalar bilan boshlash maqsadga muvofiq.

Ko'paytirish darajasini optimal tanlash:

Ma'lumotlarni ortiqcha ko'paytirish modelning shovqinlarga haddan ziyod moslashuviga olib kelishi mumkin. Shu bois, ko'paytirish intensivligi tajribaviy tarzda aniqlanishi, ya'ni modelning aniqligi maksimal bo'ladigan balans topilishi zarur.

Domen xususiyatlarini hisobga olish:

Tibbiyot, biometrik identifikatsiya, tabiiy tilni qayta ishlash yoki sanoat diagnostikasi kabi sohalarda ma'lumotlarning semantik mazmunini buzmaydigan transformatsiyalarni tanlash muhim. Domen mutaxassislari bilan birgalikda ko'paytirish strategiyasini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Ko'paytirilgan ma'lumotlarning sifatini tekshirish:

Sintetik namunalar modelni chalg'itmasligi uchun ular vizual, statistik yoki ekspert baholash usullari yordamida tekshirilishi kerak. Ayniqsa GAN orqali yaratilgan tasvirlarda artefaktlar mavjudligini nazorat qilish muhim.

Ko'paytirishning avtomatlashtirilgan usullarini qo'llash:

AutoAugment, RandAugment yoki o'rganiladigan augmentatsiya tizimlaridan foydalanish ko'paytirish jarayonini optimallashtiradi va vazifaga mos eng yaxshi transformatsiyalar to'plamini avtomatik tanlaydi.

Model o'qitish jarayonida ko'paytirishni dinamik qo'llash:

Data augmentationni trening pipeline'iga bevosita integratsiya qilish modelni turli sharoitlarga moslashuvchan qiladi. Real vaqt rejimida transformatsiya qilinadigan ma'lumotlar ko'proq xilma-xillik yaratadi.

Xulosa

Sun'iy ko'paytirish algoritmlari ma'lumotlar yetishmovchiligi va nomutanosib taqsimot muammolarini bartaraf etishda samarali vosita bo'lib, mashinaviy o'rganish modellarining aniqligi va barqarorligini sezilarli oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'lumot turi va domen xususiyatlariga mos transformatsiyalarni tanlash, generativ modellarni ehtiyotkorlik bilan qo'llash va ko'paytirish intensivligini optimal belgilash yuqori natijaga erishishda muhim omillardir.

Shuningdek, sintetik ma'lumotlar sifatini nazorat qilish, ko'paytirish jarayonini avtomatlashtirish hamda trening jarayonida dinamik augmentatsiyani qo'llash modellarni real sharoitlarga moslashuvchan va ishonchli qiladi. Umuman olganda, data augmentationdan to'g'ri foydalanish sun'iy intellekt tizimlarining samaradorligini oshirishning eng muhim amaliy yo'llaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Jivrajani, K.; Patel, S.K.; Parmar, C.; Surve, J.; Ahmed, K.; Bui, F.M.; Al-Zahrani, F.A. AIoT-based smart stick for visually impaired person. *IEEE Trans. Instrum. Meas.* 2023, 72, 2501311.
2. Husin, M.H.; Lim, Y.K. InWalker: Smart white cane for the blind. *Disabil. Rehabil. Assist. Technol.* 2020, 15, 701–707.
3. Glenk, L.M.; Pr'ibylová, L.; Stetina, B.U.; Demirel, S.; Weissenbacher, K. Perceptions on health benefits of guide dog ownership in an Austrian population of blind people with and without a guide dog. *Animals* 2019, 9, 428.
4. Chang, W.; Chen, L.; Hsu, C.; Chen, J.; Yang, T.; Lin, C. MedGlasses: A wearable smart-glasses-based drug pill recognition system using deep learning for visually impaired chronic patients. *IEEE Access* 2020, 8, 17013–17024.



AHOLI GEOLOKATSIYA MUROJAATLARINI GEOAXBOROT XARITALARIDA VIZUALIZATSIYA QILISH MODULI VA ALGORITMI

Oybek Mallaev¹, Jamoliddin Gazatov², Jaloliddin Aliyev²

¹ Alfraganus University

o.mallayev@afu.uz

² Mahammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

jamoliddingazatov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi tomonidan yuboriladigan geolokatsiyali murojaatlarni avtomatik tahlil qilish va ularni geoaxborot xaritalarida vizualizatsiya qilishga mo'ljallangan multimodal intellektual model taklif etiladi. Model matn, rasm, video, hujjat va geolokatsiya kabi turli axborot manbalarini birgalikda qayta ishlash orqali muammo turini aniqlash, ustuvorlikni belgilash, dublikat murojaatlarni birlashtirish va muammolar to'planadigan hududlarni (hotspot) aniqlashni ta'minlaydi. Tadqiqotda Computer Vision, Natural Language Processing va geospacial tahlil algoritmlarining integratsiyasi asosida samarali qaror qabul qilish mexanizmi ishlab chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan model dispetcherlik vaqtini qisqartiradi, noto'g'ri ustuvorlik belgilash holatlarini kamaytiradi hamda hududiy infratuzilma muammolarini prognozlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: geolokatsiya, multimodal tahlil, geoxarita, murojaatlarni qayta ishlash, hotspot, DBSCAN, Computer Vision, NLP.

1. Kirish

So'nggi yillarda raqamli hukumat va "smart city" konsepsiyalarining rivojlanishi aholi murojaatlarini tezkor va aniq tahlil qilishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. An'anaviy murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonlari ko'pincha qo'lda amalga oshirilgani sababli vaqt talabi yuqori va xatolarga moyil bo'ladi. Ayniqsa, svetofor nosozligi, yo'l infratuzilmasi buzilishi, jamoat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni kechiktirib hal qilish salbiy oqibatlariga olib keladi. Shu sababli, geolokatsiya va multimodal ma'lumotlar asosida avtomatlashtirilgan tahlil modeli ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Geolokatsiyali murojaatlar va shahar infratuzilmasini monitoring qilish bo'yicha tadqiqotlar bir necha asosiy yo'nalishlarga bo'linadi:

1. **Geospacial klasterlash va hotspot tahlili.** Ester va boshqalar DBSCAN algoritmini fazoviy ma'lumotlar uchun taklif qilgan bo'lib, u shovqinli ma'lumotlarda ham zich hududlarni aniqlashda samarali hisoblanadi [1]. Keyingi ishlarida HDBSCAN algoritmi zichlik darajasi o'zgaruvchan hududlar uchun moslashtirilgan [2].

2. **Multimodal ma'lumotlarni birlashtirish.** Ngiam va boshqalar multimodal learning konsepsiyasini taklif etib, turli sensor va media ma'lumotlarini birgalikda tahlil qilish samaradorligini isbotlagan [3]. So'nggi tadqiqotlarda late fusion yondashuvi amaliy tizimlarda barqarorroq natija berishi ko'rsatilgan [4].

3. **Computer Vision asosidagi infratuzilma monitoringi.** YOLO va Mask R-CNN kabi modellar yo'l obyektlari va svetoforlarni aniqlashda yuqori aniqlik ko'rsatgan [5, 6].

4. **NLP asosidagi murojaatlarni tahlil qilish.** Transformer modellar (BERT, RoBERTa) shikoyat matnlarini tasniflash va ustuvorlikni aniqlashda klassik TF-IDF usullariga nisbatan ustun ekanligi aniqlangan [7, 8].

Mavjud ishlar alohida komponentlarni chuqur o'rganadi, biroq ularni **yagona integratsiyalashgan geo-analitik tizim** sifatida qo'llash masalasi yetarlicha yoritilmagan.

2. Materiallar va usullar

Model kiruvchi ma'lumotlar sifatida matn, rasm, video, hujjat va GPS koordinatalarni qabul qiladi. Har bir modal alohida tahlil qilinib, yakunda late fusion asosida birlashtiriladi [9, 10].

Kiruvchi ma'lumotlar sifatida matn: murojaat izohi, sarlavha, "muammo turi", qo'shimcha izoh, rasm: nosoz svetofor, yo'l belgisi, chuqur, avariya, tirbandlik, video: holat dinamikasi (chiroq o'chib-yonishi, tirbandlik), hujjat: PDF/DOCX/rasmi hujjatlar (ariza, dalolatnoma, skrinshot), geolokatsiya: lat/lon, aniqlik (accuracy), vaqt, yo'nalish, tezlik (ba'zan) larni olish mumkin.

Chiquvchi natijalar - muammo turi (klass): "svetofor nosoz", "yo'l belgisi yo'q", "chiroq rejimi buzilgan", ustuvorlik: "tezkor / o'rtacha / rejalashtirilgan", ishonchlilik: model confidence, "dalil yetarlimi?", dublikat: shu muammo avval kelganmi?, geo-analitika: issiq nuqtalar (hotspot), klasterlar, trend, prognoz: qaysi nuqtalarda kelajakda ko'p muammo chiqishi mumkin.

Rasm tahlili modellari va algoritmlarida quyidagi bo'limlar ko'rib chiqiladi:

Muammo obyektini aniqlash maqsadi - rasmda "svetofor", "yo'l belgisi", "chuqur" kabi obyektini topish va joyini belgilash. Amalga oshirish uchun YOLO oilasi (tez, real-time), Faster R-CNN (aniqroq, lekin sekinroq) va RetinaNet (muvozanat) kabi mashhur modellardan foydalaniladi. Natijada bounding box + klass + confidence amalga oshiriladi.

Segmentatsiyalash maqsadi - obyekt chegarasini aniq ajratish (masalan, chiroq paneli, lampalar). Amalga oshirish uchun U-Net (klassik, yaxshi), DeepLab (kuchli) va Mask R-CNN (instance segmentatsiya) kabi mashhur modellardan foydalaniladi. Natijada "qanchasi shikastlangan", "ko'rinish sifati", "lampaning yoniq/o'chiq qismi" kabi tahlillar yuritiladi.

Holatni baholash maqsadi - "svetofor ishlayaptimi yoki yo'q?", "linza siniqmi?" va "korpus egilganmi?" kabi holatlarni aniqlashdir. Buni amalga oshirish uchun CNN/ViT (Vision Transformer) klassifikatori va Qo'shimcha qoidaviy tekshiruv (masalan, "qizil/yashil ranglar mavjudmi?") modellaridan foydalanish mumkin.

Sifat nazorati maqsadi - tasvirlar juda xira, qorong'i, loyqa bo'lsa "qayta tushiring" deyishdir. Buning uchun Blur detection (Laplacian variance), Exposure/brightness check va Resolution/min size threshold modellaridan foydalaniladi.

Video tahlili modellari va algoritmlarida quyidagi bo'limlar ko'rib chiqiladi:

Kadrlar tanlash maqsadi - har videoni to'liq ishlamasdan, muhim kadrlarni tanlash. Buning uchun Uniform sampling (har N-kadr), Shot boundary detection va Motion-based sampling kabi modllardan foydalaniladi.

Tracking - obyektini kuzatish maqsadi - svetofor obyektini har kadrda barqaror kuzatishdir. Buning uchun SORT / DeepSORT va ByteTrack modellardan foydalaniladi. "Action/Event recognition" ning maqsadi - "chiroq umuman o'chgan", "miltillash", "rejim noto'g'ri almashmoqda" kabi holatlarni aniqlashdir. Buni amalga oshirish uchun 3D CNN (I3D, C3D), Temporal models (TSM, SlowFast) va oddiyroq - kadrlar bo'yicha signal tahlili (rang/yoniq-o'chiq ketma-ketligi) kabi modellardan foydalaniladi.

Hujjat (PDF/DOCX) va matn tahlili (NLP) da quyidagi bo'limlar ko'rib chiqiladi:



Matni ajratib olish. Bunda Agar DOCX bo'lsa: struktura (sarlavha, bandlar). PDF bo'lsa: matn + jadval + metama'lumot hamda skan/rasm bo'lsa: OCR (faqat kerak bo'lsa) huhhat turlaridan foydalaniladi. Bu yerda NLP vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Tasniflash: murojaat turi (yo'l, kommunal, xavfsizlik...).
2. NER: manzil, ko'cha, obyekt nomi, vaqt, tashkilot nomi.
3. Sentiment/urgency: shikoyat keskinligi, xavf darajasi.
4. Summarization: qisqa "dispatcher summary".
5. Duplicate detection: semantik o'xshashlik.

NLP modeling klassik TF-IDF + SVM / Logistic Regression va kuchli - transformer (BERT/RoBERTa) yoki o'zbek/rus/ingliz tili uchun mos modellaridan biri qo'llanilishi mumkin. Ustuvorlik (priority) skoring jihatidan quyidagi amaliy formulalar asosida hisoblanadi:

- Risk (hayot/transport xavfsizligi).
- Location criticality (katta chorraha, maktab/bozor yaqinligi).
- Evidence strength (video/rasm borligi, geolokatsiya aniqligi).
- Recency (qachon kelgan).
- Repetition (takrorlanish).

Geolokatsiya va geo-analitika algoritmlarida quyidagi bo'limlar ko'rib chiqiladi:

Geokodlash va map-matchingda manzil matndan bo'lsa geokodlash (koordinataga o'tkazish) hamda GPS shovqin bo'lsa map-matching (yo'l grafiga "yopishtirish") amalga oshiriladi. Klasterlash (Hotspot) dan maqsad: muammolar ko'p to'planadigan joylarni topishdir. Buning uchun DBSCAN / HDBSCAN (geo uchun zo'r) va K-means (oddiy, lekin radiusga sezgir) modellaridan foydalaniladi. "Heatmap" va hududiy statistikada Grid-based agregatsiya (masalan 200m x 200m) va Administrative boundary bo'yicha (mahalla/tuman) yondoshuvlar amalga oshiriladi. Prognoz (bashorat) dan maqsad: qaysi joylarda kelgusi oy/chorakda murojaat ko'payishini aniqlashdan iborat. Buni aniqlash uchun "Time series: ARIMA/Prophet", "ML: XGBoost/LightGBM (xususiyatlar: oy, ob-havo, bayram, transport oqimi, tarixiy count)" va "Spatio-temporal: Graph-based yondashuvlar (yo'l tarmog'i grafi)" qo'llaniladi.

Multimodal birlashtirish (Fusion) - eng muhim qism hisoblanadi. Bunda bir murojaatda matn + rasm + geo bo'lishi mumkin. Ularni qo'shish 3 xil yo'l bilan qilinadi:

1. Early fusion: hamma feature'larni boshida birlashtirib bitta modelga berish.
2. Late fusion: har modal alohida baholanadi, oxirida "vote/weighted sum".
3. Hybrid: masalan, rasm detektori natijasini matn modeliga qo'shimcha signal sifatida berish.

Dublikatni topish. Bunda murojaatlar ko'p joyda takror kelganligi uchun ularni takrorlanganligini quyidagi yondoshuvlar asosida aniqlanadi:

- Matn similarity: embeddings (sentence-transformer) + cosine similarity.
- Geo yaqinlik: masofa (Haversine) + vaqt oynasi (masalan 7 kun).
- Media similarity: perceptual hash (pHash) / embedding.

Qoidaviy misol: 200 metr ichida, 48 soat ichida, matn o'xshashligi $> 0.85 \rightarrow$ dublikat.

Yuqorida sanab o'tilgan **multimodal intellektual modelning** geolokatsiya murojaatlari asosida geoxaritalarini tashkil qilish va undagi muammolarga yechimlarni ko'rib chiqamiz.

Geolokatsiyali murojaatlar to'plamidan quyidagilarni aniqlash mumkin:

1. tozalangan va standartlashtirilgan geo-nuqtalar (aniq joy).

2. dublikatlarni birlashtirish.
3. hotspot (muammo ko'p joylar) klasterlari.
4. ustuvorlik (priority) balli.
5. hududiy statistika (tuman/mahalla/yo'l uchastkasi).
6. Ixtiyoriy prognoz (qayerda ko'payadi).

Kirish ma'lumotlar (har murojaat uchun) sifatida id, t (vaqt), lat, lon, acc (GPS aniqligi, metr), type (muammo turi), text/media_score (dalil kuchi), severity_hint (matndan xavf signali) hamda (ixtiyoriy) address, road_id, direction, speed qabul qilinadi. Chiqish ma'lumotlari sifatida esa clean_point, cluster_id, duplicate_group_id, priority_score, admin_area_id, hotspot_rank olinadi.

Geolokatsiya asosida ikki nuqta orasidagi masofa Haversine formulasi orqali aniqlanadi:

$$d(p_i, p_j) = 2R \arcsin \left(\sqrt{\sin^2 \frac{\Delta\varphi}{2} + \cos\varphi_i \cos\varphi_j \sin^2 \frac{\Delta\lambda}{2}} \right) \quad (1)$$

bu yerda: $R \approx 6371 \text{ km}$, φ — kenglik (rad), λ — uzunlik (rad).

GPS aniqligi va og'irlik (weight) - agar GPS aniqligi acc bo'lsa, murojaat ishonchliligi og'irligini:

$$w_i = \exp \left(-\frac{acc_i}{\tau} \right) \quad (2)$$

(τ — sozlanadigan parametr, masalan 30-50 m). acc katta bo'lsa, og'irlik pasayadi.

Nuqtani "haqiqiy joy"ga yaqinlashtirishda og'irlikli markaz (centroid) inobatga olinadi.

Bir dublikat guruhidagi nuqtalar P_k uchun:

$$\hat{p} = \frac{\sum_k w_k P_k}{\sum_k w_k} \quad (3)$$

Bu bitta koordinata qilishda ishlaydi. Dublikat mezoni (spatio-temporal) da ikki murojaat dublikat bo'lishi sharti quyidagicha hisoblanadi:

$$d(p_i, p_j) \leq \varepsilon_d \wedge |t_i - t_j| \leq \varepsilon_t \wedge type_i = type_j \quad (4)$$

Misol: $\varepsilon_d = 100 \text{ m}$, $\varepsilon_t = 48 \text{ soat}$. DBSCAN (geo-klasterlash) parametrlari: radius ε va min Pts.

Nuqta "core" bo'lishi quyidagicha hisoblanadi:

$$\left| \{p_j : d(p_i, p_j) \leq \varepsilon\} \right| \geq \min Pts \quad (5)$$

Natijada hotspot klasterlari + shovqin (noise) nuqtalar paydo bo'ladi. Issiqlik xaritasi (grid aggregatsiya) - hududni kataklarga bo'lib, har katak uchun quyidagicha hisoblanadi:

$$C(g) = \sum_{i \in g} w_i \quad (6)$$

Bu "heatmap intensity" ni beradi (oddiy va tez).

Ustuvorlik (Priority score)da amaliy, tushunarli skoring amalga oshiriladi:

$$S_i = aR_i + \beta H_i + \gamma E_i + \delta T_i + \eta D_i \quad (7)$$



Bu yerda, R_i - xavf (risk)- muammo turi va matndan (0..1), H_i - joyning kritikligi (chorraha, maktab, bozor yaqin) (0..1), E_i - dalil kuchi (video/rasm + aniqlik) (0..1), T_i - yangilik (recency) (0..1), D_i - takrorlanish/klaster zichligi (0..1), Recency quyida formula asosida hisoblanadi:

$$T_i = \exp\left(-\frac{now-t_i}{\kappa}\right) \quad (8)$$

$$E_i = 0.5 \cdot 1_{media} + 0.5 \cdot \left(1 - \min\left(1, \frac{acc_i}{100}\right)\right) \quad (9)$$

3. Natijalar

1-jadval. Tadqiqotda foydalanilgan murojaatlar to'plami.

Ko'rsatkich	Qiymat
Umumiy murojaatlar soni	12 450
Geolokatsiyali murojaatlar	11 230 (90.2%)
Rasm biriktirilgan	7 980 (64.1%)
Video biriktirilgan	2 140 (17.2%)
Faqat matn	2 330 (18.7%)
Svetofor bilan bog'liq	3 420
Yo'l infratuzilmasi	4 870
Kommunal muammolar	4 160

1-jadvalda ko'rinib turibdiki, murojaatlarning katta qismi vizual dalil (rasm/video) bilan yuborilgan, bu esa multimodal tahlilni maqsadga muvofiq ekanini tasdiqlaydi. Dublikatlarni aniqlash samaradorligi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Dublikat detektsiyasi natijalari

Usul	Precision	Recall	F1-score
Faqat matn (TF-IDF)	0.71	0.65	0.68
Matn + Geo (rule-based)	0.82	0.79	0.80
Multimodal (Text+Geo+Media)	0.89	0.86	0.87

2-jadval natijasi shuni anglash mumkinki, multimodal yondashuv dublikatlarni aniqlashda **19% gacha yaxshilanishni** berdi. Hotspot klasterlash natijalari 4 ta parameter asosida 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Klasterlash algoritmlarini solishtirish

Algoritm	Parametrlar	Aniqlangan klasterlar	Shovqin (noise)	Izoh
----------	-------------	-----------------------	-----------------	------

K-means	k=10	10	0	Radiusga sezgir
DBSCAN	$\epsilon=200m$, MinPts=5	14	18%	Zichlikka mos
HDBSCAN	min_cluster_size= N	16	22%	Eng moslashuvchan

3-jadvaldan qiymatlaridan DBSCAN va HDBSCAN real shahar muammolari uchun K-meansdan ancha ustun ekanligi ko'rish mumkin.

Ustuvorlik (Priority) baholash 3 ta parameter bilan amalga oshirildi. 4-jadvalda natijalari keltirilgan.

4-jadval. Ustuvorlik balli taqsimoti

Toifa	Ball oralig'i	Murojaatlar ulushi
Tezkor	70–100	28%
O'rtacha	40–69	46%
Rejalashtirilgan	0–39	26%

Ustuvorlik formulasi quyida formula bilan hisoblanadi:

$$S_i = 0.35R_i + 0.25L_i + 0.2E_i + 0.1D_i + 0.1T_i \quad (10)$$

bu yerda: R_i - xavf darajasi, L_i - joy muhimligi, E_i - dalil kuchi, D_i - dublikatlar soni, T_i - vaqt faktori. Dispetcherlik samaradorligi qiymatlari 3 ta parameter orqali 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval. Tizim joriy etilishidan oldin va keyin

Ko'rsatkich	Avval	Model bilan
O'rtacha ko'rib chiqish vaqti	18.5 soat	12.9 soat
Noto'g'ri "tezkor" belgilash	22%	9%
SLA buzilishi	17%	7%

5-jadval natijasidan shuni ko'rish mumkinki, Dispetcherlik vaqti **~30% ga qisqardi**. Natijalar jadvallari shuni ko'rsatadiki, multimodal tahlil **nafaqat aniqlikni**, balki **amaliy qaror tezligini** ham oshiradi. Geo-klasterlash natijalari shahar infratuzilmasini **rejalashtirish va prognozlash** uchun qulay. Ustuvorlik modeli inson omiliga bog'liq xatolarni sezilarli kamaytiradi.

4. Muhokama

Natijalar shuni ko'rsatadiki, multimodal yondashuv alohida modelga asoslangan tizimlarga qaraganda ishonchliroq. Ayniqsa, rasm va geolokatsiya birgalikda ishlatilganda noto'g'ri tasniflash holatlari kamaydi. Modelni real shahar boshqaruvi tizimlariga integratsiya qilish mumkin.

5. Xulosalar

Maqolada aholi geolokatsiyali murojaatlarini tahlil qilish uchun kompleks multimodal modeli ishlab chiqildi. Ushbu model dublikatlarni kamaytirish, muammolarni tezkor aniqlash va hududiy rejalashtirishni optimallashtirish imkonini beradi. Kelgusida modelga real vaqtli sensor



ma'lumotlarini qo'shish rejalashtirilgan. Taklif etilgan model sinov ma'lumotlarida Dublikat murojaatlarni aniqlash aniqligi: $F1 = 0.87$. Hotspot aniqlashda DBSCAN usuli K-meansga nisbatan 15–20% yuqori aniqlik berdi. Ustuvorlikni avtomatik belgilash dispetcherlik vaqtini 30% ga qisqartirdi.

Manfaatlar to'qnashuvi: Mualliflar manfaatlar to'qnashuvi yo'qligini e'lon qiladi.

Adabiyotlar

1. Ester, M. et al. *A Density-Based Algorithm for Discovering Clusters in Large Spatial Databases with Noise*. KDD, 1996.
2. Campello, R. et al. *Hierarchical Density Estimates for Data Clustering*. Data Mining and Knowledge Discovery, 2013.
3. Ngiam, J. et al. *Multimodal Deep Learning*. ICML, 2011.
4. Baltrusaitis, T. et al. *Multimodal Machine Learning: A Survey*. IEEE TPAMI, 2019.
5. Redmon, J. et al. *You Only Look Once: Unified, Real-Time Object Detection*. CVPR, 2016.
6. He, K. et al. *Mask R-CNN*. ICCV, 2017.
7. Devlin, J. et al. *BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding*. NAACL, 2019.
8. Zaynitdinov Kh.N., Koroboev Zh.F., Artikova M.A., S.S. Sadullaev "Problems Electronic Government System in Uzbekistan". "Intellect-ifo" Scientific-Practical Journal, Tashkent, 2013, No. 3-4, pp. 13-19.
9. Mallaev O., Gazatov J., Aliyev J. *Algorithm for forming a geo-map of citizen appeals using artificial intelligence*. E3S Web of Conferences 627, 04018 (2025) GEOTECH-2025. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202562704018>
10. Mallaev O., Azimov B., Muslimjon K., Kamola A. *Algorithm for Digital Processing of Seismic Signals in Distributed Systems*. Lecture Notes in Computer Science (including subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics) 13741 LNCS, pp. 586-593.

E'LON QILINGAN MA'LUMOTLARNING STILISTIK VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI ASOSIDA INTERNET FOYDALANUVCHILARINI TANIB OLISH METODLARI

Xudayberganova Nargiza

Urganch Davlat universiteti Axborot xavfsizligi yo'nalishi magistranti
littlemadam1337@gmail.com

Yo'ldasheva Bibihojar

Urganch Davlat universiteti Axborot xavfsizligi yo'nalishi magistranti
yoldashevabibihohar@gmail.com

Xudayberganov Temur

Urganch davlat universiteti, Axborot xavfsizligi kafedrası mudiri
doctordrebek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet foydalanuvchilari tomonidan yaratilgan matnlarning stilistik va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — matnlardagi til birliklari orqali foydalanuvchilarning kommunikativ xatti-harakatlari va demografik ko'rsatkichlarini aniqlash imkoniyatlarini o'rganishdir. Tahlil natijalari matnlarda qisqa yozuvlar, emoji, slang, qisqartmalar va hashtaglar kabi elementlarning faol qo'llanilishini, shuningdek, yosh, platforma va ijtimoiy guruhga qarab stilistik farqlanishlar mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, onlayn kommunikatsiya muhitida yangi lingvistik shakllar, innovatsion ifoda vositalari va stilistik moslashuv jarayonlari ham chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot stilometrik profiling, tilshunoslik, kommunikatsiya tahlili va internet madaniyati doirasidagi amaliy va nazariy ishlanmalarga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: Internet matnlari, stilistik profiling, lingvistik xususiyatlar, onlayn kommunikatsiya, foydalanuvchi stili.

Kirish. So'nggi yillarda internet platformalari — ayniqsa ijtimoiy media, bloglar, forumlar — shaxsiy fikr almashinuvi, axborot tarqatish va virtual muloqot uchun asosiy vositaga aylangan. Bu platformalarda yaratilayotgan matnli kontent hajmi mislsiz darajada oshib bormoqda. Shu bilan birga, bu matnlar — foydalanuvchining til uslubi, ijtimoiy pozitsiyasi, demografik ko'rsatkichi va hatto psixologik holati haqida qimmatli signallarni o'zida mujassam etadi [1]. Shu sababli, internet foydalanuvchilarining shaxsiy xususiyatlarini (yoshi, jinsi, mintaqasi, kasbi, ruhiy turi) ularning yozgan matnlari asosida aniqlash — bugungi zamon informatika, sotsiologiya, tilshunoslik va xavfsizlik tadqiqotlarining muhim yo'nalishiga aylangan. Bu tadqiqotlar guruhi ilmiy adabiyotda Author Profiling, Stylometry, yoki Linguistic Profiling nomlari bilan tanilgan [2,3]. Bu sohadagi dastlabki yondashuvlar, xususan "Stylometric Analysis of Bloggers' Age and Gender" (2009) [4] ishida ko'rsatilganidek, blog postlar asosida muallifning jins va yoshini aniqlashga qaratilgan. Shundan buyon tadqiqot metodlari sezilarli darajada rivojlanib, an'anaviy n-gram asosidagi statistik yondashuvlardan tortib, word embeddings, transformer arxitekturalari va ko'p tilli neyron modellargacha kengaygan. Masalan, "Author profiling for age and gender using combinations of features of various types" (2019) [5] tadqiqotida sintaktik va morfologik belgilarni birlashtirish orqali profiling natijalari sezilarli yaxshilangan. Yana bir muhim loyiha, "TWISTY: a Multilingual Twitter



Stylometry Corpus" [6], turli tillardagi foydalanuvchilar stilini taqqoslash imkonini beruvchi korpus yaratish orqali profiling metodlariga ko'p tillilik (multilingualism) elementini olib kirgan. "Survey on profiling age and gender of text authors" (2022) [7] maqolasi bu yo'nalishda eng keng ko'lamli ko'rib chiqish maqolalaridan biri bo'lib, mualliflar hozirgacha foydalanilgan lingvistik xususiyatlar, mashinaviy o'rganish algoritmlari va datasetlar bo'yicha chuqur tahlil bergan. Unda aytilishicha, lingvistik profiling, ayniqsa, stilistik iz (linguistic fingerprint), gap uzunligi, punktuatsiya, emoji'lar, va sentimentli so'zlar kabi belgilar asosida yuqori aniqlik bilan amalga oshirilishi mumkin. So'nggi yillarda profiling nafaqat demografik, balki xulq-atvor (behavioral) yoki hujumkorlik xatti-harakatlarini aniqlashga ham kengaymoqda. Misol uchun, "Profiling Hate Speech Spreaders on Twitter using stylistic features and word embeddings" (2021) [8] maqolasida nafratli nutq tarqatuvchilarni matn stilistikasi va embeddinglar asosida avtomatik aniqlash usullari bayon etilgan. Bu esa profilingni xavfsizlik va sotsial forensika sohalarida qo'llashni boshlab berdi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat ma'lumotdan, balki metodologik yondashuvdan ham farqlanadi. "Author Profiling in Social Media with Multimodal Information" (2020) [9] maqolasi matnga qo'shimcha ravishda rasm, hashtaglar va foydalanuvchi metama'lumotlarini birlashtirgan holatda profiling qilishning yangi usullarini taklif etadi. Shu bilan birga, "Cross-linguistic authorship attribution and gender profiling" (2024) [10] maqolasi profilingning turli tillarda qanday amalga oshirilishini o'rganadi. Bu esa muallif profilingi uchun universallik va tilga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. So'nggi trend esa — deep learning asosidagi profiling. Masalan, "PART: Pre-trained Authorship Representation Transformer" (2022) [11] maqolasi transformer modellarining stilistik profilingda qo'llanilishi, ya'ni matnni shaxsiy "stil embedding" ga aylantirib, foydalanuvchini tanib olishdagi roli haqida so'z yuritadi. Bundan tashqari, "Authorship Attribution in the Era of LLMs" (2025) [12] tadqiqotida ChatGPT, BERT, RoBERTa kabi yirik til modellari profilingdagi afzallik va xavflarini baholagan. Shu tariqa, matn stilistikasi asosida internet foydalanuvchilarini aniqlash — matematik, lingvistik va algoritmik jihatlardan murakkab, lekin nihoyatda foydali ilmiy va amaliy yo'nalishdir. Bu sohada asosiy muammo esa xususiyatlarni to'g'ri tanlash, metodlarni muvofiqlashtirish (klassik va chuqur o'rganish yondashuvlari o'rtasida), va profiling algoritmlarining adolat, xolislik, hamda maxfiylik me'yorlariga mosligini ta'minlashdir.

Adabiyotlar tahlili. Internet foydalanuvchilari tomonidan yozilgan matnlar orqali ularning shaxsiy, demografik yoki psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar so'nggi yillarda jadal rivojlandi. Bunday yondashuvlar "muallif profilingi" (author profiling) deb ataladi va asosan **stilometrik** (stilistik) va **lingvistik** xususiyatlarni tahlil qilishga asoslanadi [1,2]. Ilk tadqiqotlar odatda blog postlari yoki rasmiy matnlar asosida amalga oshirilgan. Masalan, **Schler va boshqalar (2006)** tomonidan olib borilgan ishlarda blog matnlaridan foydalangan holda **muallifning yoshi va jinsini** bashorat qilishga erishilgan [3]. Bu tadqiqotda **so'z uzunligi, funksional so'zlar, va gap tuzilishi** kabi klassik stilistik xususiyatlar qo'llanilgan. Profiling bo'yicha eng muhim ko'rib chiqish maqolalaridan biri — **Stamatatos va boshqalar (2022)** tomonidan yozilgan **"Profiling age and gender of text authors"** nomli maqoladir [4]. Unda 90 dan ortiq tadqiqotlar tahlil qilinib, eng samarali lingvistik xususiyatlar, mashinaviy o'rganish algoritmlari va profiling natijalarini baholash mezonlari umumlashtirilgan.

Ijtimoiy tarmoq matnlari bilan ishlashda stilometrik yondashuvlar yanada murakkablashadi. Chunki bu matnlar qisqa, norasmiy va ba'zida kod-aralash (code-mixed) ko'rinishda bo'ladi. **Sittar va Ameer (2025)** tomonidan yozilgan **"Stylometric Author Profiling for Social Media"**

maqolasida bu holat alohida ta'kidlanib, stilistik xususiyatlar uch guruhga ajratiladi: **leksik (masalan, n-gramlar), sintaktik (masalan, gap tuzilishi) va stilistik (masalan, emojilar, katta harflar, punktuatsiya)** [5].

Tadqiqotlarning amaliy qismi bo'yicha **Markov va boshqalar (2019)** tomonidan olib borilgan profiling tajribasida turli tipdagi belgilar — **morfologik, statistik va POS-tag** belgilar birgalikda ishlatilgan va **ansambl (ensemble) modellar** orqali jins va yoshni aniqlash aniqligi oshirilgan [6]. Bu yondashuvlar tilga moslashtirilgan stilometrik modellarning barqarorligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, **Rangel va Rosso (2017)** tomonidan taklif etilgan profiling modeli **foydalanuvchilarning lahjasi (language variety)** ni ham tahlil qiladi [7]. Ular Twitter matnlaridagi til o'zgaruvchanligi orqali muallifning jinsidan tashqari, mintaqaviy fonini ham aniqlash mumkinligini isbotlagan. Profilingning ko'p tillilik (multilingual) masalasi esa hozirgi kunda alohida tadqiqot yo'nalishiga aylangan. **TWISTY** nomli korpus — **Verhoeven va Daelemans (2014)** tomonidan yaratilgan [8] — ko'p tilli Twitter postlari asosida profiling modellarini o'rgatish va sinash imkonini beradi. Bu korpusdagi matnlar tilga bog'liq bo'lmagan stilistik xususiyatlar bilan tahlil qilinadi. Ko'p tilli profiling bo'yicha yana bir muhim ish — **Kestemont va boshqalar (2024)** tomonidan e'lon qilingan "**Cross-linguistic authorship attribution and gender profiling**" maqolasidir [9]. Unda mualliflar shuni isbotlaydilar: **stilistik xususiyatlar semantik xususiyatlarga qaraganda tilga kamroq bog'liq**, shuning uchun stilometrik profiling tarjima qilingan matnlarda ham samarali ishlaydi. Profiling sohasida so'nggi yillarda chuqur o'rganish (deep learning) yondashuvlari faol qo'llanila boshladi. Masalan, **Malmasi va Zampieri (2022)** tomonidan ishlab chiqilgan **PART (Pre-trained Authorship Representation Transformer)** modeli transformer arxitekturasiga asoslanadi va matndan **stilistik embeddinglar** yaratadi [10]. Bu yondashuv an'anaviy n-gram modellarga qaraganda ancha yuqori aniqlik ko'rsatgan. Bundan tashqari, **Zhang va boshqalar (2025)** tomonidan olib borilgan tadqiqotda yirik til modellari (LLM), xususan **GPT, BERT, RoBERTa** kabi modellar muallif profilingida qanday ishlatilishini tahlil qilinadi [11]. Ular bu modellarning imkoniyatlari bilan birga, **etik xavflari** haqida ham fikr yuritishadi. Profiling faqat demografik emas, balki **xatti-harakatga asoslangan profiling** sohasida ham qo'llanilmoqda. **Anzovino va boshqalar (2021)** tomonidan e'lon qilingan maqolada Twitter'dagi **nafratli nutq tarqatuvchilarning** stilistik xususiyatlari tahlil qilingan [12]. Ular aggressiv foydalanuvchilar o'ziga xos stil va til izlariga ega ekanligini ko'rsatgan. Profilingga multimodal yondashuv ham taklif etilmoqda. **Litvinova va boshqalar (2020)** tadqiqotida matndan tashqari — **rasm, bio, profil nomi** kabi qo'shimcha metama'lumotlar ham modelga kiritilgan [13]. Bunday **multimodal profiling** aniqlikni sezilarli oshirishini isbotlagan.

Metodologiya. Tadqiqotda ishlatilgan materiallar turli internet platformalaridan olingan foydalanuvchi matnlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlar (Twitter, Facebook, Instagram), forumlar, bloglar, chat ilovalari (Telegram, WhatsApp) va onlayn sharhlar (YouTube izohlar, e-kommerse reytinglari) ham tahlilga kiritildi. Ushbu platformalarda yozilgan matnlar turli yosh, jins, ijtimoiy qatlam, madaniy muhit va mintaqalarga mansub foydalanuvchilarga tegishli bo'lib, stilistik va lingvistik xususiyatlarning rang-barang ifodalanishini ta'minlaydi.

Matnlar faqat ochiq manbalardan, ya'ni foydalanuvchi roziligi talab qilinmaydigan ommaviy sahifalardan yig'ib olindi. Bu jarayonda anonimlik va maxfiylik tamoyillari to'liq saqlangan, shaxsiy identifikatsiyalovchi ma'lumotlar (ism, profil havolasi, telefon raqami va boshqalar) tahlildan chiqarib tashlandi.



Matnlarni tayyorlash va korpus yaratishda tahlil uchun yig'ilgan matnlar oldindan maxsus tozalash va strukturaviy tayyorlov bosqichidan o'tkazildi. Bunda ortib qolgan HTML teglar, emoji kodlari, reklamaviy iboralar olib tashlandi, matndagi imlo xatolari va noto'g'ri yozuvlar SymSpell algoritmi yordamida avtomatik tuzatildi, so'zlar lemmatizatsiya qilindi (spaCy Uzbek model yordamida), har bir foydalanuvchiga tegishli postlar bitta to'plam (profil) ko'rinishida guruhlab saqlandi. Umumiy korpus hajmi 7000+ individual postlar, 150+ foydalanuvchi profili, har bir foydalanuvchidan o'rtacha 30–100 post.

Tadqiqotda sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tahlil usullari birgalikda qo'llanildi. Miqdoriy tahlilda matnlardagi stilistik elementlar chastotasi, qisqa yozuvlar, slang, emoji, qisqartmalar, hashtaglar, leksik boylik (TTR), so'z chastotasi, gap uzunligi kabi statistik o'lchovlar, platformalar, foydalanuvchi yoshi, va ijtimoiy guruhlar bo'yicha o'zgaruvchanlik tahlillari o'rganildi. Bundan tashqari Stilistik xususiyatlar (ifoda vositalari, uslubiy qurilmalar, ritorik savollar, emotsional ton), lingvistik innovatsiyalar (so'z o'yinlari, ijtimoiy memlar, kod-aralash tillar), semantik va kontekstual tahlil (mavzular, kommunikativ niyatlar, o'quvchiga murojaat shakllari) o'rganildi.

Quyida foydalanuvchi matnlarida o'lchangan asosiy stilistik xususiyatlar va ularning platformalar bo'yicha taqsimoti keltirilgan. Instagram va Twitter'da qisqa va emotsional postlar ustunlik qiladi. Bloglar esa rasmiyroq va tahliliyroq yozuvlar bilan ajralib turadi.

Platforma	Qisqa yozuvlar (%)	Slang (%)	Emoji (%)	Qisqartmalar (%)	Hashtaglar (%)
Facebook	38	25	18	8	12
Twitter	45	32	20	10	25
Instagram	50	35	28	12	30
Bloglar & Forumlar	20	15	10	5	5

1-jadval. Internet platformalari bo'yicha stilistik elementlar taqsimoti

Yosh foydalanuvchilar (13–25) o'z fikrini tez, qisqa va stilistik jihatdan boy ifodalashga moyil, keksa foydalanuvchilar esa grammatik me'yorga tayanadi.

Yosh guruhi	Qisqa yozuvlar (%)	Slang (%)	Emoji (%)	Qisqartmalar (%)
13–18	55	38	22	12
19–25	48	34	18	10
26–35	35	22	12	8
36+	25	15	8	5

2-jadval. Yosh guruhlari bo'yicha stilistik farqlanishlar

Tahlil quyidagi texnologik platformalarda amalga oshirildi:

Funksiya	Vosita / Dastur
Matn yig'ish	Python, API, BeautifulSoup
Tozalash va lemmatizatsiya	spaCy, NLTK, SymSpell
Statistika	pandas, matplotlib, seaborn
Semantik tahlil	TextBlob, VADER, LIWC
Vizualizatsiya	Seaborn, Plotly

Ushbu tadqiqotda “Stylometric Feature Fusion” nomli yangi kombinatsiyalashgan yondashuv taklif qilindi. Bu yondashuvda leksik, stilistik, sintaktik va semantik belgilar bir vaqtning o‘zida tahlil qilinadi va foydalanuvchi profilingi uchun o‘zaro bog‘langan signallarni yuzaga chiqaradi.

Tadqiqot muhokamasi. Tadqiqot natijalari internet foydalanuvchilari tomonidan yaratilgan matnlarning stilistik va lingvistik xususiyatlari ijtimoiy platforma, foydalanuvchining yoshi va kommunikativ konteksti bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Analiz jarayonida aniqlanishicha, qisqa yozuvlar, slang, emoji, qisqartmalar va hashtaglar eng ko‘p uchraydigan stilistik elementlar hisoblanadi. Ushbu elementlar nafaqat matnning shakliy ko‘rinishini, balki uning emotsional konnotatsiyasi, kommunikativ ohangi va maqsadli auditoriya bilan aloqasini belgilovchi muhim vositalardir. Ijtimoiy platformalarning tabiati stilistik farqlanishlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Instagram va Twitter platformalarida foydalanuvchilar, odatda, qisqa, tez o‘qiladigan, emotsional va vizual jihatdan boy yozuvlardan foydalanadilar. Bu yerda emoji, hashtag, qisqartma va dialogik ifodalar faol ishlatiladi. Bloglar va forumlar esa aksincha, uzoq, analitik va rasmiyroq matnlar bilan ajralib turadi, bu esa yozuvning informativlik darajasini oshiradi, lekin interaktivlikni pasaytiradi. Yosh omili va stilistik o‘zgaruvchanlik. Yosh guruhlari o‘rtasida ham stilistik foydalanishning aniq farqlari kuzatildi. 13–25 yoshdagi foydalanuvchilar qisqa matnlar, emojilar, slang va abbreviaturalardan faol foydalanib, internet tilining kreativ va dinamik jihatlariga ko‘proq tayanadi. Bu yoshlar guruhida til tez o‘zgaruvchan, innovatsion, ko‘pincha normativ qoidalardan chekinishga moyildir. Aksincha, 26+ yoshdagi foydalanuvchilar orasida matnlar uzunroq, grammatik jihatdan to‘liq, normativ yozma tilga mos yozilganligi kuzatildi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, internet tili yoshga qarab adaptiv tarzda rivojlanadi, ya’ni foydalanuvchi yoshi oshgani sayin u stilistik jihatdan ko‘proq an’anaviy yozma til elementlariga tayanadi, bu esa kommunikatsiyaning rasmiylashishiga olib keladi. Lingvistik innovatsiyalar va foydalanuvchi yaratuvchiligi. Tadqiqot davomida matnlarda yangi so‘zlar, so‘z o‘yinlari, vizual va multimodal ifoda vositalari, memlar, va kod-aralash tillar (masalan, o‘zbek-ingliz yoki rus-ingliz aralash gaplar) kabi lingvistik innovatsiyalar keng qo‘llanilishi aniqlandi. Bu internet kommunikatsiyasi tilini an’anaviy yozma til normalaridan ajratib turadigan asosiy farqlardan biridir. Shuningdek, emoji va hashtaglar kabi vositalarning kommunikatsion samaradorlikni oshirishdagi roli juda muhimdir. Emoji’lar matn ohangini belgilash, hissiy fonni yaratish, hamdardlik, kinoya yoki kulgi kabi emotsional ma’nolarni tez ifodalashda yordam beradi. Hashtaglar esa kontekstni belgilash, mavzu doirasini aniqlash va matnni topish imkonini beradi. Platformalararo stilistik farqlanishlar. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, platformaga qarab foydalanuvchilar o‘z uslubini o‘zgartiradi — bu holat stilistik moslashuvchanlik (stylistic adaptation) deb ataladi.

Masalan:

- Twitter — qisqa, tezkor, sarkazm va slang ko‘p uchraydi;
- Instagram — emojilar, hashtaglar va qisqa yozuvlar ustun;
- Facebook — ko‘proq shaxsiy va hissiy postlar, qisqartmalar mo‘‘tadil;
- Forum va bloglar — tushuntiruvchi, hujjatli, fikrga asoslangan matnlar.

Bu esa shuni bildiradiki, internet foydalanuvchisi bir nechta stilistik rejimda harakatlana oladi va u platformaga moslab o‘z tilini va ifoda uslubini o‘zgartiradi. Bunday hodisa stilometrik profiling jarayonida muhim signal hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internet matnlari faqatgina axborot yetkazuvchi vosita emas, balki tilning o‘zgarish maydoni, stilistik tajriba poligoni



va foydalanuvchi yaratuvchiligining namoyon bo‘lish joyi hamdir. Bundan kelib chiqib, quyidagi muhim xulosalar olinadi. Onlayn matnlar orqali foydalanuvchilarning yosh, jins, ijtimoiy holat, madaniy fon kabi omillarini aniqlash mumkin bo‘lgan stilistik izlar mavjud. Til innovatsiyalari asosan yosh foydalanuvchilar tomonidan yaratiladi va ommaviylashadi. Emoji, slang, hashtag kabi elementlar klassik lingvistik kategoriya doirasidan tashqarida bo‘lsa-da, matn emotsionalligini va interaktivligini oshiradi. Foydalanuvchi shaxsiy stili, platforma xususiyati va ijtimoiy-madaniy kontekstga qarab moslashadi — bu esa stilistik profiling jarayonida hisobga olinishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot internet foydalanuvchilari tomonidan yaratilgan matnlarning stilistik va lingvistik xususiyatlarini tizimli tahlil qilish orqali onlayn kommunikatsiyaning tilga ko‘rsatadigan sezilarli ta‘sirini ochib berdi. Tadqiqot davomida turli internet platformalaridan olingan foydalanuvchi yozuvlari asosida matnlardagi qisqa yozuvlar, slang, qisqartmalar, emoji va hashtaglar kabi stilistik belgilar keng qo‘llanilayotgani aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, foydalanuvchilarning yoshi, ijtimoiy guruhga mansubligi va foydalanayotgan platformasi ularning ifoda uslubiga bevosita ta‘sir qiladi. Yosh foydalanuvchilar (13–25 yosh) asosan qisqa va emotsional yozuvlar orqali muloqot qilsa, kattaroq foydalanuvchilar (26+) grammatik jihatdan to‘liq va me‘yoriy yozilgan matnlar yaratishga moyil bo‘lishadi. Shuningdek, platformalarga qarab stilistik farqlanishlar ham yaqqol kuzatildi: ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Twitter) tezkor va emotsional uslub bilan ajralib turadi, bloglar va forumlar esa ko‘proq analitik va rasmiy matnlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot internet matnlarining nafaqat axborot vositasi, balki tilning rivojlanish manbai sifatidagi rolini ta‘kidladi. Foydalanuvchilarning yaratuvchiligi, tilga ijodiy yondashuvi, yangi lingvistik birliklar va kommunikativ vositalarni shakllantirishi tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega ekani isbotlandi. Ayniqsa, emoji, hashtag va vizual elementlarning keng qo‘llanishi onlayn matnlarning emotsional va kontekstual qatlamini kuchaytirib, muloqotni interaktiv va dinamik holatga olib keladi. Shuningdek, ushbu tahlil foydalanuvchilarni stilometrik profiling asosida farqlash imkonini yaratdi. Bu yondashuv orqali yozuv muallifining yoshi, jinsiyati yoki ijtimoiy holati kabi demografik ko‘rsatkichlarini bashorat qilish mumkinligi isbotlandi. Ushbu usullar xavfsizlik, kontent monitoringi, tilshunoslik, psixologiya va ta‘lim sohalarida amaliy natijalar berishi mumkin. Shu tarzda, tadqiqot internet foydalanuvchilari matnlarining o‘ziga xos stilistik va lingvistik izlarini aniqlash, ularning kommunikativ odatlari, madaniy va yoshga oid tafvutlarini tushunish, shuningdek, tilning zamonaviy internet muhitida qanday shakllanishini o‘rganish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Ushbu natijalar kelgusida internet tili, stilistik diversifikatsiya, va muallif identifikatsiyasi bo‘yicha yangi tadqiqot yo‘nalishlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Stamatatos, E. (2009). A Survey of Modern Authorship Attribution Methods. *Journal of the American Society for Information Science and Technology*.
2. Rangel, F., Rosso, P. (2013). On the Implications of Author Profiling in Social Media. *Language Resources and Evaluation*.
3. Schler, J., Koppel, M., et al. (2006). Effects of Age and Gender on Blogging. *AAAI*.
4. Stamatatos, E., et al. (2022). Survey on Profiling Age and Gender of Text Authors. *Expert Systems with Applications*.
5. Sittar, A., Ameer, M. (2025). Stylometric Author Profiling for Social Media: A Bird’s Eye View. *Computational Social Science Review*.



6. Markov, I., et al. (2019). Author Profiling Using Combinations of Features. *CEUR Workshop Proceedings*.
7. Rangel, F., Rosso, P. (2017). PAN Author Profiling Task. *CLEF*.
8. Verhoeven, B., Daelemans, W. (2014). TWISTY: A Multilingual Stylometry Corpus. *CLiPS Technical Report*.
9. Kestemont, M., et al. (2024). Cross-Linguistic Authorship Attribution. *Digital Scholarship in the Humanities*.
10. Malmasi, S., Zampieri, M. (2022). PART: Pre-trained Authorship Representation Transformer. *arXiv preprint arXiv:2209.15373*.
11. Zhang, X., Liu, F., et al. (2025). Authorship Attribution in the Era of LLMs. *Journal of Artificial Intelligence Research*.
12. Anzovino, M., Fersini, E., & Rosso, P. (2021). Profiling Hate Speech Spreaders on Twitter. *CEUR Workshop Proceedings*.
13. Litvinova, O., Seredin, I., Bukhanovskaya, E. (2020). Multimodal Author Profiling in Social Media. *Future Internet*.

Management and Future Technologies

journal.umft.uz